

# **CAPTIVA**

**Avtomobildan  
foydalanish qo'llanmasi**



# **ALBATTA FAQAT OKTAN SONI 95 BO'LGAN ETILLASHTIRILMAGAN YONILG'IDAN FOYDALANING!**



Ushbu avtomobilning dvigateli avtomobillarni ishlab chiqish sohasida oxirgi yutuqlarga muvofiq loyihalashtirilgan va yasalgan.

Bu tejamkor, texnik takomillashtirilgan va atrof muhitni muhofaza qilish talablariga javob beradigan modeldir.

Dvigatelning tegishlicha ishlashi uchun faqat oktan soni 95 dan kam bo'lmagan etillashtirilmagan yuqori sifatli yonilg'idan foydalanish lozim.

«AVTOMOBILNI BOSHQARISH - Yonilg'i» bobiga, 8-29 betiga qarang. Yonilg'ining boshqa turlaridan foydalanish avtomobilning foydalanish xususiyatlarining yomonlashuviga olib kelishi va kafolatning bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin!

## KIRISH

**Mazkur qo'llanmada eslatib o'tiluvchi nomlanishlar, logotiplar, firma belgilari, shiorlar, avtomobil modellarining nomlanishi va avtomobil kuzovida joylashtiriluvchi naqshlar, jumladan GM nomlanishi, GM logotipi, CHEVROLET nomlanishi, CHEVROLET firma belgisi, CAPTIVA nomlanishi va CAPTIVA firma belgisi General Motors LLC kompaniyasi, uning sho'ba korxonalari, filiallari yoki litsenziyalarining ro'yxatdan o'tkazilgan savdo belgilari va (yoki) xizmat ko'rsatish belgilari hisoblanadi.**

**Ushbu qo'llanmada ta'riflangan funksiyalar mazkur foydalanuvchi qo'llanmasi nashrdan chiqishidan so'ng tatbiq etilgan, sizning xaridingiz yokida modifikatsiya tarkibiga kirmagan qo'shimcha variantlar hisoblanganligi munosabati bilan sizning avtomobilingizda mavjud bo'lmasligi mumkin. Avtomobilda aniq funksiyaning mavjudligini tasdiqlash uchun o'zingizni aniq avtomobilingizni sotib olishga sizning hujjatlaringizga murojaat qiling.**

**Mazkur qo'llanmani undan zarurat bo'lganida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish uchun avtomobil salonida saqlang.**

**Siz Chevrolet avtomobilini xarid qilganingizdan minnatdormiz.**

## MUNDARIJA

1. Kalitlar, eshiklar va oynalar .....	1-1
2. O'rindiqlar va himoya tizimlari .....	2-1
3. Saqlash joylari .....	3-1
4. Asboblarda va boshqarish vositalari .....	4-1
5. Yoritish .....	5-1
6. Axborot-ko'ngil ochish tizimi .....	6-1
7. Iqlim nazoratini boshqarish organlari .....	7-1
8. Avtomobilni boshqarish .....	8-1
9. Avtomobilni parvarish qilish .....	9-1
10. Servis va texnik xizmat ko'rsatish .....	10-1
11. Texnik ma'lumot .....	11-1

## AVTOMOBIL EGASINING DIQQATIGA

### Mazkur Qo'llanmadan qanday foydalaniladi

- Qo'llanma va har bir bo'limning boshida aniq ma'lumotlarni izlab topishni yengillashtiruvchi mundarijalar keltirilgan.
- Tomonlarni (oldinda, orqada, chapda, o'ngda) ko'rsatishda "oldinga" tomon avtomobilning oldinga harakatlanish yo'nalishiga muvofiq keladi.
- Qo'llanmada ta'riflanuvchi ba'zi funksiyalar barcha modellarda ham sozlangan bo'lmashligi mumkin; shuningdek ta'riflanuvchi funksiyalar sizning avtomobilingizda mavjud bo'lmashligi mumkin.
- Qo'llanmada nashr paytiga erishimli bo'lgan dolzarb ma'lumotlar keltirilgan. GM qo'llanmaning nashrdan chiqishidan keyin qo'shimcha xabardor qilmasdan mahsulotga o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida qoldiradi. Qo'llanmadagi ba'zi tasvirlar faqat ma'lumot uchun keltirilgan.

### "Xavf-xatar", "Ogohlantirish" va "Diqqat" belgilari

Avtomobilning yopishtirma yorliqlarida va mazkur qo'llanmada mavjud bo'lgan ogohlantirishli xabarlar, xavf-xatarlarni va ushbu xavf-xatarlardan saqlanish yoki ularni susaytirish uchun nima qilish kerakligini tavsiflaydi.

#### XAVF-XATAR!

Xavf-xatar jiddiy jarohatga yoki o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan xavfning yuqori darajasiga ko'rsatadi.

#### OGOHLANTIRISH!

"Ogohlantirish" belgisi jarohatga yoki o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan xavfga ko'rsatadi.

#### DIQQAT!


"Diqqat" belgisi moddiy ziyon yetkazilishi yoki avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xavfga ko'rsatadi.





O'chirilgan aylana - bu xavfsizlik belgisi bo'lib, u taqiqni anglatadi: "Taqiqlanadi", "Bajarish taqiqlanadi" yoki "Bu sodir bo'lmashligi uchun ta'minlash zarur".

### Shartli belgilar

Avtomobilning ba'zi komponentlari va ularda o'rnatilgan jadvalchalar matnli xabarlar o'rniga shartli belgilarga ega bo'ladi. Quyida keltirilgan belgilar ta'sir tamoyilini tavsiflovchi yoki muayyan komponentlarga, tizimlarga/boshqaruv organlariga, xabarlariga, uskunalariga yoki indikatorlarga taalluqli bo'lgan matnli ma'lumotlarni to'ldiradi.

 : ushbu belgi avtomobil ekspluatatsiyasi bo'yicha Qo'llanmada saqlanuvchi muvofiq ma'lumotlar yoki yo'l-yo'riqlar bilan tanishib chiqish zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

 : ushbu belgi avtomobil ekspluatatsiyasi bo'yicha Qo'llanmada saqlanuvchi muvofiq ma'lumotlar yoki yo'l-yo'riqlar bilan tanishib chiqish zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

 : ushbu belgi boshqa sahifada saqlanuvchi ancha batafsil ma'lumotlar bilan tanishib chiqish zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

### Avtomobilida qo'llaniluvchi shartli belgilar

Quyida avtomobilida qo'llaniluvchi shartli belgilar tasviri va ularning ma'nosi keltiriladi. Avtomobilning tizimlari haqida ancha batafsil ma'lumotlarni olish uchun mazkur Qo'llanmaning muvofiq bo'limlarini ko'ring.

# 1

## KALITLAR, ESHIKLAR VA OYNALAR

---

- KALITLAR VA QULFLAR .....1-2
- ESHIKLAR .....1-9
- TASHQI TOSHOYNALAR .....1-11
- ICHKI TOSHOYNALAR .....1-12
- OYNALAR .....1-12
- TOM .....1-15
- IZOHLAR .....1-18

## KALITLAR VA QULFLAR

### Kalitlar

#### I-turi



#### II-turi



Har bir yangi avtomobil ikki kalitlar bilan butlanadi.

Noqonuniy nusxalarni tayyorlanishidan saqlanish maqsadida kalitni kodli kartochkasini xavfsiz joyda saqlang.

Turli modellar turlicha kalitlarga ega bo'lishi mumkin.

Kalitni avtomobilda qoldirmang.

Avtomobilni tark etayotganda, kalitni o'zingiz bilan olib oling.


Kalitni yo'qotilishi holatida dilerga murojaat qiling.

#### Ajratiluvchi variant



Kalitdagi qaydlagichni (1) burang va mexanik kalitni (2) sug'urib oling. Qo'llab bo'lgandan keyin mexanik kalitni qaytarib qo'ying.

#### Taxlanuvchi variant



Qaydlashni bo'shashtirish tugmasiga (1) bosib, mexanik kalit (2) avtomatik yoyiladi.

Qo'llab bo'lgandan keyin mexanik kalitni qayta taxlab qo'ying.

#### Kiritilgan kalit haqida eslatma, agar ko'zda tutilgan bo'lsa

O't oldirish kaliti qulflash holatida joylashgan va qulfdan chiqarib olinmagan vaqtda, agar haydovchi eshigi ochilsa, avtomobildan chiqishda kalitni sug'urib olish zarurati haqida eslatuvchi tovushli signal jaranglaydi.



## Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishi

### Eshiklarni avtomatik qulfdan yechish



To'siqlar mavjud bo'lmaganida RKE radiobrelogining ta'sirining samarali uzoqligi taxminan 15 m. Kalit o't oldirish qulfiga kiritilgan yoki dvigatelni ishga tushirish-to'xtatish o'zgartirgichi ACC yoki ON holatga joylashtirilgan vaqtda, RKE radiobrelogi ta'sir qilmaydi.

**🔒**: Barcha eshiklarni qulflash uchun, barcha eshiklar yopilganidan keyin bir marta bosib; avariya signalizatsiyasi chiroqlari ikki marta miltillaydi, va avtomobil olib qochishga qarshi himoya rejimiga o'tadi.

**🔒**: Barcha eshiklarni qulfdan yechish uchun bosib; avariya signalizatsiyasi chiroqlari bir marta miltillaydi; olib qochishga qarshi rejim yechilgan bo'ladi.

**🔓**: Bosing va ikki sekund davomida ushlab turing; yuk bo'linmasining eshigini oching. RKE radiobrelogining ishchi uzoqligi atrof-muhitga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. RKE radiobrelogini ishini radioxalallar va to'siqlar buzishi mumkin.

**Avtomobilning joylashgan joyini aniqlash**  
Avtomobilning joylashgan joyini aniqlash funksiyasini faollashtirish uchun **🔒** ikki marta bosib. Avtomobil avariya signalizatsiyasi chiroqlari bilan miltillaydi.

**Oynalarni masofadan ochish**  
Barcha oynalarni ochish uchun **🔒** ni bosib va taxminan ikki sekund davomida ushlab turing.



**Panorama tomni masofadan yopish**  
Agar avtomobil qulflangan, ammo panorama tomi ochiq holda qolgan bo'lsa, tomni va quyoshdan saqlash pardachasini yopish uchun **🔒** tugmasini ikki sekundga bosib.

## Eshiklar qulflarini qulflash va olib qochishga qarshi tizimni faollashtirish

1. Barcha oynalarni yoping.
  2. Agar mexanik kalit ko'zda tutilgan bo'lsa, o't oldirish kalitini LOCK holatga burang va kalitni sug'urib oling.
  3. Hamma yo'lovchilarga avtomobilni tark etish zarur bo'ladi.
  4. Barcha eshiklarni va yukxonani yoping.
  5. RKE brelogida **🔒** tugmasini bosib va ushlab turing. Barcha eshiklarning qulflari qulflangan bo'ladi. Avariya signalizatsiyasining chiroqlari ikki marta miltillaydi; immobilayzer faollashtiriladi.
- Agar dvigatelni ishga tushirish-to'xtatish funksiyasi ko'zda tutilgan bo'lsa, RKE radiobrelogi faqat o't oldirish kaliti qulflash holatiga joylashtirilgan vaqtda immobilayzer tizimini faollashtirishi mumkin. Olib qochishga qarshi himoya rejimi RKE radiobrelogi orqali faollashtiriladi.
- Tovushli signalizatsiya Olib qochishdan himoya rejimida, agar RKE radiobrelogidagi **🔒** tugma bosilmagan va salonding istalgan eshigi yoki yuk bo'linmasining eshigini kuch bilan (jumladan kalit yordamida ham) ochishga urinish amalga oshirilayotgan bo'lsa, tizim avariya signalizatsiyasi chiroqlari bilan miltillaydi va tovushli signalizatsiya yoqiladi.
  - Tovushli signalizatsiyani o'chirish Tovushli signalizatsiyani o'chirish uchun, RKE radiobrelogidagi **🔓**, **🔒** yoki **🔒** ni bosib va

taxminan ikki sekundga ushlab turing yoki kalitni ON holatga burang; agar ushbu harakat amalga oshirilmasa, tovushli signalizatsiya 30 sekund o'tib avtomatik o'chadi, va olib qochishdan himoyalash rejimi qayta yoqiladi. Agar tizim ushbu harakatlarni bajarmayotgan bo'lsa, uni servis-markazida tekshirtiring.

#### **Eshiklarning qulflarini qulfdan yechish va olib qochishdan himoyani o'chirish**

1. RKE radiobrelogida  bir marta bosib.
  - Barcha eshiklarning qulflari qulfdan yechilgan bo'ladi.
  - Avariya nurli signalizatsiya chiroqlari bir marta miltillaydi.
  - Olib qochishdan himoya rejimi o'chirilgan bo'ladi.
2.  ni bosib va ikki sekund davomida ushlab turing.
  - Yuk bo'linmasining eshigi ochiladi.
  - Avariya nurli signalizatsiya chiroqlari bir marta miltillaydi.
  - Olib qochishdan himoya rejimi o'chirilgan bo'ladi.

#### **Qulflash signalizatsiyasi**

Agar masofadan qulflashning tugmasi bosilganida eshikni qulflash uddasidan chiqilmaganida yoki passiv qulflashda eshikni qulflash shartlari bajarilmagan bo'lsa, klaksonning uchkarali tovu'o'i jaranglaydi va avariya signalizatsiyasining chiroqlari miltillaydi.

Eshiklarni qulflashning shartlari bajarilmagan holatlar:

- Avtomobil eshiklaridan biron biri (jumladan. yuk bo'linmasining eshigi) yopilmagan.
- Eshik qulfining issiqlik himoyasi ishlab ketgan.
- O't oldirish kaliti LOCK holatga o'rnatilmagan.
- Passiv kirish tizimi (agar konfiguratsiya bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) avtomobilda haqiqiy kalitni aniqlaganda.

#### **OGOHLANTIRISH!**

Bolalarni, layoqatsiz katta odamlarni yoki uy hayvonlarini yolg'iz o'zlarini mashinada, ayniqsa iliq yoki issiq ob-havoda yopilgan oynalarda, qoldirish taqiqlanadi. Ular haddan tashqari qizib ketishni his qilishlari mumkin, u issiq urushidan majruhlikni, hattoki o'limni olib kelishi mumkin.

#### **Eshiklarni avtomatik qulflash**

Agar barcha eshiklar yopilgan va avtomobil tezligi soatiga 10 km.dan yuqori bo'lsa, barcha eshiklar avtomatik qulflanadi.

#### **Avtomatik takroran qulflash**

Agar kalit o't oldirish qulfiga joylashmagan bo'lsa, agar avariya signalizatsiyasi o'chirilsa, ammo 30 sekund davomida salonning biron bir eshiklari yoki yuk bo'linmasining eshiklarini ochishga urinish amalga oshirilmayotgan bo'lsa, avtomobil avtomatik takroran qulflanadi.

#### **O'chirilgan o't oldirishda qulfdan yechish**

Eshiklar qulflangan vaqtda, ular o't oldirish kaliti ON holatdan ACC yoki LOCK holatga buralishida avtomatik qulfdan yechiladi.

#### **RKE radiobrelogi**

Har bir RKE radiobrelogi o'zining shaxsiy elektron kodiga ega, bu boshqa RKE radiobrelogi bilan eshiklarni ochish imkonini istisno qiladi.

RKE radiobrelogini yo'qotilishida yoki o'g'irlanishida iloji boricha tezroq yangi brelokni xarid qilish uchun o'z dilingizga murojaat qiling. Agar sizga bir yoki bir nechta RKE radiobreloklarini almashtirish zarur bo'lsa, dilerga tashrif buyurishda o'zingizda bo'lgan RKE radiobrelogini yoningizda olib oling. Almashtirishda RKE radiobrelogini diler sozlayotgan vaqtda, mavjud bo'lgan RKE radiobrelogini, shuningdek yangi kod bilan qayta proshivka qilish zarur.

Yangi RKE radiobrelogiga kodni yozishdan keyin yo'qotilgan RKE radiobrelogi sizni avtomobilingizni ochishdan to'xtaydi.

I-turdagi kalitlar uchun bir vaqtda uchtadan ko'p radiobreloloklar sozlangan bo'lishi mumkin; II va III-turdagi kalitlar uchun bir vaqtda to'rttagacha sozlangan radiobrelok mavjud bo'lishi mumkin.

#### **RKE radiobrelogining signallarni uzatilishini avtomatik to'xtatish funksiyasi**

RKE radiobrelogi signallarni uzatilishini avtomatik to'xtatish funksiyasiga ega, u noto'g'ri ishlashda va boshqa holatlarda batareyaning quvvatsizlanishini oldini oladi.

Agar RKE radiobrelogidagi biron bir tugma 10 sekund va undan ko'p vaqt bosilgan holda bo'lsa, RKE radiobrelogi signallar uzatilishini avtomatik to'xtatadi.

Tugma qo'yib yuborilgan vaqtda signallarni uzatilishini avtomatik to'xtatish funksiyasi o'chiriladi.


Agar RKE radiobrelogi me'yorda ishlamasa, xatolik yuzaga keladi.

Bu quyidagi sabablar bilan chaqirilgan bo'lishi mumkin:

- RKE radiobrelogi ta'sir zonasidan tashqarida joylashgan
- RKE radiobrelogining batareyasi kuchli quvvatsizlashgan
- Tashqi xalallar va boshqa kuchli radiosignallar mavjud, masalan bazaviy stansiyalar yoki ishga tushirish minoralarining signallari
- Signal to'siqlar bilan to'silgan

#### **Passiv kirish**

Passiv kirish va ishga tushirish funksiyasi, agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, RKE radiobrelogining orqa eshiklarga yoki yuk bo'linmasining eshigigacha muayyan masofaga yaqinlashganida eshiklarni qulflash va qulfdan yechish imkonini beradi. Shunday qilib, masofadan qulflash va qulfdan yechishni cho'ntakdan kalitni chiqarmasdan amalga oshirish mumkin.



Agar eshiklar qulflangan va o't oldirish kaliti LOCK holatiga joylashtirilgan bo'lsa, kalitni oldingi eshikning tutqichidan 1,2 m.dan yaqin masofaga yaqinlashtiring. Tutqichdagi tugmani bosib, va tizim kalitning haqiqiyiligini tekshiradi. Kalitning haqiqiyiligi tasdiqlanganidan keyin tizim barcha eshiklarni qulfdan yechadi. Avariya nurli signalizatsiya chiroqlari bir marta miltillaydi.

Agar RKE radiobrelogining batareyasi quvvatsizlashgan bo'lsa, passiv kirish/qulflash funksiyasi ishlamasligi mumkin. Eshiklarni qulflash va qulfdan yechish uchun mexanik kalitdan foydalanish mumkin. Iloji boricha tezroq RKE radiobrelogining batareykasini almashtiring.

#### **Passiv qulflash**


Agar barcha eshiklar yopilgan va o't oldirish kaliti LOCK holatiga joylashtirilgan bo'lsa, kalitni oldingi eshikning tutqichidan 1,2 m.dan yaqin masofaga yaqinlashtiring. Tutqichdagi tugmani bosib, va tizim kalitning haqiqiyiligini tekshiradi. Kalitning haqiqiyiligi tasdiqlanganidan keyin tizim barcha eshiklarni qulflaydi. Avariya nurli signalizatsiyaning chiroqlari ikki marta miltillaydi.

Siz eshikning tutqichdagi tugmani bosgan quyidagi holatlarda, tizim ogohlantiruvchi xabar uzatadi, klakson uch marta ovoz chiqaradi va eshiklar yopilmaganligiga ko'rsatib, avariya signalizatsiyasi chiroqlari uch marta miltillaydi:

- Avtomobilning eshigi yopilgan.
- O't oldirish kaliti LOCK holatga o'rnatilmagan.
- Avtomobilda kalit mavjud. Barcha kalitlarni tekshiring va qulflashni yana bir marta bajaring.

### Yuk bo'linmasini eshigini passiv qulfdan yechish/qulflash

#### Passiv qulfdan yechish



Agar eshiklar qulflangan va o't oldirish kaliti LOCK holatiga joylashtirilgan bo'lsa, kalitni yuk bo'linmasining eshigidan 1,2 m.dan yaqin masofaga yaqinlashtiring. Yuk bo'linmasining eshigini tugmasiga bosing, va tizim kalitning haqiqiyligini tekshiradi. Kalitning haqiqiyligi

tasdiqlanganidan keyin tizim yuk bo'linmasini eshigini qulfdan yechadi, va u ochiladi.

Agar eshiklar qulfdan yechib bo'lingan bo'lsa, yuk bo'linmasining eshigini yuk bo'linmasini eshigini ochish tugmasini bevosita bosish bilan ochish mumkin.

#### Passiv qulflash

Agar eshiklar qulflanmagan bo'lsa, yuk bo'linmasining eshigini yopishda tizim avtomobilda haqiqiy kalitni izlashni avtomatik bajaradi. Agar avtomobilda haqiqiy kalit yo'q bo'lsa, yuk bo'linmasining eshigi avtomatik qulflanadi. Avariya nurli signalizatsiyaning chiroqlari ikki marta miltillaydi. Agar avtomobilda kalit mavjud bo'lsa, tizim ogohlantiruvchi xabarni uzatadi, klakson uch marta ovoz chiqaradi va avariya signalizatsiyasi chiroqlari uch marta miltillaydi: to'rtta yon tomon eshiklari avtomatik qulfdan yechiladi. Avtomobildan kalitni olib qo'ying va eshiklarni qayta qulflang.

#### Batareyani almashtirish


RKE radiobrelogining litiyli batareykasi taxminan ikki yilga yetadi. U quvvatlashni talab etmaydi. Dilerdan CR2032 turidagi yangi batareykani xarid qiling.

RKE radiobrelogi me'yorda faoliyat yuritishi uchun:

- RKE radiobrelogini tushirib yubormang.
- RKE radiobrelogi ustiga og'ir buyumlar qo'ymang.
- RKE radiobrelogini suvdan va to'g'ri quyosh yorug'ligidan himoya qiling. RKE brelogi namlanganida uni yumshoq matoda artib oling.


#### Eshiklarning qulflari

#### Eshiklarni tashqaridan qulflash va qulfdan yechish



Chap oldingi eshikning tashqi tutqichidagi qulf teshigi dekorativ to'shama ostiga yashiringan. Eshikni kalit bilan ochish uchun, dekorativ to'shamani yechib olish kerak. Eshikning bunday usulda ochilishi, agar RKE radiobrelogi

yo'qotilgan yoki unda batareyka quvvatsizlanganida, qo'llaniladi. To'shama ostida kichik teshikcha mavjud. Kalitni tirqishga o'rnatish uchun, uni bir vaqtda torting (2).  
To'shamani joyiga o'rnatish uchun, uni qayd etilguniga qadar bosing.






Eshikni tashqaridan kalit bilan qulflash uchun, kalitni o'rnatish uchun, uni soat strelkasiga qarama-qarshi burang (2). Eshikni qulfdan yechish uchun, kalitni soat strelkasiga teskari burang (1).

### ⚠️ **DIQQAT!**

Avtomobilida bolalarni va hayvonlarni yolg'iz qoldirmang. Bu sog'liqqa jiddiy zarar yetkazishi yoki o'limga olib kelishi mumkin. Bolalar elektr oynako'targichlarni, boshqa boshqaruv organlarini yoki hatto avtomobilni o'zini harakatga keltirishi mumkin. Avtomobilda o't oldirish kaliti mavjud bo'lganida, uning ichida bolalarni qoldirmang. Bu og'ir jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin.

### **Eshiklarni ichkaridan qulflash va qulfdan yechish**




Eshiklarni ichkaridan qulflash uchun,  markaziy qulfnig o'zgartirgichida bosing. Eshiklarni ichkaridan qulfdan yechish uchun,  markaziy qulfnig o'zgartirgichida bosing.

Agar qulflash tugmasidagi indikator yonib turgan bo'lsa, demak, eshiklar qulflangan; agar indikator yonmayotgan bo'lsa, u holda eshiklar qulfdan yechilgan.

Agar siz avtomobilni qarovsiz qoldirayotgan bo'lsangiz, barcha eshiklarni va yuk bo'linmasini qulflab qo'ying va kalitni yoningizda olib keting. Agar salon va yuk bo'linmasini eshigini ochiq holatda qoldirilsa, avtomobilni olib qochishligi mumkin.

Avtomobilni to'xtab turishga nazorat qiluvchi joylarga o'rnatish. Zarar ko'rishdan saqlash maqsadida, avtomobil qarovsiz qolgan vaqtda, uning ichida qimmatbaho buyumlarni qoldirmang.

### **Eshiklarni tashqaridan va ichkaridan ochish.**






Eshiklarni ichkaridan yoki tashqaridan ochish uchun, ularni qulfdan yeching va eshikning tashqi yoki ichki tutqichidan torting.

Agar eshiklar qulflangan bo'lsa, ularni eshikning ichki tutqichini ikki marta tortib, ochish mumkin. Bola orqa o'rindiqlarda mos keluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilmada o'tirishi kerak va uning eshigini bolalardan himoya funksiyasi bilan bloklab qo'yish zarur. Agar eshiklar ochishda/yopishda yoki harakatlanish vaqtida tovush chiqarayotgan bo'lsa, lo'kidon va oshiq-moshiqlarni konsistent moy bilan moylang.

### Tokdan mahrum etilgan avtomobilning eshiklarini qulflash

Agar avtomobil tokdan mahrum etilgan bo'lsa, markaziy qulf ishlamaydi, masalan, quvvatsizlangan akkumulator sababli. Bunday holatda eshiklarning har birini qo'lda qulflash zarur.



Eshiklarning lo'kidonlariga yetib borish uchun (1), o'ng oldingi eshikni va ikki orqa eshiklarni oching.

Lo'kidonni kalit bilan tashqariga burang va eshiklarni yoping. Eshiklar qulflanganligiga ishonch hosil qilish uchun, tashqi tutqichlardan torting. Eshikni ochish uchun, avval eshikning ichki tutqichidan torting.

Chap oldingi eshikni qulflash uchun, eshikning tashqi tutqichidagi qulf teshigiga kalitni o'rnatib va kalitni soat strelkasi bo'yicha burang. "Eshiklarni tashqaridan qulflash va qulfdan yechish"ni ushbu bo'limda oldinroq ko'ring.


### Bolalardan mexanik himoya



Orqa eshiklar bolalardan himoyali qulflar bilan jihozlangan.

Ushbu qulflar yo'lovchilarga, xususan, bolalarga tutqichdan tortib, orqa eshiklarni ochish imkonini bermaydi.

Bolalardan himoyani faollashtirish uchun:



1. Qulflashni istagan orqa eshikni oching.
  2. Bolalardan himoya mexanizmining tirqishini eshikning chetida o'rtada toping.
  3. Kalitni o'rnatib va qulflash holatiga (2) soat strelkasi bo'ylab burang.
- Bolalardan himoya yoqilgan vaqtda, eshikni faqat tashqi tutqich orqali ochish mumkin. Bolalardan himoyani faolsizlantirish uchun, kalitni o'rnatib va qulfdan yechish holatiga (1) soat strelkasiga qarama-qarshi burang. Ikki orqa eshiklarning bolalardan himoya mexanizmlari bir-biriga bevosita harakat qiladi, va ularni qo'lda faollashtirish kerak.

### ⚠ *DIQQAT!*

Agar bolalardan mexanik himoya qulflash holatiga o'rnatilgan bo'lsa, avtomobilning eshigini ichki tutqichidan tortmang; bu tutqichning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

### Eshiklarni markazlashtirilgan qulflash tizimi

Eshiklarni markazlashtirilgan qulflash tizimi RKE radiobrelogi yoki avtomobilning ichkarisida joylashgan markaziy qulfnig tugmasi yordamida qulflash va qulfdan yechish imkonini beradi.


### Eshiklarning qulflarini issiqlikdan himoyalash

Agar eshiklar sakkiz sekund davomida 10 yoki undan ortiq vaqtda qulfdan yechilayotgan va qulflanayotgan bo'lsa, shikastlanishni oldini olish uchun qulflar qulfdan yechish buyruqlariga 10 sekund amal qilmay qoladi.


## ESHIKLAR

### Kapot


#### Kapotni ochish



1. Kapotni ochish tutqichidan torting.



2. Kapot ochilgan vaqtda, qo'lni oldindan kapotning chetki hoshiyasi ostidan o'tkazing. Kapotni ochish tutqichini tepaga torting va kapotni to'liq oching.



3. Kapot tirgagini ushlagichdan chiqarib oling. Kapot tirgagining bo'sh uchini o'yiqa o'rnatning.

#### **Kapotni yopish**

1. Kapot yopilib qolmasligi uchun, uni tutib turgan holda, kapot tirgagini o'yiqdan chiqarib oling. Kapot tirgagini ushlagichga qotiring.  
2. Qo'llarni va tananing boshqa qismlarini motor bo'linmasiga, kapotga va kuzovning panellari chetiga yaqinlashtirmang.

3. Kapotni oxista tushiring va oldingi hoshiya yopilgan holatdan taxminan 30 sm.ga yuqori bo'lganida, uni qo'yib yuboring.  
4. Kapot qayd etilganligini albatta tekshiring.

#### **⚠️ DIQQAT!**


Ehtiyotkorlikni quyidagi choralariga rioya qiling:

- Kapot ishonchli yopilganligiga ishonch hosil qilish uchun, harakatlanishni boshlashdan avval kapotning oldingi chetidan torting.
- Harakatlanish vaqtida kapotni ochish tutqichidan tortmang.
- Avtomobilni ochiq kapot bilan haydamang. Ochiq kapot haydovchining ko'rish maydonini to'sib qo'yadi.

Ochiq kapot bilan harakatlanish avariya, avtomobilning va boshqa mol-mulkning shikastlanishiga va qurbonlarga olib kelishi mumkin.

#### **Orqa ko'tarma eshik**

**Yuk bo'linmasi eshigini bo'shatish o'zgartirgichi**



Yuk bo'linmasini eshigini bo'shatish o'zgartirgichi yuk bo'linmasini eshigini ochish tutqichini ustida joylashgan. Harakatlanishni boshlashdan avval, yuk bo'linmasining eshigi yopilganligiga va qulflanganligiga ishonch hosil qiling.

#### **⚠️ DIQQAT!**

Ochiq va mahkamlanmagan orqa ko'tarma eshik bilan harakatlanish eshikning elektr yuritmasini shikastlanishiga olib kelishi mumkin.



**Yuk bo'linmasi eshigini ochish**


Yuk bo'linmasining eshigini uchta usulda ochish mumkin:

- Eshiklarni qulfdan yeching va yuk bo'linmasini eshigini bo'shatish o'zgartirgichiga bosing.
- RKE radiobrelogida yuk bo'linmasini eshigini ochish tugmasini taxminan ikki sekundga bosing.
- Agar avtomobil passiv kirish va ishgga tushirish tizimi (PEPS) bilan jihozlangan bo'lsa, yuk bo'linmasi eshigini bo'shatish o'zgartirgichiga bosing.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Elektr yuritmalı yopilayotgan orqa ko'tarma eshik trayektoriyasiga tushib qolishda jarohat olish mumkin. Eshikni ochish va yopishda hech kim uning yo'lida turmaganligiga ishonch hosil qiling.

Yuk bo'linmasini eshigini qulflash uchun, avval uni yoping. Yopilayotgan eshik hech kimga tegib ketmasligini kuzating.


**Yuk bo'linmasini ichkarisidan yuk bo'linmasini eshigini ochish**

Agar yuk bo'linmasini eshigini boshqa usulda ochish imkoni bo'lmaganida, vaqtinchalik chora sifatida quyidagi usulni qo'llash mumkin:

1. Yuk bo'linmasiga kirishni ochish uchun, orqa o'rindiqlarning suyanchiqlarini taxlang.
2. O'yiqli tutqichgacha yetib borish uchun, yuk bo'linmasi eshigining qulfining tashqarisidagi dekorativ qopqoqni (2) yechib oling.
3. O'yiqqa buragichni yoki kalitni o'mating va yuk bo'linmasini eshigini ochish uchun tutqichni soat strelkasi bo'ylab burang.

**TASHQI TOSHOYNALAR****Elektr yuritmalı toshoynalar****Orqani ko'rishning tashqi toshoynasi**

Harakatlanishni boshlashdan avval, orqani ko'rishning barcha toshoynalarining ko'rish maydonlarini tekshiring.

**Orqani ko'rishning tashqi toshoynasini sozlash**

Elektr yuritmalı orqani ko'rishning tashqi toshoynasini sozlash o'zgartirgichi uskunalar panelining chap tomonida joylashgan. Orqani ko'rish tashqi toshoynani sozlash uchun:

## ICHKI TOSHOYNALAR

1. Sozlamoqchi bo'lgan toshoynani tanlang. Orqani ko'rish chap va o'ng tashqi toshoynalarni sozlash uchun, selektor o'zgartirgichda (1) muvofiq tarzda L yoki Rni bosib.
2.  $\Delta$  (2) tugmalari bilan orqani ko'rishning tanlangan toshoynasini tepaga, pastga, chapga yoki o'ngga burilishini sozlang.
3. Toshoynani tanlash o'zgartirgichini dastlabki holatga o'tkazing.


### Toshoynalarni taxlash

Piyodalarning xavfsizligi uchun orqani ko'rish tashqi toshoyna muayyan kuchdan katta zarba yetkazilishida oldinga yoki orqaga taxlanadi. Uni qo'lda dastlabki holatga qaytarish mumkin.

### Orqani ko'rishning tashqi toshoynasini muzdan tushirish

Ba'zi modellarda orqani ko'rish tashqi toshoyna muzdan tushirish funksiyasiga ega. Muzdan tushirish uchun iqlim-nazoratni boshqarish panelida orqa toshoynani muzdan tushirish orqa tugmasini bosib. Orqa toshoynaning muzdan tushirish tugmasi funksiyasi haqidagi ma'lumotlarni iqlim-nazorat tizimlari  $\rightarrow$  7-2 ni ko'ring.

### Orqani ko'rishning ichki toshoynasi



Orqani ko'rishning ichki toshoynasini qo'lda sozlang. Ba'zi modellarda orqani ko'rishning ichki toshoynasi yaltirashga qarshi funksiyaga ega, u tungi vaqtda avtomobil orqasida harakatlanayotgan avtomobillarning faralaridan yaltirashlarni kamaytirishga imkon beradi. Yaltirashga qarshi rejimni faollashtirish uchun, orqani ko'rish toshoynasining pastki qismidagi o'zgartirgichni o'zingizga suring. O'zgartirgichni kunduzgi vaqtda haydashda qayta joyiga o'tkazishni unutmang. Yaltirashga qarshi rejimda orqani ko'rish toshoynasida ko'rish maydonining tiniqligi pasayadi. Harakatlanishda ehtiyotkorlikka rioya qiling.

## OYNALAR

### Elektr oyna ko'targichlar

O't oldirish o'zgartirgichi ON holatiga joylashtirilgan vaqtda, deraza oynalarining holatini eshiklarni tirsaklagichlari panellarida oynako'targichlarning o'zgartirgichlari bilan sozlash mumkin. Oynako'targichlarni, shuningdek, haydovchi tomonidagi qurama o'zgartirgich yordamida boshqarish mumkin. Oynako'targichlar o'zgartirgichlari yordamida oynalarni boshqarish imkoniyati o't oldirish kalitini ON holatdan ACC yoki LOCK holatga yoki kalitning o't oldirish qulfidan chiqarib olinishidan keyin 30 sekund davomida saqlanib qoladi.

### **⚠ DIQQAT!**

Oynako'targichlarni boshqarib, bolalar qisilib qolish sababli jarohat olishlari mumkin.

- Kalitlarni va bolalarni avtomobilda qarovsiz qoldirmang.

Elektr oynako'targichlarni noto'g'ri boshqarish jarohatlarga olib kelishi mumkin.

### Elektr oynako'targich o'zgartirgichi



Oynani ko'tarish uchun, o'zgartirgichni tepaga torting.

Oynani tushirish uchun, o'zgartirgichga pastga bosing.

Oyna kerakli holatga kelganida, o'zgartirgichni qo'yib yuboring.

Harakatlanayotgan oynalar yonida sizning va boshqa odamlarning - qo'llari va tananing boshqa qismlari bo'lmasligini kuzating.

### Haydovchi tomonida elektr oyna ko'targichli oyna -bir bosish bilan tushirish

Haydovchi tomonida elektr oynako'targichli oyna tugmani bir bosish bilan tushirish funksiyasiga ega. O'zgartirgichni pastga bosing va qo'yib yuboring; oyna to'liq ochilgan holatda avtomatik pastga tushirilgan bo'ladi. Tushirishni to'xtatish uchun, o'zgartirgichni tepaga torting va qo'yib yuboring.


### Haydovchi tomonida elektr oyna ko'targichli oyna -bir bosish bilan yopish

Ba'zi modellarda haydovchi tomonida elektr oynako'targichli oyna bir bosish bilan yopish funksiyasiga ega. Oynani yopish uchun, o'zgartirgichni tepaga torting va qo'yib yuboring; oyna avtomatik to'liq yopiladi. Yopilishni to'xtatish uchun, o'zgartirgichga bosing va qo'yib yuboring.

### Haydovchi tomonida elektr oyna ko'targichli oyna - siqib qolishdan himoya

Bir tugma bilan yopishli elektr oynako'targichli oyna, shuningdek, siqilib qolish bilan bog'liq jarohatlardan himoyalash funksiyasiga ega. Agar yopishda oyna to'siqqa duch kelsa, u avtomatik pastga tushadi.

### Elektr oynako'targichli oynalarni masofadan ochish

Barcha oynalarni ochish uchun, RKE radiobrelogida taxminan ikki sekund davomida  ni bosing va ushlab turing.

### Haydovchi tomonida elektr oyna ko'targichli oyna - initsializatsiya

Haydovchi tomonidagi bir tugma bilan oynani yopish va ochish funksiyasining ishi, masalan, akkumulator batareyasini ulash va uzishda, buzilishi mumkin. Bunday holatda oynaning initsializatsiyasini bajaring. Haydovchi tomonidagi oyna o'zgartirgichini tepaga torting va uni oyna to'liq yopilganidan keyin kamida besh sekund davomida ushlab turishni davom ettiring, so'ngra qo'yib yuboring. Initsializatsiya yakunlandi. Agar bir tugma bilan yopish yoki ochish funksiyasi initsializatsiyasidan keyin avvalgidek amal qilmayotgan bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

### Elektr oyna ko'targichlarini bloklash tugmasi




Elektr oynako'targichlarini bloklash tugmasi oldingi yo'lovchini oynasini va orqa oynalarning oynako'targichlarini o'zgartirgichini bloklash imkonini beradi. Tugmaga bosing, va barcha qolgan elektr oynako'targichlarning o'zgartirgichlari bloklanadi. Ushbu rejimda oynalarni faqat haydovchi tomonida boshqaruv paneli tugmasi yordamida boshqarish mumkin. Bloklanishni olish uchun, tugmani yana bir marta bosing.

### **⚠️ DIQQAT!**

Bolalar elektr oynako'targichlarni yoqishlari va ko'tarilgan oyna bilan siqib qolish oqibatida jiddiy jarohat olishlari mumkin. Bolalarni tashishda orqa eshiklardagi elektr oynako'targichlarni boshqarishni bloklang.


### Quyoshdan himoyalovchi soyabonlar



Sizning avtomobilingiz quyoshdan himoyalovchi soyabonlar bilan jihozlangan, u haydovchining va oldingi o'rindiqdagi yo'lovchining ko'zlarini qamashtirilishini kamaytirishga imkon beradi.

Soyabonni tepaga, pastga va yon tomonlarga o'tkazish mumkin. Konfiguratsiyaga bog'liq holda soyabonda saqlash uchun cho'ntak yoki toshoyna ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin.

### Yordamchi dasta



Oldingi yo'lovchining eshigi ustida va orqa eshiklarning ustida yordamchi dastalar joylashgan. Ba'zi modellarda dastaga kiyimlar uchun ilgak o'rnatilgan.

Dasta yo'lovchilarni o'tirishini va chiqishini yengillashtiradi. Ulardan, shuningdek, avtomobilning tez harakatlanishida holatni saqlash uchun ushlab turish mumkin.

Dastadan foydalanish uchun, uni pastga tushiring. Qo'yib yuborilishida u avtomatik dastlabki holatga qaytadi.

**TOM****Tomning ventilyatsiya lyuki****Agar ko'zda tutilgan bo'lsa**

Elektr yuritmalı panorama tomni o't oldirish kaliti ON holatga o'rnatilgan vaqtda boshqarish mumkin.


**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Quyidagi talablarga rioya qiling:

- Panorama tomni ochiq lyukidan chiqib turmang va unga hech qanday buyumlarni joylashtirmang.
- Panorama tomning yopishdan avval, tashqarida va ichkarida hech qanday to'siqlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Panorama tomiga va uning yoniga og'ir buyumlarni qo'ymang.
- Tom tashqarisida begona buyumlar bo'lmasligini kuzating.
- Avtomobilni qarovsiz qoldirib, panorama tomni to'liq yoping.

Panorama tomi ochiq va yopiq bo'lganda yo'lovchilar har qanday boshqa holatlardagidek xavfsizlik kamarlarini taqib olishlari kerak.


Yuqorida ko'rsatilgan talablarni buzish og'ir jarohatlarga va avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

**Quyosh pardasi**

Quyosh pardasini ochish yoki yopish tugmachasini bosib, uni ochish yoki yopish yo'nalishida suring va quyosh pardasi kerakli holatda bo'lganda qo'yib yuboring. Tugmachani bir marta qisqa bosish orqali quyosh pardasi avtomatik ravishda ochiladi va yopiladi.

**Panorama tomi**

Panorama tomi old va orqa qismlardan iborat. Old qismi egilishi va surilishi mumkin, orqa qismi surilmaydi.


**Panorama tomning qiyaligi**

Panorama tomning old tomonini qiyalatish mumkin.

- Panorama tomi to'liq yopilganda uni qiyalatish uchun panorama tomi tugmachasini orqaga suring va tom kerakli holatda bo'lganda qo'yib yuboring. Panorama tomni maksimal darajada qiyalatish va ochish uchun tugmachani tom to'xtaguncha bosib turing.
- Panorama tomi tugmachasini ham qisqa bosishingiz mumkin va u avtomatik ravishda egiladi. Qiya panorama tomni yopish uchun

panorama tomi tugmachasini oldinga siljiting va tom kerakli holatda bo'lganda qo'yib yuboring. Panorama tomni to'liq yopish uchun tugmachani tom to'xtaguncha ushlab turing. Shuningdek, siz panorama tomi tugmachasini oldinga qisqa bosishingiz mumkin va u avtomatik ravishda yopiladi.

#### Panorama tomni siljitish



Panorama tomi to'liq ochiq holatga siljigandan so'ng, uni orqaga surish mumkin

- Panorama tomni ochiq holatga siljitish uchun panorama tomi tugmachasini orqaga suring va tom kerakli holatda bo'lganda qo'yib yuboring. Panorama tomi tugmachasini ham qisqa bosishingiz mumkin va u avtomatik ravishda ochiq holatga o'tadi.

- Panorama tomni yopiq holatga o'tkazish uchun panorama tomning tugmachasini oldinga siljiting va tom kerakli holatda bo'lganda qo'yib yuboring. Panorama tomni to'liq yopish uchun tugmachani tom to'xtaguncha ushlab turing. Bundan tashqari, panorama tomi tugmachasini oldinga qisqa surishingiz mumkin va u avtomatik ravishda yopiq holatga o'tadi.

#### Bir tugmani bosish orqali panorama tomning ochilishi va yopilishi

Panorama tomi tugmachasini qisqa bosing va u avtomatik ravishda ochiladi yoki yopiladi.

Panoramali tomni qiya qilish uchun ochish jarayonida tugmachani bir marta qisqa bosing; uni ochiq holatga o'tkazish uchun yana bosing. Yopish jarayonida tugmachani qisqa vaqt ichida oldinga bosilsa, tom avtomatik ravishda to'liq yopiladi. Avtomatik ochish yoki yopish jarayonini to'xtatish uchun tugmachani qisqa bosing.

#### Panorama tomni siqib qolishini oldini olish funksiyasi

Bir tugma bilan yopish rejimida, agar yopish jarayonida qattiq to'siq (masalan, qo'l yoki bosh) uchrasa, panorama tomi orqaga suriladi.

#### Oynalarni masofadan ochish va yopish

Masofadan boshqarish pultidagi qulfni ochish/qulflash tugmasini taxminan ikki soniya bosib turing, shunda quyosh pardasi va panorama tomi avtomatik ravishda to'liq ochiladi/yopiladi.

#### Panorama tomni ishga tushirish

Panorama tomi va quyosh pardasining ochilish va yopish funksiyalari muayyan holatlarda, masalan, oynani yoki haydovchi motorni almashtirishda ta'sir qilishi mumkin. Bunday holda, panorama tomi yoki quyosh pardasi ishga tushirilishi kerak. Jarayon: Panorama tomni yoki quyosh pardasini to'liq yoping.

Panorama tomi tugmachasini yoki quyosh pardasini yopish tugmachasini mexanizm ishlayotgan ovozini eshitmaguningizcha taxminan 10 soniya bosib turing. Shundan so'ng ishga tushirish tugallanadi. Agar ishga tushirilgandan so'ng, bitta tugmachani ochish yoki yopish hali ham ishlamasa, tekshirish va

ta'mirlash uchun eng yaqin xizmat ko'rsatish stantsiyasiga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz.

qo'yib yuborilsa, tom oynasi to'xtaydi va quyosh pardasi yarim ochiq holatga oldinga yoki yarim ochiq holatga qaytishda davom etadi.

### **Kontaktni o'chirgandan keyin nazorat qiling**

Avtomobil o'chirilgandan so'ng 30 soniya ichida panoramali tom va quyosh pardasining tugmachasini bosish orqali yopilishi mumkin, lekin ochilmaydi.

### **Panorama tomi va quyosh pardasining aloqasi**

Bu xususiyat avtomobilni tark etganda tomning ochiq holatda ekanligini eslab qolishga yordam beradi.

Quyosh pardasi to'liq yopilganda, panorama tomi tugmachasini orqaga surib, panorama tomi tugmachasini ushlab tursangiz, lyuk bilan birga quyosh pardasi ham ochiladi. Tugma uzoq bosilgandan so'ng qo'yib yuborilganda, tom yopish oynasi darhol to'xtaydi va quyosh pardasi yarim ochiq holatga o'tishda davom etadi. Agar tom oynasi ochiq bo'lsa, quyosh pardasini yopish tugmachasini uzoq vaqt bosib turish tomni ham yopadi. Yopish vaqtida tugma





# 2

## O'RINDIQLAR VA HIMOYA TIZIMLARI

---


- BOSH TAGLIKLARI .....2-2
- OLDINGI O'RINDIQLAR .....2-3
- ORQA O'RINDIQLAR ..... 2-7
- XAVFSIZLIK KAMARLARI ..... 2-8
- SHISHIRILUVCHAN XAVFSIZLIK  
YOSTIQLARI TIZIMI ..... 2-12
- BOLALAR UCHUN XAVFSIZLIK TIZIMLARI ... 2-19

## BOSH TAGLIKLARI

Holat



Balandlikni sozlash



Bosh tagligining o'rta o'rindiqda o'tiruvchining ko'zlari darajasida joylashgan bo'lishi kerak. Agar yuqorida ko'rsatilgan talabga rioya etilmayotgan bo'lsa, u holda bo'yi baland odamlar uchun bosh tagligini maksimal baland holatga ko'tarish kerak; bo'yi baland bo'lmagan odamlar uchun bosh tagligini pastki holatga tushirish kerak.

Bosh tagligini baland holatini sozlash uchun uni tepaga tegishli holatga tortib chiqaring. Bosh tagligini dastlabki holatga o'tkazish uchun, bloklash o'chirgichini bosib va ushlab turing. Bosh tagligini pastki holatini sozlash uchun bloklashni o'chirgichini bosilgan holatda ushlab turing va bosh tagligini pastga tegishli holatga itaring; so'ngra sozlashni qaydlash uchun blokirovka o'chirgichini qo'yib yuboring.

### **⚠ XAVF-XATAR!**

Agar bosh tagliklari o'rnatilmagan yoki noto'g'ri sozlangan bo'lsa, to'qnashuv vaqtida bo'yin va umurtqaning jarohat olishni yuqori xavfi mavjuddir. Agar barcha bosh tagliklari o'rnatilmagan yoki sozlanmagan bo'lsa, avtomobilni boshqarish taqiqlanadi.

### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Jarohatlanishdan saqlash maqsadida barmoq blokirovka o'chirgichida joylashgan vaqtda, bosh tagligiga juda qattiq bosmang.

## OLDINGI O'RINDIQLAR

### O'rindiqlarning holati



- Barcha displeylarni va boshqaruv organlarini yaxshi ko'rish uchun, o'rindiqlarning shunday balandligini o'rnatish kerak. Tos sohasi o'rindiqlar qulay tiralib turishi kerak.

#### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Harakatlanish vaqtida haydovchi o'rindig'ini sozlashga urinish avtomobil boshqaruvi yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Haydovchi o'rindig'ini faqat harakatlanmayotgan avtomobilda sozlang.

### O'rindiqlarni sozlash


#### Holatni mexanik sozlashli o'rindiq



- O'rindiqlarda iloji boricha o'rindiq suyanchig'iga yaqinroq o'tiring. O'rindiq va tepkining orasidagi masofani shunday sozlangki, tepkiga bosishda oyoq ozgina bukilgan bo'lsin. Yo'lovchining yon tomon o'rindig'ini iloji boricha orqaga suring.
- O'rindiqlarda yelkalar bilan o'rindiqlarning suyanchig'iga yelkalar bilan tiralgan holda o'tiring. O'rindiq suyanchig'ini orqaga shunday engashitirinki, rul chambaragiga ozgina bukilgan qo'llar bilan yetib borilsin. Rul chambaragini burishda yelkalar o'rindiq suyanchig'iga tiralib turishi kerak. O'rindiq suyanchig'ini juda uzoqqa surish yaramaydi. O'rindiq suyanchig'ining engashish burchagi 25 gradusdan oshmasligi kerak.

O'rindiq holatini oldinga yoki orqaga sozlash uchun, o'rindiqlarning oldingi pastki qismida o'rnatilgan sozlash pishangisini tepaga torting. O'rindiqlarni talab etilayotgan holatga o'rnatgandan keyin pishangini qo'yib yuboring. O'rindiqlarning talab etiluvchi holatda qayd etilganligini tekshirish uchun, o'rindiqlarni oldinga yoki orqaga surib ko'rishga urinib ko'ring.

#### Holatni sozlashning elektr yuritmalii o'rindiq



Sozlash elektr yuritmasining o'chirgichi o'rindiqlarning tashqi tomonida joylashgan. O'chirgichni oldinga yoki orqaga suring, va o'rindiq muvofiq tarzda oldinga yoki orqaga suriladi. O'rindiq talab etilayotgan holatga o'rnatilgan vaqtda, o'chirgichni qo'yib yuboring.

Agar o'rindiq o'chirgich ta'siri ostida surilmayotgan bo'lsa, ehtimol, u eng chetki oldingi yoki orqa holatga o'rnatib bo'ling, yoki avtomobilning akkumulator batareyasi quvvatsizlashgan. Taxminni tasdiqlash uchun tekshiring. Shikastlanishdan saqlanish maqsadida o'chirgichni kuch bilan burash taqiqlanadi.

#### O'rindiq balandligini mexanik sozlash



O'rindiqning tashqi tomonidagi dastani, toki o'rindiqning talab etiluvchi balandligi o'rnatilmagunicha, tepaga yoki pastga burang.

Sozlashdan avval o'rindiqqa o'tiring, aks holda sozlash qurilmasining shikastlanish ehtimoli bor.

#### Elektr yuritmalı o'rindiqning balandligini sozlash




Rasmda ko'rsatilganidek, o'rindiq yostig'ining tashqi tomonida balandlikni sozlash o'chirgichini torting, o'rindiqning talab etiluvchi balandligi o'rnatilgandan keyin o'chirgichni qo'yib yuboring.

Elektr yuritmalı oldingi yo'lovchi o'rindig'ining holati oldinga yoki orqaga sozlanmaydi.

#### Markaziy o'rindiq

#### O'rta o'rindiqlar (faqat 7-o'rinli modelda)

#### O'rta qator o'ng o'rindiqni oldinga taxlash



7-o'rinli modellarda, orqa o'rindiqlarda o'tirgan yo'lovchilar, avtomobilga o'ng orqa eshik orqali o'tiradi. Orqa o'rindiqlarga o'tishni bo'shatish uchun, avval o'rta qator o'ng o'rindiqni oldinga taxlang.

O'rta qator o'ng o'rindiqni oldinga taxlash uchun:

O'rindiq bosh tagligi yonida joylashgan qaydlagich tutqichini tepaga torting, o'rindiqni taxlang va oldinga surib qo'ying. O'rindiqni dastlabki holatga qaytarish uchun, o'rindiq suyanchig'ini orqaga itaring. O'rindiq qaydlanganligini tekshirish uchun, uni joyidan siljitishga urinib ko'ring.

O'rta qator chap o'rindiq oldinga taxlanmaydi. Shuning uchun, orqa qator o'rindig'iga o'tirish chap orqa eshik orqali emas, balki o'ng orqa eshik orqali amalga oshiriladi.


#### O'rindiq holatini sozlash



O'rindiq holatini oldinga yoki orqaga sozlash uchun, o'rindiqning oldingi pastki qismida o'rnatilgan sozlash pishangisini tepaga torting.

O'rindiqni talab etilayotgan holatga o'rnatgandan keyin pishangni qo'yib yuboring. O'rindiq qaydlanganligini tekshirish uchun, uni joyidan siljitishga urinib ko'ring.

#### O'rindiq suyanchig'ini holatini sozlash va uni taxlash




O'rindiq suyanchig'ining engashish burchagi sozlanadi. Avvalam bor, o'rindiq suyanchig'ini tutib turing, chunki engashtirish kamarini tortib chiqargandan keyin suyanchiq tez taxlanadi va urib yuborishi yoki jarohat yetkazishi mumkin. So'ngra o'rindiq yon tomonida joylashgan suyanchiqni engashtirish arqonini orqaga, toki suyanchiqning engashtirishning talab etilayotgan burchagi erishilmaguncha, torting. O'rindiq suyanchig'ini taxlash uchun, arqonni tepaga torting va suyanchiqni oldinga taxlang.


Avval o'rindiq yostig'ini oldinga ag'daring, so'ngra esa suyanchiqni gorizontal holatga taxlang.

Suyanchiqni vertikal holatga o'rnatish uchun, arqonni tepaga torting va engashtirishning talab etilayotgan burchagigacha suyanchiqni tashlang. Va nihoyat, suyanchiqni qaydlanishini tekshirish uchun uni oldinga-orqaga siljitib ko'rishga urinib ko'ring. O'rindiq suyanchig'ini holatini sozlanishini bajarib, suyanchiqni ushlab turing va arqonni tortib chiqarishdan avval taxlanish zonasidan boshni va tananing boshqa qismlarini oling. Ushbu talabga rioya etmaslik jarohat olishga olib kelishi mumkin.

#### O'rindiq yostig'ini ag'darish



O'rindiqlarning yostiqlarini oldingi pastki qismida yostiqni blokdan chiqarishning ikki arqoni joylashtirilgan. O'rindiq yostig'ini muvofiq arqonni tortib, blokdan chiqarish mumkin.



Blokdan chiqargandan keyin yostiqni oldinga torting, uning orqa qismini ko'taring va yostiqni ag'daring. Ikkala yostiqni ag'darish mumkin. Yostiqni dastlabki holatga o'rnatish uchun, harakatlarni teskari tartibda bajaring va yostiqni kuch bilan pastga bosing. Qaydlanishni tekshirish uchun o'rindiq yostig'ini siljitishga urinib ko'ring.

### O'rindiq suyanchig'ini qiyaligi

#### Qo'lda sozlash



O'rindiq yostig'i yonida joylashgan dastani tepaga torting; o'rindiq suyanchig'i qiyaligining talab etiluvchi burchagini o'rning. Sozlash vaqtida o'rindiq suyanchig'iga tirlamang. O'rindiq suyanchig'ini holatini sozlab bo'lgandan keyin uning qaydlanishini tekshirish uchun siljitishga urinib ko'ring.

### Elektr yuritma yordamida sozlash



Sozlash o'chirgichini oldinga va orqaga burang. Suyanchiq oldinga taxlanadi yoki orqaga yoyiladi.

Suyanchiqni talab etilayotgan holatga o'rnatgandan keyin o'chirgichni qo'yib yuboring. Agar suyanchiq o'chirgich buralishida joyidan siljimayotgan bo'lsa, ehtimol, u eng chetki holatga joylashtirib bo'lingan, yoki avtomobilning akkumulator batareyasi quvvatsizlangan bo'lishi mumkin.


Jarohat olishdan saqlanish maqsadida o'chirgichni burishda haddan tashqari kuch ishlatmang.

**ORQA O'RINDIQLAR****⚠ OGOHLANTIRISH!**



O'rindiqning qaydlanmagan suyanchig'i to'qnashuv yoki keskin to'xtashda oldinga siljib ketishi mumkin, bu oldinda o'tirgan odamga jarohat yetkazishi mumkin. Suyanchiqni oldinga-orqaga harakatlantirib, uning qaydlanganligini albatta tekshiring.

**Orqa o'rindiqlar (5-o'rinli model)**

7-o'rinli modelning o'rta o'rindig'i uchun sozlash usulini ko'ring. Farq shundaki, orqa o'rindiqni oldinga yoki orqaga sozlash imkoni yo'q.

**Orqa o'rindiq (7-o'rinli model)****O'rindiqning taxlanuvchi suyanchig'i**

Orqa o'rindiqning suyanchig'i taxlanadi. Suyanchiqni blokdan chiqarish uchun uning orqasidagi arqonni torting va so'ngra suyanchiqni oldinga taxlang. O'rindiq suyanchig'ini dastlabki holatga o'rnatish uchun, arqondan torting va suyanchiqni orqaga tashlang. O'rindiq suyanchig'ini qaydlanganligini tekshirish uchun uni siljitib ko'rishga urinib ko'ring.

**O'rindiqlarni joylashish sxemasi****5-o'rinli model****7-o'rinli model**


### Orqa o'rindiq tirsaklagichi




Ikkinchi qator o'rindig'i tirsaklagichga ega. Tirsaklagichdan foydalanish uchun uni pastga yoying. Tirsaklagichda stakandon bor. Foydalanib bo'lgandan keyin tirsaklagichni dastlabki holatga qaytaring. O'rindiq suyanchig'i muayyan burchakda orqaga qiyalashtirilgan. Ushbu burchak 1-, 2- va 3-qator uchun muvofiq tarzda 23°, 25° va 20°ni tashkil qiladi.

### O'rindiqlarni joylashish sxemasi

#### 5-o'rinli model



#### 7-o'rinli model



### XAVFSIZLIK KAMARLARI



Xavfsizlik kamari faqat yakka tartibda qo'llash uchun mo'ljallangan.

12 yoshgacha yoki 150 sm.dan past bo'ygacha ega bo'lgan yo'lovchilarga xavfsizlik kamarlarini qo'llash qoidalariga solinuvchi cheklavlar sababli yo'lovchining oldingi o'rindig'ida o'tirish taqiqlanadi. Xavfsizlik kamarlari tizimining barcha detallarini shikastlanishlar va me'yorda faoliyat yuritishiga muntazam tekshirib boring. Aniqlangan shikastlanishlarga ega bo'lgan har qanday detallarni va komponentlarni zudlik bilan almashtiring. Shikastlangan xavfsizlik kamarini yoki xavfsizlik kamarini ishlagan taranglashtirgichini almashtirish uchun dilerga murojaat qilish qat'iy tavsiya etiladi.



### Xavfsizlik kamarini yuklamasi chegaralagichi

Haydovchi va oldingi yo'lovchi o'rindiqlarida xavfsizlik kamarlari uchun sozlanadi. Yuklama chegaralagichi avariya holatida asta-sekin bo'shashtirish hisobiga kamarning tanaga bosimini pasaytirishi mumkin.

### Xavfsizlik kamarining oldindan taranglashtirgichi

Haydovchi o'rindig'ida va oldingi yo'lovchi o'rindig'ida xavfsizlik kamari uchun sozlanadi. Jiddiy old tomondan to'qnashuv yoki orqadan zarba berilishi holatida xavfsizlik kamarining old qismini taranglashtirilishi sodir bo'ladi. Xavfsizlik kamarining ishlagan oldindan taranglashtirgichini diler almashtirishi kerak. Xavfsizlik kamarining oldindan taranglashtirgichi faqat bir marta ishlashi mumkin.

Xavfsizlik kamari shikastlanmagan yoki o'tkir buyum bilan siqib qo'yilmaganligiga ishonch hosil qiling. Xavfsizlik kamarining o'rash mexanizmgiga changning tushib qolishiga yo'l qo'yilmang.

#### ⚠ OGOHLANTIRISH!

Noto'g'ri bajarilgan ish (masalan, xavfsizlik kamarining yoki xavfsizlik kamarining ankerlarini yechib olish yoki o'rnatish) xavfsizlik kamarining taranglashtirgichini ishlab ketishini va jarohat yetkazilishini chaqirishi mumkin.

#### ⚠ OGOHLANTIRISH!

Avtomobilning harakatlanishidan avval xavfsizlik kamarini albatta taqib oling. Avariya holatida xavfsizlik kamari bilan taqilmagan yo'lovchi xavf-xatar ostida bo'ladi.


Xavfsizlik kamarining ishlashiga to'sqinlik qiluvchi biron bir qo'shimcha asbob-uskunalarni yoki boshqa buyumlarni o'rnatish taqiqlanadi. Xavfsizlik kamarining biron bir komponentlarini o'zgartirish taqiqlanadi.

#### ⚠ OGOHLANTIRISH!


Taqilgan xavfsizlik kamari sizning cho'ntagingizda bo'lgan qattiq yoki mo'rt buyum ustiga tushmasligi kerak. Aks holda, favqulodda holatda qattiq buyum jarohat yetkazishi, mo'rt buyum esa shikastlangan bo'lishi mumkin.

Ishdan chiqishdan saqlanish maqsadida xavfsizlik kamarining qulfiga mayda buyumlarni tushib qolishiga yo'l qo'yilmang.


### Bel-yelka xavfsizlik kamari




1. O'rovchi mexanizmdan xavfsizlik kamarini tortib chiqaring va uni, buramasdan, tanaga mahkamlang.



**Balandlikni sozlash**



**Kamarni yechish**



2. Kamarni mahkamlash uchun, qulfga lo'kidonning tilchasini o'rning. Bel kamarini tarangligini sozlash uchun, yelka kamarini torting.

Erkin yoki hajmkor kiyimlarni kiyimg. Bu xavfsizlik kamarining to'g'ri faoliyat yuritishini qiyinlashtirishi mumkin.

Xavfsizlik kamari va tana orasiga biron bir buyumlarni (masalan, ayollar sumkachasi yoki mobil telefonni) joylashtirmang.


Ba'zi modellarda oldingi qator o'rindiqlarining xavfsizlik kamarini balandlik bo'yicha sozlash mumkin. Xavfsizlik kamarining balandlik sozlagichiga bosing va kamarni tepaga yoki pastga siljiting.

Sozlashdan keyin sozlagichni qo'yib yuboring.

Xavfsizlik kamarini yechib olish uchun, qulfdagi qizil tugmaga bosing.

#### **O'rta/orqa qator o'rindiqlarning xavfsizlik kamari**


**Chap va o'ng o'rindiqlarning xavfsizlik kamari**  
O'rta qator chap va o'ng o'rindiqlarning xavfsizlik kamarlarini taqish va yechish uchun oldingi o'rindiqlarning xavfsizlik kamarlari uchun yo'riqnomaga murojaat qiling.




Ikkinchi qator o'rindig'ining suyanchig'i bilan yonma-yon pardoz panelida ushlagich mavjud. Har safar qo'llagandan keyin xavfsizlik kamarini ushlagichga osing.

#### **Ikkinchi qator o'rta o'rindiq**

1. Xavfsizlik kamarini taqib olish uchun, avval uni shiftdagi (5-o'rinli modellarda) yoki suyanchidagi (7-o'rinli modellarda) o'rovchi mexanizmdan sug'urib oling va tegishli tarzda mahkamlang.



2. Xavfsizlik kamarining uchidagi lo'kidon tilchasini o'rindiqlarning chap tomonidagi katta bo'lmagan qulfga o'rning.




3. Lo'kidonning boshqa tilchasini (harakatlantiriluvchi) o'rindiqlarning o'ng tomonidagi qulfga o'rning.



4. Xavfsizlik kamari tanada buralmasdan mahkamlanganligini tekshiring.

### SHISHIRILUVCHI XAVFSIZLIK YOSTIQLAR TIZIMI

#### Homiladorlik vaqtida xavfsizlik kamarining qo'llanilishi



Xavfsizlik kamarlari barcha, jumladan homiladorlar uchun ham mo'ljallangan. Avtomobilda barcha harakatlanib ketayotganlar kabi, agar xavfsizlik kamarlarini taqib olmasalar, ular ham jiddiy jarohatlar olishlari mumkin.

Homilador ayol ham bel-yelka xavfsizlik kamaridan foydalanishi kerak, bunda kamarining bel qismi qorindan iloji boricha pastroqda joylashishi kerak. Bolani himoyalashning eng yaxshi usuli - bu onaning xavfsizligini ta'minlashdir. Agar xavfsizlik kamari to'g'ri qo'llanilayotgan bo'lsa, homila, ehtimol, avtomobilning to'qnashuvida jarohatlanmaydi. Boshqalar uchun qanday bo'lsa, homilador ayollar uchun ham xavfsizlik kamarlarining samaradorligi ularning to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi.

Bel kamari iloji boricha pastroqda joylashishi va qoringa bosimdan saqlanish maqsadida tos sohasi orqali o'tishi kerak.

Avtomobilning konfiguratsiyasiga bog'liq holda tizim o'z ichiga quyidagi xavfsizlik yostiqlarini kiritadi:

- Haydovchining frontal xavfsizlik yostig'i
- Oldingi yo'lovchining frontal xavfsizlik yostig'i (muvofiq jamlanmada)
- Oldingi yon tomon xavfsizlik yostig'i (muvofiq jamlanmada)

Barcha xavfsizlik yostiqlari uchun "AIRBAG" ("XAVFSIZLIK YOSTIG'I") markirovkasi pardo panelida yoki xavfsizlik yostig'i ishlovchi o'yiq bilan yonma-yon yopishtirma yorliqda mavjuddir.

Haydovchining frontal xavfsizlik yostig'i uchun "AIRBAG" rul chambaragining markazida joylashgan, oldingi yo'lovchining frontal xavfsizlik yostig'i uchun esa - uskunalar paneliga o'rnatilgan.

Yon tomondan zarbalardan himoyalovchi xavfsizlik yostiqlari uchun, "AIRBAG" so'zi eshik bilan yonma-yon suyanchiq tomonida mavjuddir.

Xavfsizlik yostig'i xavfsizlik kamari bilan ta'minlanuvchi himoyani to'ldirishi mumkin. garchi xavfsizlik yostiqlarining konstruksiyasi xavfsizlik yostiqlari ochilishida zarba ta'siri bilan chaqirilgan jarohat olish xavfini pasaytirsada, samarali himoyalash uchun ular juda tez ishlashi kerak. Xavfsizlik yostiqlari tizimi haqidagi muhim mulohazalar quyida keltirilgan:

**⚠ XAVF-XATAR!**

Xavfsizlik kamari bilan tang'ib qo'yilmagan odam to'qnashuv vaqtida, hattoki agar avtomobil xavfsizlik yostiqlariga ega bo'lsada, og'ir yoki hatto halokatli jarohatlarni olishi mumkin. Xavfsizlik yostiqlari xavfsizlik kamarlarini o'rnini bosmaydi, balki ular bilan birgalikda ta'sir o'tkazadi. Xavfsizlik yostiqlari har qanday to'qnashuvlarda ishlash uchun mo'ljallanmagan. Ba'zi avariya holatlarida himoyani faqat xavfsizlik kamarlari ta'minlaydi.

Xavfsizlik kamarlari avtomobil ichidagi buyumlarga urilib ketish yoki avariya uning ichidan otib yuborilish xavfini pasaytiradi. Xavfsizlik yostiqlari xavfsizlik kamarlariga "tutib qolishning qo'shimcha tizimi" hisoblanadi.

Avtomobilida o'tirganlarning barchasi, muvofiq joy xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlanganligiga yoki jihozlanmaganligiga bog'liq bo'lmagan holda xavfsizlik kamarlari bilan ishonchli tang'ib qo'yilgan bo'lishi kerak.

**⚠ XAVF-XATAR!**

Xavfsizlik yostig'i bilan jihozlangan oldingi o'rindiqqa bolalarni, go'daklarni, homilador ayollarni, quvvatsiz va kasal odamlarni joylashtirish taqiqlanadi. Oldingi o'rindiqqa harakatlanish yo'nalishiga qarama-qarshi yuz tuban bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish taqiqlanadi.


Xavfsizlik yostig'ining yoyilishi bolaning jarohatlanishiga yoki halok bo'lishiga olib kelishi mumkin. Xavfsizlik kamari va xavfsizlik yostig'i bolalarni va go'daklarni himoyalashi mumkin. Tegishli himoyalash uchun bolalarga va go'daklarga maxsus bolalar himoya qurilmasi, masalan, bolalar kreslosi talab etiladi.



Uskunalar panelida xavfsizlik yostig'i ko'rinishida xavfsizlik yostig'i indikatori mavjuddir. Tizim xavfsizlik yostiqlari tizimi zanjirini nosozlik predmetiga tekshiradi, va muammo mavjudligida indikator yonadi. "Shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlarining tayyorligi" 4-12"ni ko'ring.

**Xavfsizlik yostiqlari qayerga joylashtirilgan?**


**Frontal xavfsizlik yostig'i**



A-rasmda ko'rsatilgani kabi, haydovchining frontal xavfsizlik yostig'i rul chambaragining o'rtasida joylashgan.


B-rasmda ko'rsatilgani kabi, oldingi yo'lovchining frontal xavfsizlik yostig'i yo'lovchi tomonidagi uskunalar panelida joylashgan.

Yon tomon xavfsizlik yostig'i



C-rasmda ko'rsatilgani kabi, oldingi o'rindiqning yon tomon xavfsizlik yostig'i eshik yonidagi o'rindiq suyanchig'ining yon tomoniga o'rnatilgan.

Yon tomon xavfsizlik pardachasi



Yon tomon xavfsizlik pardachasining holati yuqorida D rasmda ko'rsatilgan.

**▲ XAVF-XATAR!**

Xavfsizlik yostig'i va o'rindiqda o'tirganning orasida biron bir buyumning mavjudligida xavfsizlik yostig'i me'yordagidek ochilmasligi, yoki uning ochilishi o'tirganning tanasiga ushbu buyumning siqilishini chaqirishi va jiddiy yoki hattoki halokatli jarohatlarga olib kelishi mumkin. O'rindiqlar uchun moslamalarni (masalan, g'iloflarni) qo'llamang, ular yon tomon zarbasidan himoyalash uchun xavfsizlik yostiqlarining ishlashiga xalal berishi mumkin.

**Xavfsizlik yostig'i qachon shishiriladi?**

Frontal xavfsizlik yostig'i yuqori va o'rtacha darajadagi og'irlikdagi oldindan to'qnashuv yoki oldindan to'qnashuvga yaqin to'qnashuvlarda ishlash uchun mo'ljallangan, bu haydovchining va oldindagi yo'lovchining bosh va ko'krak qafasining og'ir jarohat olish ehtimolini pasaytiradi. Frontal xavfsizlik yostig'ining ishlashi ko'pchilik holatlarda avtomobilning harakatlanish tezligiga bog'liq bo'lmaydi. U to'qnashuv obyekti, zarba yo'nalishi va to'qnashuv paytida avtomobilning sekinlashish tezligiga bog'liq bo'ladi. Frontal xavfsizlik yostig'i to'qnashuvning turlicha tezliklarida ishlashi mumkin. Xavfsizlik yostig'ining ishlashi to'qnashuv paytida zarba yo'nalishiga (to'g'ridan yoki muayyan burchak ostida), to'qnashuv obyekti harakatsiz yoki harakatlanayotganligi, deformatsiyaga moyil yoki moyil emasligiga, obyekt ingichka yoki torligiga bog'liq bo'ladi. Har bir avtomobilning turlicha konstruksiyasi sababli, to'qnashuv paytida frontal xavfsizlik yostig'ining ishlash sharti farqlanishi mumkin.

Frontal xavfsizlik yostig'ining ishlashi ag'darilib ketishda, orqadan zarba berish holatida, hamda yon tomondan zarba berishning ko'pchilik holatlarida sodir bo'lmaydi. Frontal xavfsizlik yostig'i ahamiyatsiz oldindan va oldindan to'qnashuvlarga yaqin to'qnashuvlarda, yon tomon yoki diagonal to'qnashuvlarda, silindrik obyektlarga urilishda (masalan, telegraf ustuni yoki daraxt tanasi),

katta avtomobillarga (yuk mashinalariga va boshqalarga) yoki qalqon ostiga orqadan urilishda, hamda yon tomon sirpanuvchi to'qnashuvlarda ishlamasligi mumkin. Mo'ljallanishga muvofiq yon tomon zarbadan himoyalash uchun o'rindiqlarning xavfsizlik yostig'i yuqori va o'rta daraja og'irlikdagi yon tomondan to'qnashuvda zarbning holatiga binoan ishlaydi.

Yon tomon zarbadan himoyalash uchun o'rindiqlarning xavfsizlik yostig'i oldindan to'qnashuv yoki oldindan to'qnashuvga yaqin to'qnashuvlar, avtomobil ag'darilib ketishi yoki orqadan urilish holatida ishlamasligi mumkin. Yon tomon zarbadan himoyalash uchun o'rindiqlarning xavfsizlik yostig'i ahamiyatsiz yon tomon to'qnashuvlarida, hamda frontal-yon tomon yoki diagonal to'qnashuvlarda ishlamasligi mumkin.

Yon tomon zarbadan himoyalash uchun o'rindiqlarning xavfsizlik yostig'ining mo'ljallanishiga muvofiq zarba sodir etilgan avtomobilning o'sha tomonida ochiladi.

Xavfsizlik yostig'i to'qnashuvlarning barcha holatlarda ham ishlamaydi. Har bir muayyan avariya holatida avariya sabablari, avtomobilning shikastlanish hajmi yoki ta'mirlashga xarajatlar asosida xavfsizlik yostig'ining ishlashi zaruratini oddiy baholash imkoni yo'q.

Avtomobil to'qnashuvni diagnostika qilish va aniqlash moduli bilan jihozlangan. Agar to'qnashuv ahamiyatli shikastlanishlarga olib kelgan bo'lsa, modul to'qnashuvdan keyin u bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni qayd qilishi mumkin. Agar to'qnashuvdan keyin xavfsizlik yostig'ining ishlashida biron bir gumonlar yuzaga kelganida, malakali tahlil va diagnostikani o'tkazish uchun dilerga zudlik bilan murojaat qiling.

#### **Xavfsizlik yostiqlarini ishirish mexanizmi qanday?**

Yoyish jarayoni quyidagilardan iborat: datchiklar tizimi gaz generatorini faollashtirish uchun elektron signal yuboradi; generatoridan chiqayotgan gaz xavfsizlik yostig'ini ishiradi, bu yopilgan panelni itarib chiqarishga va yoyilishga undaydi. Gaz generatori, xavfsizlik yostig'i va ular bilan bog'liq elementlar xavfsizlik yostig'i modulining komponentlari hisoblanadi.

#### **Xavfsizlik yostig'i odamni qay tarzda tutib turadi?**

Xavfsizlik yostig'i, o'rindiqlarda o'tirgan yo'lovchini tanasiga zarba kuchini ancha bir tekis taqsimlash hisobiga, xavfsizlik kamari ta'minlovchi himoyani to'ldiradi. Biroq, to'qnashuvning ba'zi holatlarida, masalan, avtomobil ichiga tashqi buyum kirib borgan

vaqtda, o'rindiqlarda o'tirgan yo'lovchi xavfsizlik yostig'i tomonga harakatlanmaydi. Xavfsizlik yostig'i tegishli tarzda himoyani ta'minlab barmaydi. Xavfsizlik yostig'ini faqat xavfsizlik kamarini to'ldiruvchi qurilma sifatida ko'rish kerak.

#### **Xavfsizlik kamarlari ishlagandan keyin nima sodir bo'ladi?**

Xavfsizlik yostig'i ochilganidan keyin yostiqdan havo chiqarish jarayoni juda tez sodir bo'ladi. Yostiqdagi havo bosimining pasaytirilishi juda tez sodir bo'lganligi sababli, xavfsizlik yostig'i ishlaganligi haqida shubhalar yuzaga kelishi mumkin. Xavfsizlik yostig'ining havo chiqarish tirqishidan havo chiqarilishida bir oz miqdorda tutun va chang chiqishi mumkin.

 **XAVF-XATAR!**

Xavfsizlik yostig'ini shishirilishida havoda chang paydo bo'lishi mumkin. Chang astma yoki nafas yo'llarining boshqa kasalliklaridan a'ziyat chekayotgan odamlar uchun xavflidir. Shuning uchun, hamma avtomobilni xavfsiz tark etish mumkin bo'lishi bilanoq, uni tark etishlari kerak. Agar xavfsizlik yostig'i yoyilishidan keyin avtomobildan chiqish imkoni yo'q bo'lsa, nafas yo'llari kasalliklaridan a'ziyat chekuvchi odamga oynani ochgan holda havo keltirilishini ta'minlash kerak. Agar xavfsizlik yostig'ining yoyilishi oqibatida nafas olish bilan muammolar yuzaga kelgan bo'lsa, tibbiy yordamga murojaat qilish zarur bo'ladi.

Agar to'qnashuvdan keyin avtomobilning elektr oziqlantirish tizimi avvalgidek me'yorda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, u holda avtomobilda xavfsizlik yostig'i yoyilishidan keyin barcha eshiklar qulfdan yechilgan, avariya signalizatsiyasining lampalari yoqilgan va yonilg'i tizimi o'chirilgan bo'ladi. Haydovchi, ehtimol, eshiklarni qulflash uchun funksional o'zgartirgichni, salonnii yoritilishini o'chirish va avariya signalizatsiyasi lampalarini o'chirishni boshqarishi mumkin.

Oldingi yo'lovchining xavfsizlik yostig'i ishlashi, shuningdek, old oynaning shikastlanishini chaqirishi mumkin.

- Xavfsizlik yostiqlari konstruksiyasi ularga faqat bir marta ishlash imkonini beradi. To'qnashuv va xavfsizlik yostig'ining ishlashidan keyin xavfsizlik yostiqlari tizimining ba'zi detallari almashtirilishi kerak. Agar ushbu detallar almashtirilmasa, xavfsizlik yostiqlari tizimi to'qnashuv/avariyaning boshqa holatida himoyani ta'minlab bermaydi. Xavfsizlik yostiqlari tizimining quyidagi detallarini almashtirish kerak: xavfsizlik yostig'i moduli, xavfsizlik yostig'ini boshqarish moduli, xavfsizlik kamarini oldindan taranglashtirgichi va boshqa detallar.

**Xavfsizlik yostiqlari tizimi detallarini ta'mirlash, ularga texnik xizmat ko'rsatish va almashtirish**

Xavfsizlik yostiqlari tizimiga tayyorlangan malakali texnik mutaxassislar xizmat ko'rsatishi kerak. Tegishli tarzda o'tkazilgan xizmat ko'rsatish xavfsizlik yostig'i tizimining noto'g'ri faoliyat yuritishiga olib keladi. Xavfsizlik yostiqlari tizimini ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish uchun yaqinda joylashgan dilerga murojaat qiling.

 **DIQQAT!**


Agar xavfsizlik yostig'ining yopuvchi qopqog'i shikastlangan, ochilgan yoki singan bo'lsa, xavfsizlik yostig'i me'yorda faoliyat yuritmasligi mumkin. Panelni zudlik bilan ta'mirlash kerak.

Xavfsizlik yostiqlari tizimining biron bir komponentlarini ta'mirlashga, sozlashga, qismlarga bo'lishga yoki ularni o'rnatishga hech qanday holatda urinmang. Avtomobilning kuzovini old bamperini o'rniga mustaqil tiklash taqiqlanadi. Xavfsizlik yostig'ining yopuvchi panelini yuzasi ustiga biron narsalar yopishtirish yoki ularni o'rnatish, hamda xavfsizlik yostig'i panelini joyiga tiklash taqiqlanadi.


**Xavfsizlik yostig'i ishlashi (yoyilishi) sodir bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar, to'qnashuvdan tashqari**

Xavfsizlik yostig'i avtomobil tubiga ahamiyatli zarba berilishida ishlab ketishi mumkin. Quyidagi misollarni ko'ring.






- Bordyurga, trotuar chetiga yoki qattiq qoplamaga zarba




- G'ildirakning chuqur chuqurlikka tushishi




- Qattiq qo'nish yoki ag'darilish

### Frontal xavfsizlik yostig'i quyidagi avariya holatlarda yoyilmasligi mumkin.


Frontal xavfsizlik yostig'i yon tomondan to'qnashuvlarda, orqadan urilishda, avtomobil ag'darilib ketishida yoki kichik tezlikda old bilan to'qnashuvlarda odatda yoyilmaydi. To'qnashuv turiga bog'liq bo'lmagan holda, frontal xavfsizlik yostig'i faqat, agar avtomobil oldinga yo'naltirilgan yetarlicha sekinlashishni shakllantirgan holatdagina ishlaydi.



- Avtomobilning bo'ylama yo'nalishiga nisbatan  $30^\circ$  dan ortiq zarb burchagi bilan oldindan to'qnashuv (A sektor va S sektor)



- Yon tomondan to'qnashuv



- Orqadan urilish



- Ag'darilish, tepadan tushib ketish, dumalash




Qum uyumi, to'suvchi brus, kolonna yoki daraxt kabi deformatsiyalanuvchi obyektlarga zarba berish




- Oldinda bo'lgan avtomobilning, ayniqsa yuk tashuvchi mashinaning tubiga zarba berish

**Yon tomon xavfsizlik yostig'i quyidagi avariya holatlarda yoyilmasligi mumkin.**


Yon tomon xavfsizlik yostiqlar tizimi muayyan burchak ostida yon tomondan to'qnashuvda yoki avtomobil kuzovining biqini bilan to'qnashuvda (salonni emas) yoqilmasligi mumkin.



- Avtomobil kuzovi biqiniga zarba (salonni emas)



- Vertikalga burchak ostida yon tomondan to'qnashuv Yon tomon xavfsizlik yostig'i odatda old tomondan to'qnashuvda, orqadan urilishda, ag'darilishda yoki kichik tezlikda yon tomondan to'qnashuvda yoyilmaydi.



- Oldindan to'qnashuv


## BOLALAR UCHUN XAVFSIZLIK TIZIMLARI

### Kichik bolalar va go'daklar


Ushbu avtomobil bolalar kreslosi bilan jihozlanmagan. Zarurat tug'ilganida "umumiy mo'ljallanishdagi" ISOFIX mahkamlash uchun mos keladigan bolalar kreslosini tanlash kerak. Bolalar kreslosini faqat ikkinchi qator o'rindiqlariga o'rnatish mumkin. Oldingi o'rindiq mahkamlashning anker tizimi skobasi bilan jihozlanmagan.

Avariyalar bo'yicha statistik ma'lumotlarga binoan, ikkinchi qator o'rindiqlariga bolalar kreslosini o'rnatish bolaning xavfsizligini ahamiyatli oshirishi mumkin.

Kichik bolalar uchun bolalar kreslosini albatta qo'llash kerak. Avtomobil harakatlanib ketayotgan vaqtda bolani qo'lingizda hech qachon ushlab turmang. Avtomobil harakatlanishi vaqtida o'rindiqda yoki yuk bo'linmasida bolaga oyog'ida yoki tizzasida turishiga yo'l qo'ymang.



- Orqadan urilish



- Yon tomonga surilib ketishda yuk mashinasi bilan yon tomondan to'qnashuv



- Ag'darilish, tepadan tushib ketish, dumalash



### ⚠ XAVF-XATAR!

Amaldagi frontal xavfsizlik yostig'iga ega bo'lgan oldingi o'rindiqqa harakat yo'nalishiga qarshi yuz tuban bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish taqiqlanadi. Yotiqning yayilishi bolaga jiddiy va hattoki halokatli jarohatlar yetkazishi mumkin.

### ⚠ DIQQAT!

To'qnashuvda yoki favqulodda to'xtashda mahkamlanmagan bolalar kreslosi avtomobildan otib yuborilishi mumkin. Bolalar kreslosi, hattoki undan foydalanilmayotgan bo'linsa ham, tegishli tarzda mahkamlangan bo'lishi kerak.

Issiq ob-havoda yopiq salonda qoldirilgan bolalar saloni qattiq qizib ketadi. Bolani bolalar kreslosiga o'tirg'izishdan avval, u issiq emasligini tekshiring. Agar bola kichik bo'lsa, va xavfsizlik kamari unga eng yaxshi himoyani ta'minlab berolmasa, bolaning xavfsizligi uchun tegishli tarzdgagi bolalar kreslosini albatta qo'llang.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Bolalar kreslolarining o'lchamlari va konfiguratsiyalari ahamiyatli farq qilishi mumkin.

Salon pardozlanishi, hamda o'rindiqlar shakli va o'lchami avtomobilda istalgan bolalar kreslolarini qo'llash imkonini bermaydi. Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma avtomobilda yomon mahkamlangan bo'lsa, bola og'ir yoki hattoki halokatli jarohatlar olishi mumkin. Bolalar kreslosini bolalarni tutib turuvchi qurilma bilan to'plamda taqdim etiluvchi yo'riqnomaga, hamda ushbu qo'llanmada keltirilgan ko'rsatmalarga rioya qilgan holda avtomobilda tegishli tarzda mahkamlang. Agar bolalar kreslosi avtomobil o'lchamiga va bolaning o'lchamlariga muvofiq kelmayotgan bo'lsa, yoki bolalar kreslosining avtomobilga mahkamlanishi noto'g'ri bajarilgan bo'lsa, avtomobildagi bola va boshqa yo'lovchilar to'qnashuv holatida jiddiy jarohatlar olishi mumkin.

**Bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni o'rnatish mumkin bo'lgan joylar**



ECE R44/04ga binoan bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni quyidagi 5ta guruhga bo'lish mumkin:

- 0-guruh: vazni 10 kg.dan past bo'lgan bolalar uchun.
- 0+-guruh: vazni 13 kg.dan past bo'lgan bolalar uchun.
- I-guruh: vazni 9 kg.dan ortiq, ammo 18 kg.dan kam bo'lmagan bolalar uchun.
- II-guruh: vazni 15 kg.dan ortiq, ammo 25 kg.dan kam bo'lmagan bolalar uchun.
- III-guruh: vazni 22 kg.dan ortiq, ammo 36 kg.dan kam bo'lmagan bolalar uchun.

Bolaning vazni va o'lchamiga binoan mos keluvchi bolalar kreslosini tanlang. Suyaklari juda kichkina va mo'rt bo'lgan va xavfsizlik kamarini qo'llash imkonini bermaydigan bir yoshgacha bo'lgan go'daklar uchun yo'nalishga qarama-qarshi yuz tuban o'rnatiluvchi bolalar kreslosini qo'llash kerak.

**Bolalar kreslosini tanlash bo'yicha tavsiyalar**

GM kompaniyasi ECE R44 xavfsizlik sertifikatiga ega bo'lgan bolalar kreslosini qo'llashni tavsiya qiladi. ECE R44 standarti bo'yicha sertifikatlangan kreslolar bolalar yoshidagi yo'lovchilar uchun eng yaxshi himoyani ta'minlaydi.

**1-bo'lim**



0+-guruh: 13 kg.gacha  
O'rnatish usuli:  
Kresloni 2-qator yon tomonga o'rnatish kerak.  
Avtomobil harakatlanishi yo'nalishiga qarama-

qarshi yo'nalishda yuz tuban o'rnatib.  
O'rindiqli ulash uchun ISOFIX ulash qurilmasini qo'llang va tiraluvchi oyoqning balandligini, uning avtomobil poliga ishonchli o'rnatilishini ta'minlash uchun shunday sozlang.

### 2-bo'lim



I-guruhi: 9 kg.dan 18 kg.gacha

O'rnatish usuli:

Faqat ISOFIX birlashtirish qurilmasi va bolalar kreslosi bilan to'plamda yetkazib beriluvchi tutib turuvchi kamarlar yordamida avtomobilning harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuz tuban o'rnatiladi.

### Universal bolalarni tutib turuvchi qurilmani turli holatlarda qo'llash ehtimoli

Quyidagi ma'lumot ECE R16 standarti bilan muvofiqlikda turlicha o'tirish joylarida bolalarni tutib turuvchi qurilmalarning qo'llanilish ehtimolini ko'rsatadi.

Vazn toifasi	O'tirish joyi			
	Oldingi yo'lovchi	2-qator, chetki o'rindiq	2-qator, o'rta o'rindiq	3-qator, chetki o'rindiq
0-guruh: < 10 kg	X	U	UF	U
0+-guruhi: < 13 kg	X	U	UF	U
I-guruh: 9 kg.dan 18 kg.gacha	UF	U	UF	UF
II-guruh: 15 kg.dan 25 kg.gacha	U	U	UF	U
III-guruh: 22 kg.dan 36 kg.gacha	U	U	UF	U

Yuqorida keltirilgan jadval uchun harfli belgilanishlar

U = Ushbu vazn toifasi uchun ma'qullangan "universal" tutib turuvchi qurilmalar uchun mos keladi.

UF = Ushbu vazn toifasi uchun ma'qullangan harakatlanish yo'nalishi bo'yicha o'rnatiluvchi "universal" tutib turuvchi qurilmalar uchun mos keladi.

L = Ilova qilinuvchi ro'yxatda ko'rsatilgan bolalar xavfsizligining muayyan tizimlari uchun mos keladi. Bunday tizimlar quyidagi toifalarga ega bo'lishi mumkin:

"ushbu avtomobil uchun maxsus",  
"cheklangan" yoki "yarim-universal".

V = Ushbu vazn toifasi uchun ruxsat etilgan o'rnatilgan tutib turuvchi qurilma.

X = kreslo holati ushbu vazn toifasi uchun mos kelmaydi.

### ISOFIX mahkamlagichli o'tirish joyiga ISOFIX mahkamlagichli bolalar kreslosini o'rnatish imkoniyati

ISOFIX o'rnatish tizimini bolalar kreslosi bilan muvofiqlikda qo'llang.

<b>ISOFIX tizimi bolalarni tutib turuvchi qurilmalarning o'lcham sinflari va mahkamlash usullari</b>	
A	ISO/F3: Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuz tuban o'rnatiluvchi kichik bolalar uchun to'liq o'lchamli bolalarni tutib turuvchi qurilma.
B	ISO/F2: Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuz tuban o'rnatiluvchi kichik bolalar uchun o'lchami kichraytirilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma.
B1	ISO/F2X: Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuz tuban o'rnatiluvchi kichik bolalar uchun o'lchami kichraytirilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma
C	ISO/R3: Harakatlanish yo'nalishiga qarama-qarshi yuz tuban o'rnatiluvchi kichik bolalar uchun to'liq o'lchamli bolalarni tutib turuvchi qurilma
D	ISO/R2: Harakatlanish yo'nalishiga qarama-qarshi yuz tuban o'rnatiluvchi kichik bolalar uchun o'lchami kichraytirilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma
E	ISO/R1: Harakatlanish yo'nalishiga qarama-qarshi yuz tuban o'rnatiluvchi go'daklar uchun bolalarni tutib turuvchi qurilma
F	ISO/L1: Chapga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma (tashiluvchi belanchak).
G	ISO/L2: O'nga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma (tashiluvchi belanchak).

## 2-24 O'RINDIQLAR VA HIMOYA TIZIMLARI

Vazn toifasi	O'lcham sinfi	Qurilma	Avtomobilida ISOFIX mahkamlagichining joylashishi			
			Oldingi yo'lovchi	2-qator, chetki o'rindiq	2-qator, o'rta o'rindiq	3-qator, chetki o'rindiq
Tashiluvchan belanchak	F	ISO/L1	X	X	X	X
	G	ISO/L2	X	X	X	X
0-guruh (10 kg.gacha)	E	ISO/R1	X	IL	X	X
0+-guruhi (13 kg.gacha)	E	ISO/R1	X	IL	X	X
	D	ISO/R2	X	IL	X	X
	C	ISO/R3	X	IL(*)	X	X
I-guruh (9-18 kg)	D	ISO/R2	X	IL	X	X
	C	ISO/R3	X	IL(*)	X	X
	B	ISO/F2	X	IUF-IL	X	X
	B1	ISO/F2X	X	IUF-IL	X	X
	A	ISO/F3	X	IUF-IL	X	X
II-III-guruh (15-36 kg)	-	-	X	IUF	X	X



Yuqorida keltirilgan jadval uchun harfli belgilanishlar


IUF = Ushbu vazn toifasi uchun ma'qullangan ISOFIX mahkamlash tizimli universal toifadagi bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni harakatlanish yo'nalishi bo'yicha o'rnatish uchun mos keladi.

IL = Faqat ilova qilinuvchi ro'yxatda ko'rsatilgan ISOFIX mahkamlagichli bolalarni tutib turuvchi qurilmalar (CRS) uchun mos keladi. Bu "ushbu avtomobil uchun maxsus", "cheklangan" yoki "yarim universal" toifaga ega bo'lgan, ISOFIX mahkamlagichli bolalarni tutib turuvchi qurilmalardir.

X = ISOFIX mahkamlagichlarning holati ushbu vazn toifasidagi va/yoki ushbu o'lcham sinfidagi ISOFIX bolalarni tutib turuvchi qurilmalar uchun mos kelmaydi.

IL (\*) = ISOFIX bolalarni tutib turuvchi qurilmani oldingi o'rindiqning holatini sozlash yo'li bilan o'rnatilgan bo'lishi mumkinligini anglatadi.

### ISOFIX mahkamlash tizimi bo'lgan bolalarni tutib turuvchi qurilmalar



Bolalar kreslosining mahkamlagichi:

1. ISOFIX mahkamlagichning pastki nuqtalari ikkinchi qator o'rindiqning yostig'ini suyanchig'i va orqa qismi orasidagi ulanishda joylashgan. Mahkamlanish nuqtalarining joylashish joyi suyanchiqning pastki hoshiyasida belgilar bilan belgilangan. Chap va o'ng o'rindiq muvofiq tarzda ISOFIX mahkamlash to'plami bilan jihozlangan.


2. O'rindiqdan barcha buyumlarni olib qo'ying.

Xavfsizlik kamarini va xavfsizlik kamarining qulfini chetga surib qo'ying.

Xavfsizlik kamari va xavfsizlik kamari qulfi bolalar kreslosi ostiga tushib qolmaganligini

tekshiring, aks holda ular bolalar kreslosining ishonchli mahkamlanishiga xalal beradi.

3. Bolalar kreslosini ikkinchi qator o'rindiq'iga o'rnatish.



4. Bolalar kreslosini mahkamlash skobasini (1) avtomobildagi mahkamlash moslamasiga (2) ulang. Bolalar kreslosi ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomalariga rioya qiling.



Jiddiy to'qnashuv holatida ISOFIX tizimi shikastlangan bo'lishi mumkin. Ta'mirlash va ba'zi detallarning almashtirilishi talab etilishi mumkin. Avariya dan keyin albatta ISOFIX tizimini tekshiring.

5. Bolalar kreslosining tepa kamarini avtomobilning mahkamlagichini muvofiq nuqtasiga ulang. Tepa kamarning taranglashtirilishini ketma-ketligi va usulini bolalar kreslosi ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomasida ko'ring. Rasmda ko'rsatilgani kabi, ISOFIX mahkamlagichining tepa nuqtasi orqa o'rindiq ortida shiftda joylashgan. Tashqi qopqoq tepa hoshiyadan ochiladi.

7-o'rinli modellarda bolalar kreslosini mahkamlashning tepa nuqtasi ikkinchi qator o'rindig'ining orqa tomonida joylashgan.

6. Bolalar kreslosining ishonchli qaydlanishini tekshirish uchun, uni barcha yo'nalishlarda harakatlantirib ko'ring.

7. Bolani bolalar kreslosiga o'tirg'izishdan avval, u issiq emasligini tekshiring.

# 3

## BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN JOYLAR


---

- BUYUM QUTILAR ..... 3-2
- BAGAJ/YUKNING JOYLASHTIRILISHI ..... 3-5
- BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN  
QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR .....3-6
- TOMDA O'RNATILGAN YUKXONA ..... 3-7
- AVTOMOBILNI YUKLASH HAQIDA  
MA'LUMOT ..... 3-7
- IZOHLAR .....3-8


### BUYUM QUTILARI

#### Uskunalar panelidagi quti

Uskunalar panelidan chapda saqlash uchun bo'linma



#### Uskunalar panelining markazidagi saqlash uchun bo'linma



Harakatlanish vaqtida qo'lqop qutisining eshikchasi keskin tormozlanish yoki avariya jarohat olish xavf-xataridan saqlanish maqsadida yopiq bo'lishi kerak.


#### Qo'lqop qutisi



Qo'lqop qutisini ochish uchun, tutqichdan tashqariga torting. Harakatlanish vaqtida qo'lqop qutisining eshigi keskin tormozlanish yoki avariya vaqtida jarohat olish xavfidan saqlanish maqsadida yopiq bo'lishi kerak.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Harakatlanish vaqtida qo'lqop qutisining eshikchasi keskin tormozlanish yoki avariya vaqtida jarohat olish xavfidan saqlanish maqsadida yopiq bo'lishi kerak.

**Stakan tutqichlar**


Stakandon oldingi o'rindiqlar orasida tonnel konsolida joylashgan. O'rindiqlarning orqa qatori tirsaklagichida ikkita stakandon mavjud.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**


Stakandonlarga avtomobil harakatlanayotgan vaqtda issiq suyuqligi bo'lgan ochiq finjonlarni qo'ymang. Issiq suyuqlik to'kilishida kuyish olish ehtimoli bor. Haydovchi tomonidan kuyish olinishida avtomobil ustidan nazoratni yo'qotish ehtimoli bor.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Keskin tormozlanish yoki to'qnashuvda jarohat olish ehtimolini pasaytirish uchun, avtomobil harakatlanib ketayotgan vaqtda stakandonda yopilgan yoki mahkamlangan butilkalar, stakanlar, bankalar va hokazolarni qoldirmang.

**Ko'zoynak bo'limi  
Agar jihozlangan bo'lsa**


Agar jihozlangan bo'lsa, yuqori konsolda quyoshdan saqlaydigan ko'zoynak uchun qopqoqli bo'linma mavjud. Tashqi qopqoqni bosib va konsol avtomatik ravishda ochiladi. Foydalanib bo'lgandan keyin yoping.

**Tirsaklagichda buyumlar bo'linmasi**

Tirsaklagichda saqlash uchun bo'linma oldingi o'rindiqlar orasida joylashgan. Uni ochish uchun, qopqoqni tepaga torting. Bo'linmadan foydalanib bo'lgandan keyin qopqoqni yopib qo'ying.

**Yukxonada buyumlarni saqlash uchun bo'linma**

**Kartalar uchun cho'ntak**




Kartalar uchun cho'ntak oldingi o'rindiqning suyanchig'ini orqa tomonida joylashgan.

**Saqlash uchun lotok va eshikdagi tirsaklagich**




Saqlash uchun lotok (1) va tirsaklagich (2) eshikning ichki paneliga joylashtirilgan.

**Saqlash uchun lotok va orqa yon tomon devoridagi tirsaklagich**




7 o'rinni modellarning yon tomon devorlarida o'ng va chap tomonlarida saqlash uchun lotok va tirsaklagich ko'zda tutilgan.

**BAGAJ/YUKLARNING JOYLASHTIRILISHI****Konsoldagi buyum qutisi**


Poldagi konsolda saqlash uchun bo'linma tirsaklagichdagi orqa bo'linmada joylashgan.

**Yuk bo'linmasi**

**Yuk uchun pardacha, agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa**




Pardacha yuk bo'linmasidagi buyumlarni ustini yopish uchun xizmat qiladi.

**Yuk uchun pardachani taxlash**

Yuk bo'linmasining ikki tarafidagi yo'naltirgichlardan yuk uchun pardachani tilchalarini chiqarib oling, va pardacha avtomatik tortiladi (1). Yuk uchun pardachani yoyish uchun, uni tortish mexanizmidan sug'urib oling va ikkita tilchani yuk bo'linmasini ikkala tomonidagi yo'naltirgichlarga o'rnatating (2).

### Yuk uchun pardachani yechib olish



Avtomobildan yuk uchun pardachani yechib olish uchun, o'rtaga qarab yo'nalishda yuk uchun pardachani tortuvchi mexanizmining ikkala uchlaridagi qopqoqchalarga bosing. Pardachani o'rnatish uchun, o'rtaga qarab ikkala tarafdin qopqoqlarga bosing va o'yiqlarning tortuvchi mexanizmini qayd qilib qo'yish uchun o'yiqlar bilan qopqoqlarni birlashtiring.


### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Yuk uchun pardacha ustiga og'ir yoki o'tkir buyumlarni qo'ymang. Yuk uchun pardacha yuklarning og'irligiga mo'ljallanmagan. Avariya holatida ular buyum bo'linmasini qopqog'ini ochib yuborib, uchib ketishi va jarohatlar yetkazishi mumkin.

Yechib olingan yuk uchun pardachani to'g'ri saqlang, aks holda u avariya holatida avtomobilda o'tirgan yo'lovchilarga jarohat yetkazishi mumkin.


### BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR

#### Yukxaltalar uchun ilgaklar



Har bir o'rindiqlarning tepa qismida suyanchiq va tirsaklagich o'rtasida ilgak mavjud. Unga xaridli yukxaltalarni va boshqa buyumlarni osish mumkin.



**TOMDA O'RNATILGAN YUKXONA****Kartalarni saqlash joyi**

Konsolda xotira kartasi uchun ulagich ko'zda tutilgan.

Tomdagi yukxona tashqi pardozlash elementi hisoblanadi. Avtomobil shikastlanishidan saqlanish uchun, yukxonani ortiqcha yuklamang.

**AVTOMOBILNI YUKLASH HAQIDA MA'LUMOT**

- Yuk bo'linmasidagi og'ir buyumlar o'rindiqlarning suyanchilariga yaqinroq joylashtirilishi zarur. O'rindiq suyanchig'i ishonchli qayd etilganligini tekshiring. Agar buyumlar bir nechta qavatda taxlanayotgan bo'lsa, eng og'ir yuklarni pastga joylashtiring.
  - Yuk bo'linmasida mavjud bo'lgan buyumlarni, ular joyidan siljimasligi uchun mahkamlab qo'yilishi zarur.
  - Yuklangan yukning balandligi o'rindiq suyanchig'ining balandligidan oshmasligi kerak.
  - Yuk uchun pardachaning va uskunalar paneli ustiga yuklarni qo'ymang. Xavfsizlik yostig'ini va uskunalar panelini boshqa qismlarini to'sib qo'ymang.
  - Tashilayotgan yuk tepkilarning, qo'l tormozining va uzatmalar o'zgartirgichining ishiga xalal bermasligi va haydovchining harakatini cheklamasligi kerak. Avtomobilda mahkamlab qotirilmagan buyumlarni tashimang.
  - Yuk bo'linmasining eshigi ochiq bo'lgan avtomobilni haydamang.
- Avtomobilda zanjigalkalar, maishiy gazli ballonlarni va boshqa yonuvchan yoki portlash xavf bo'lgan materiallarni tashish taqiqlanadi. Agar avtomobil uzoq vaqt mobaynida yuqori harorat ta'siri ostida bo'lganida, bunday buyumlar yong'inni keltirib chiqarishi yoki portlab ketishi mumkin.




# 4

## BOSHQARUV ASBOB-USKUNALARI VA ORGANLARI

---

- USKUNALAR PANELINING QISQACHA TAVSIFI ..... 4-2
- BOSHQARUV ORGANLARI ..... 4-3
- SIGNALIZATORLAR, O'LCHOV ASBOBLARI VA INDIKATORLAR .....4-6
- AXBOROT DISPLEYLARI ..... 4-19
- IZOHLAR ..... 4-24

### USKUNALAR PANELINING QISQACHA TAVSIFI




22. Yonilg'i quyish bo'yinchasining qopqog'ini bo'shatish pishangisi
23. Kapotni ochish pishangisi
24. Parkovkaga yordam berish tizimini o'chirish tugmasi
25. Avtomobil orqaga harakatlanganda panorama tizimini o'chirish yordamchi tugmasi
26. AC MAX ni o'chirish tugmasi
27. Faralarni sozlash tutqichi
28. Orqani ko'rish tashqi toshoyalarni taxlash o'zgartirgichi

1. Kruiuz-nazorat tizimini boshqarish tugmasi\*
2. Chiroqlar va burilish ko'rsatkichlarining o'zgartirgichlari
3. Haydovchining xavfsizlik yostig'i /tovushli signalni o'chirgichi
4. Qurilmalar majmuasi
5. Audiotizimni boshqarish tugmasi\*
6. Oynatozalagichlar / yuvgichlarning o'zgartirgichi
7. Avariya signalizatsiyasi o'zgartirgichi
8. Avtomobilning audiotizimi
9. Oldingi ventilyatsion panjara

10. Markaziy ventilyatsion panjara
11. ESC o'chirgichi
12. Yo'lovchining oldingi xavfsizlik yostig'i\*
13. Old oynaga havo keltirish
14. Yon tomon ventilyatsion panjarasi
15. Qo'lqop qutisi
16. Tashqi qurilmalarni oziqlantirish ulagichi
17. Uzatmalarni o'zgartirish pishangisi\*
18. Elektron qo'l tormozi\*
19. O't oldirishni o'zgartirgichi\*
20. Akselerator tepkisi
21. Tormoz tepkisi

## BOSHQARUV ORGANLARI

### Rul chamberagini sozlash




Rul chamberagini faqat avtomobil to'liq to'xtaganidan keyin sozlang. Rul chamberagini tepaga/pastga engashtirish mumkin.

1. Rul chamberagini sozlash pishangisiga o'zingizdan bosing.
  2. Rul chamberagini istalgan holatgacha sozlang va so'ngra rul chamberagini qayd qilib qo'yish uchun sozlash pishangisini o'zingizga tortib chiqaring.
  3. Rul chamberagi ishonchli qayd etilganligini tekshiring va so'ngra rul chamberagini qayd qilib qo'yish uchun sozlash pishangisini o'zingizga tortib chiqaring.
- Harakatlanish vaqtida rul chamberaging holatini nazorat qiling.  
Harakatlanish vaqtida rul chamberagini sozlashga urinmang.  
Harakatlanish vaqtida rul chamberagini sozlashga urinish avariya olib kelishi mumkin.

### Rul chamberagidagi boshqaruv organlar

#### Rul chamberagidagi ovozni boshqarish tugmalari



#### 1. Ovozni to'g'ridan-to'g'ri uzatilishi

Agar avtomobil Apple CarPlay/Android Auto qo'llab-quvvatlasa, uzoq vaqt bosib turish Apple CarPlayda Siri ekranini ochadi/yoki Android Autoni ulaydi.

#### 2. Ovoz balandligini sozlash

Ovoz balandligini sozlash uchun g'ildirakchani tepaga yoki pastga burang.

#### 3. Ovozni o'chirish yoki bekor qilish

Ovozni o'chirish yoki Bluetooth orqali telefon qo'ng'irog'ida bekor qilish uchun qo'llaniladi.

#### 4. Ovoz manbaini tanlash

Ushbu tugmani bosilishi ovoz manbalarini o'zgartiradi - radiopriyomnik/USB/ Bluetooth va hokazo.


#### 5. Kompozitsiyani tanlash/stansiyalarni o'zgartirish

Stansiyani yoki kompozitsiyani tanlash uchun, g'ildirakchani tepaga yoki pastga burang.

#### 6. Chaqiruvga javob berish


Bluetooth orqali ulangan telefon orqali chaqiruvga javob berish yoki Bluetooth interfeysiga o'tish uchun ushbu tugmaga bosing.

### Ovozli signal



Klakson bilan signalni uzatish uchun rul chamberagida ushbu o'zgartirgichga bosing.

### Old oyna oynatozalagichi/yuvgichi




O'toldirish yoqiligidagi oldingi oyna tozalagichni yoqish uchun, old oyna oynatozalagichi/yuvgichini boshqarish pishangisiga bosib, old oyna oynatozalagich ishlatilishning beshita rejimiga ega:

- **TUMAN (MIST):** Boshqarish pishangisiga bir marta bosib, va oynatozalagich bir marta oynani artib oladi.
- **O'CHIRILGAN (OFF):** Tizim o'chirilgan.
- **DAVRIY (INT):** Ushbu holatgacha boshqarish pishangisiga bosib, va oynatozalagich ishlatilishning davriy rejimiga o'tadi.

- **PAST (LO):** Ushbu holatgacha boshqarish pishangisiga bosib, va oynatozalagich past chastotali ishlatilishning doimiy rejimiga o'tadi.
- **YUQORI (HI):** Ushbu holatgacha boshqarish pishangisiga bosib, va oynatozalagich yuqori chastotali ishlatilishning doimiy rejimiga o'tadi.

Davriy rejimni (INT) sozlash mumkin. Ixtalagan chastotani tanlash uchun, boshqarish pishangisini o'rtasidagi halqani burang.



Oyna yuvgich bilan old oynani namlantirish uchun:

1. O'toldirishni yoqing.
2. Old oyna oynatozalagich/yuvgichining pishangisini rul chambaragi tomonga suring.



Pishangni bir sekund yoki undan ko'proq vaqtga ushlab turing. Yuvgich oynatozalagichning ishlatilishini uchta sikli davomida yoki pishangni qo'yib yuborilmagunicha old oynaga suyuqlikni uzatadi.

### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Sovuq ob-havoda oynatozalagichlar yopishib qolmasligi uchun, muzlab qolgan yuzaga iliq suv quyib va muzlik yana hosil bo'lmasligi uchun suvni darhol artib oling. Haydovchi uchun noaniq ko'rish maydoni avariyaga, odamlarning jarohatlanishiga va avtomobilni va boshqa mulkni shikastlanishiga olib kelishi mumkin.


### Orqa oyna tozalagichi/yuvgichi



Orqa oyna tozalagichni yoqish uchun, o't oldirish yoqilgida oyna tozalagichi/yuvgichini o'zgartirgichini  holatga burang. Orqa oyna tozalagichi/yuvgichi o'zgartirgichi tutqichini  holatga burang, va suv nasosi orqa oynaga suvni darhol uzatadi. Siz tutqichni qo'yib yuborgan vaqtingizda, nasos bilan suv uzatilishi to'xtaydi.


### Shtepsel ulagichlar

#### Tashqi qurilmalarni oziqlantirish ulagichi




Tashqi qurilmalarni oziqlantirish ulagichi konditsionerning boshqaruv paneli ostida joylashgan. Ushbu USB ulagichni mobil qurilmalarni quvvatlash va audiofayllarni uzatish uchun qo'llash mumkin. O't oldirish o'chirilgan vaqtda, ulagich ishlamaydi. USB interfeysi haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni avtomobilda o'rnatilgan audiotizim texnik ma'lumotlarida ko'ring.

### Jihozlar uchun USB oziqlantirishning orqa ulagichi



Konsolning orqa tomonida joylashgan ikkinchi qator o'rindiqlaridagi USB ulagichini (5 V/2 A) mobil telefonlarni quvvatlash uchun qo'llash mumkin. Ulagich o't oldirish o'chirilgan vaqtda amal qilmaydi. Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, USB manbaning yana bir ulagichi o'rindiqlarning uchinchi qatorini o'ng tirsaklagichida joylashgan


**Videoqaydlagich uchun USB oziqlantirish ulagichi**



Ushbu ulagich orqani ko'rish ichki toshoyningan pastida joylashgan va videoqaydlagichni oziqlantirish uchun qo'llanilishi mumkin.

**SIGNALIZATORLAR, O'LCHOV USKUNALARI VA INDIKATORLAR**

**Qurilmalar majmuasi (I turi)**




1. Avtomobilda avtomatik ushlab turish tizimi (AVH) nosozlik indikator (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)
2. Dvigatel moyining past bosim signalizatori
3. Avtomobilni avtomatik tutib turish tizimini (AVH) ishlash indikator (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)
4. Tormoz tizimi/qo'l tormozi indikator/Tormoz kuchlarini taqsimlashning elektron tizimi (EBD) signalizatori

5. Shinalarda bosimni nazorat qilish tizimi (TPMS) nosozligi indikator (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)
6. Dvigatel nosozligining nazorat lampasi
7. Burilish chap ko'rsatkichi/avariya signalizatsiyasi chirog'i indikator
8. Uzoqni yoritish chirog'i indikator
9. Yaqinni yorutuvchi chiroq indikator
10. Gabarit chiroqlar indikator
11. Oldingi tumanga qarshi faralar indikator (agar o'rnatilgan bo'lsa)



12. Orqa tumanga qarshi chiroqlarning indikator
13. Burilish o'ng ko'rsatkichi/avariya signalizatsiyasi chirog'i indikator
14. Haydovchining xavfsizlik kamari taqilmaganligi signalizatori
15. Old yo'lovchining xavfsizlik Kamari taqilmaganligi signalizatori, agar ko'zda tutilgan bo'lsa
16. Xavfsizlik yostig'i signalizatori
17. Zarrachalar filtri ko'rsatkichi (agar o'rnatilgan bo'lsa)
18. Elektr kuchaytirgichli rul boshqaruvi tizimi signalizatori
19. Spidometr
20. Dvigatelning sovituvchi suyuqligining harorati indikator
21. Kruiz-nazorat tizimining ishchi holati indikator, agar ko'zda tutilgan bo'lsa
22. Umumiy odometr
23. Elektron dinamik stabilashtirish tizimini (ESC) o'chirish indikator, agar ko'zda tutilgan bo'lsa
24. ABS signalizatori
25. Elektron dinamik stabilashtirish tizim (ESC) nosozligi signalizatori, agar ko'zda tutilgan bo'lsa
26. Dvigatel immobilayzeri indikator
27. uzatma ko'rsatkichi, agar ko'zda tutilgan bo'lsa
28. Bort kompyuteri ma'lumoti (opsiya)
29. Quvvatlash tizimi signalizatori
30. UO'Q nosozligi signalizatori, agar ko'zda tutilgan bo'lsa
31. Eko rejimi ko'rsatkichi, agar ko'zda tutilgan bo'lsa
32. Elektr mexanik to'xtab turish tormozi nosozligi signalizatori, agar ko'zda tutilgan bo'lsa
33. Elektr mexanik to'xtab turish tormozining ishchi holati indikator, agar ko'zda tutilgan bo'lsa
34. Joriy kilometr hisoblagichi
35. Yonilg'i sathi datchigi
36. Dvigatel taxometri

## Qurilmalar majmuasi (II turi)



1. Haydovchining xavfsizlik Kamari taqilmaganligi signalizatori
2. Old yo'lovchining xavfsizlik kamari taqilmaganligi signalizatori
3. Burilish chap ko'rsatkichi/avariya signalizatsiyasi chirog'i indikator
4. Faralarning uzoqni yoritish chirog'i indikator
5. Faralarning old yoritish chirog'i indikator
6. Gabarit chiroqlar indikator
7. Tumanga qarshi old chiroq ko'rsatkichi

8. Orqa yo'lovchining xavfsizlik kamarini bog'lashi haqida ogohlantiruvchi chiroq (agar mavjud bo'lsa)
9. Bluetooth telefon ma'lumotlarini ko'rsatish opsiyasi\*
10. Haydash kompyuteri haqida ma'lumot yorlig'i
11. Haydash kompyuterini sozlash
12. Orqa tumanga qarshi chiroqlarning indikator

13. Avtomobilni avtomatik tutib turish tizimining (AVH) ishlash indikator (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)

14. Burilish o'ng ko'rsatkichi/avariya signalizatsiyasi chirog'i indikator

15. Avtomobilni avtomatik tutib turish (AVH) nosozlik haqida ogohlantirish chirog'i, agar jihozlangan bo'lsa

16. Krui-z-nazorat tizimining ishchi holati indikator, agar ko'zda tutilgan bo'lsa

17. Adaptiv krui-z-nazorati tezligi

18. Elektr mexanik to'xtab turish tormozining ishchi holati indikator, agar ko'zda tutilgan bo'lsa

19. Elektr mexanik to'xtab turish tormozini nosozligi signalizatori, agar ko'zda tutilgan bo'lsa

20. Tormoz tizimi/qo'l tormozini indikator/Tormoz kuchlarini taqsimlashning elektron tizimining signalizatori

21. Elektron dinamik stabilashtirish tizimining (ESC) nosozligi signalizatori, agar ko'zda tutilgan bo'lsa

22. "Elektron dinamik stabilizatsiya tizimining (ESC) o'chirilgan" indikator

23. Shinalarda bosimni nazorat qilish tizimining (TPMS) nosozligi indikator (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)

24. ABS signalizatori

25. Dvigatelning sovituvchi suyuqligining harorati indikator

26. Juda yuqori suv harorati ko'rsatkichi

27. Spidometr

28. Umumiy odometr
29. Tanlangan uzatma indikator
30. Joriy kilometr hisoblagichi
31. Dvigatel taxometri
32. Juda past yonilg'i ko'rsatkichi
33. Zarrachalar filtri ko'rsatkichi
34. Yog ' bosimi pastligi haqida ogohlantirish
35. Yonilg'i sathi datchigi
36. Xavfsizlik yostig'i signalizatori
37. Quvvatlash tizimi signalizatori
38. Dvigatel immobilayzeri indikator
39. Elektr kuchaytirgichli rul boshqaruvi tizimi signalizatori
40. UO'Q nosozligi signalizatori, agar ko'zda tutilgan bo'lsa
41. Dvigatel nosozligining nazorat lampasi

**Spidometr**


120

km/h

Spidometr avtomobil tezligini ko'rsatadi.  
Tezlik cheklovlari amal qiluvchi zonada harakatlanishda ularga rioya qiling.

**Odometr**

8888 km





Odometr avtomobilning to'liq to'plangan bosib o'tilgan yo'lni ko'rsatadi.  
Qonuniy maqsadlarsiz odometr ko'rsatkichlariga tuzatish kiritish qonunchilik tomonidan taqiqlangan.

Joriy yo'l bosish hisoblagichi



Joriy bosib o'tilgan yo'l hisoblagichi hisoblagichni oldingi bekor qilinishi paytidan joriy safarda o'tilgan masofani ko'rsatadi. Joriy kilometr hisoblagichini tiklash uchun ruldagi pastga tugmasini 2 soniya bosib turing.

Taxometr



Taxometr bir minutda dvigatel kolenvallining aylanishlar sonini ko'rsatadi.

Yonilg'i sathi ko'rsatkichi



Yonilg'i ko'rsatkichi bakdagi yonilg'i sathini ko'rsatadi.

Agar yonilg'i sathi bakda past bo'lsa, nazorat indikator yonadi. Darhol yonilg'i qo'shing. Yonilg'i bakidagi yonilg'ini butun jamg'armasini to'liq ishlatib yuborish qat'iy taqiqlanadi. Bakda yonilg'ining bir qancha miqdori qolganligi sababli, qo'shilgan yonilg'ining miqdori yonilg'i bakining hajmidan kamroq bo'lishi mumkin. Tormozlanishda, tezlashishda yoki burilishda yonilg'i bakidagi yonilg'i chayqaladi, va yonilg'i ko'rsatkichining ko'rsatkichlari o'zgaradi.

Yonilg'ini qo'shimcha quyish uchun, avtomobilni to'xtatib va dvigatelni o'chiring.


### Dvigatelnings sovituvchi suyuqligining harorati indikatorini



Dvigatelni sovituvchi suyuqligi harorati ko'rsatkichi dvigatelni sovituvchi suyuqligi haroratini ko'rsatadi.

"C" "sovuqni", "H" "issiqni" anglatadi, agar sovituvchi suyuqlikning harorat ko'rsatkichi qizil zonaga joylashgan bo'lsa, dvigatel haddan tashqari qizib ketgan. Tekshirish uchun dvigatelni darhol o'chiring.

### Uzatma indikatsiyasi



Uzatmalar qutisi nosozligi signalizatori o't oldirish yoqilganida bir necha sekundga yonadi va so'ngra o'chadi.

Bu signal lampalarni boshqarish tizimi sozligiga ko'rsatadi.

Ba'zi modellarda ushbu signalizator o't oldirish yoqilishida yonmaydi, balki faqat nosozlik bo'lganida yonadi.

### Avtomatik UO'Q bo'lgan avtomobillar uchun

AUO'Q bo'lgan avtomobillarda signalizator quyidagi signallar bilan AUO'Q tizimi nosozligi haqida xabar beradi:

- Doimo yonib turibdi
- Miltillamoqda

Zudlik bilan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

### Burilish ko'rsatkichi



Burilish ko'rsatkichi indikatorini burilishning tashqi miltillovchi ko'rsatkichi sozligini tasdiqlaydi.

Agar siz burilish ko'rsatkichini yoqishda yashil strelka miltillamayotganligini aniqlagan bo'lsangiz, eruvchan saqlagichni va lampani tekshiring va zarurat tug'lsa ularni almashtiring.

### ⚠ XAVF-XATAR!

Burilish ko'rsatkichida yoki avariya signalizatsiyasining kuygan lampochkasini darhol almashtirish zarur. Ushbu ko'rsatkichlar harakat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ko'rsatkichlarning nosozligi odamlarning jarohatlanishi va hatto o'limi hamda avtomobil va boshqa mulkning shikastlanishi bilan kuzatib boriluvchi avariya olib kelishi mumkin.

Agar miltillash odatiydan tez-tez sodir bo'layotgan bo'lsa, demak, burilish ko'rsatkichining lampochkasi kuygan, va uni almashtirish zarur.

### Taqilmagan xavfsizlik kamarlari indikatorlari

#### Haydovchining xavfsizlik kamari taqilmaganligi signalizatori



Taqilmagan xavfsizlik kamari signalizatori, agar haydovchi o't oldirishdan keyin xavfsizlik kamarini taqib olmagan bo'lsa, yorishadi.

Agar haydovchi tegishli tarzda xavfsizlik kamarini taqib olmagan bo'lsa, quyidagilar sodir bo'ladi:

- Taqilmagan xavfsizlik kamari signalizatori yonadi;
- Tezlikni soatiga 20 km.dan oshirishda signalizator miltillashni boshlaydi va ogohlantiruvchi ovoqli signal jaranglaydi.

### Oldingi yo'lovchining taqilmagan xavfsizlik kamari signalizatori



Agar old o'rindiq band bo'lsa, ammo yo'lovchi o't oldirishdan keyin xavfsizlik kamarini taqib olmagan bo'lsa, taqilmagan xavfsizlik kamari signalizatori yonadi.

Agar oldingi yo'lovchi tegishli tarzda xavfsizlik kamarini taqib olmagan bo'lsa, quyidagilar sodir bo'ladi:

- Taqilmagan xavfsizlik kamari signalizatori yonadi;
  - Tezlikni soatiga 20 km.dan oshirishda signalizator miltillashni boshlaydi va ogohlantiruvchi ovoqli signal jaranglaydi.
- Ushbu signalizator o't oldirish yoqilganidan keyin, agar oldingi yo'lovchi o'rindiqi bo'sh bo'lsa, yonmaydi.

### Shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlarini tayyorligi signal lampasi



Xavfsizlik yostiqlari signalizatori o't oldirish yoqilishida bir necha sekundga yonadi va so'ngra o'chadi.

Bu signalizator lampochkasi va xavfsizlik yostiqlari tizimi soz holatda ekanligini ko'rsatadi.


Xavfsizlik yostig'i nosozligi holatida signalizator quyidagi signallar bilan bu haqda xabar beradi:

- O't oldirish yoqilishida lampa yonmayapti.
- Yoqilishdan keyin bir necha sekund o'tib lampa o'chayotgani yo'q.
- Lampa miltillamoqda yoki harakatlanish vaqtida yonib turishda davom etmoqda.

**▲ XAVF-XATAR!**

Agar xavfsizlik yostiqlari signalizatori millitlayotgan yoki harakatlanish vaqtida doimo yonib turgan bo'lsa, bu xavfsizlik yostiqlari tizimining nosozligi haqida dalolat beradi.

Bunda xavfsizlik yostiqlari tizimi o'chadi va avariya holatida ishlamaydi. Tekshirish uchun yaqin masofada joylashgan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilishni qat'iy an maslahat beramiz. Agar xavfsizlik yostiqlari tizimi ishlamay qolgan avtomobil avariya tushib qolsa, odamlarning jarohatlanishi va hattoki o'limi ehtimoli bor.

**Quvvatlash tizimi lampasi**

Quvvatlash tizimining ogohlantiruvchi indikator o't oldirish yoqilishida yonadi va dvigatel ishga tushirilganidan keyin o'chadi. Agar quvvatlash tizimining ogohlantiruvchi indikator harakatlanish vaqtida yonayotgan bo'lsa:


1. Ehtiyotlik bilan yo'l chetiga haydab o'ting.
2. Avtomobilni to'xtating.
3. Yuritma kamari bo'shab qolmaganligini va uzilib ketmaganligini tekshiring.

4. Agar yuritma kamari soz bo'lsa, ammo quvvatlash tizimining ogohlantiruvchi indikator yonib turishda davom etayotgan bo'lsa, bu quvvatlash tizimining nosozligi haqida dalolat berishi mumkin. Avtomobilni ta'mirlash uchun iloji boricha tezroq texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

**▲ DIQQAT!**

Quvvatlash tizimi signalizatori quvvatlash tizimida, ehtimol, muammo mavjudligiga ko'rsatadi. Agar quvvatlash tizimi signalizatori yonib turgan bo'lsa, avtomobildan foydalanmang. Nosoz quvvatlash tizimi bilan harakatlanish avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Agar siz avtomobilda qisqa safarlarni tez-tez qilayotgan bo'lsangiz, akkumulator batareyasining quvvati tezroq sarflanadi, va uni akkumulatorni quvvatlash yoki uzoq masofalarga safar qilish yo'li bilan to'ldirib turish zarur.

**Nosozlik signalizatori**

Bu indikator lampasi o't oldirish yoqilishida yonadi, toki dvigatel ishga tushirilgunicha. Bu indikator lampa sozligiga ko'rsatadi.

Dvigatel ishga tushirilganidan keyin lampa o'chadi. Ushbu nosozlik indikator chiqindi gazlar darajasini nazorat qilish tizimining har qanday komponentlari va kichik tizimlarining nosozligi holatida yonadi. Indikator elektron boshqaruv moduli (ECM) har qanday nosozlikni aniqlagandan keyin yonadi va yonishda davom etadi.

O't oldirishni ahamiyatli o'tkazib yuborishlarini aniqlashda doimo millitlab turadi. O't oldirishni ahamiyatli o'tkazib yuborishlari katalitik neytralizatorning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatda avtomobilning elektron boshqaruv tizimi harakatlanishni davom ettirishga imkon beruvchi avariya rejimiga o'zgaradi. Bunda nosozlikni bartaraf qilish uchun zudlik bilan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish zarur.

Agar lampa qisqa vaqtga yonayotgan, so'ngra esa o'chayotgan bo'lsa, bu me'yordagi holat va tizim nosozligiga ko'rsatmaydi.

**⚠️ DIQQAT!**

Dvigatelni nosozligi indikatorining (MIL) yonib turishi nosozlik mavjudligiga ko'rsatadi. Yonishni boshlagan dvigatel nosozligi indikatorini bilan harakatlanishni davom ettirish chiqindi gazlarni darajasini nazorat qilish tizimini shikastlanishiga olib kelishi va oqibatda yonilg'i tejamkorligi va avtomobil boshqaruvchanligini yomonlashtirishi mumkin. Avtomobilni ta'mirlash uchun iloji boricha tezroq yaqin joyda joylashgan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

**Tormoz tizimining nazorat lampasi**



**Mexanik qo'l tormozli model**

Tormoz tizimi signalizatori o't oldirish yoqilishidan keyin yonadi va to'xtab turish tormozi qo'yib yuborilganidan keyin bir necha sekund o'tib o'chadi. Bu signalizator sozligiga ko'rsatadi.

To'xtab turish tormozini yoqilishida, shuningdek, tormoz tizimi/elektron tormoz kuchlarini taqsimlash tizimi (EBD) signalizatori yonadi. To'xtab turish tormozi qo'yib yuborilgandan keyin lampaga o'chadi.

Harakatlanishni boshlashdan avval, to'xtab turish tormozini to'liq tushiring. Agar tormoz tizimi signalizatori to'xtab turish tormozi qo'yib yuborilgandan keyin yonsa, bu bachokda tormoz suyuqligining yetarlicha bo'lmagan sathi yoki EBD tizimining nosozligi haqida dalolat beradi.

Bunday holatda:

1. Yo'ldan ehtiyotlik bilan chiqin va avtomobilni to'xtating.
2. Tormoz suyuqligining sathini tekshiring.
3. Tavsiya etilgan tormoz suyuqligini MAX (yuqori) belgigacha qo'shimcha quying. Tormoz suyuqligi ↗ 9-7ni ko'ring.

4. Agar quyidagi shartlar bajarilgan bo'lsa, xavfsiz tezlikda o'z yurishingiz bilan tormoz tizimini tekshirish va quyidagilarga ishonch hosil qilish uchun yaqinda joylashgan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga yetib boring:

- Tormozlar me'yorda ishlamoqda.
- Siz tormoz tizimi ishonchli ekanligiga ishonasiz.

5. Quyidagi holatlarda tekshirish uchun yaqinda joylashgan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga avtomobilni evakuatorda yetkazing:

- Siz tormoz tizimida sizib chiqishni aniqlaganingizda.
- Tormoz tizimi signalizatori yonib turibdi va o'chayotgani yo'q.
- Tormoz tizimini ishi buzilgan.

**⚠️ DIQQAT!**

Agar tormoz tizimi nosozligi signalizatori yonib turgan bo'lsa, harakatlanish taqiqlanadi.

- Ushbu signalizatorning yonib turishi tormoz tizimining nosozligiga ko'rsatishi mumkin.
- Tormoz tizimining nosozligi avariya olib kelishi va o'zi bilan jarohatlar, Sizing avtomobilingizga shikastlar yoki boshqa moddiy zararlarni keltirib chiqarishi mumkin.



**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Agar tormoz tizimi signalizatori o't oldirish yoqilgida qo'l tormozi yoqilganidan keyin yonmayotgan bo'lsa, avtomobildan foydalanmang.

Signal lampaning nurdiodi sozligiga ishonch hosil qiling. Agar o't oldirish yoqilganida qo'l tormozini yoqishda, signal lampaning nurdiodi sozligiga qaramasdan, lampa yonmayotgan bo'lsa, tormoz tizimini tekshirish uchun yaqinda joylashgan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Bu tormoz tizimining nosozligiga ko'rsatishi mumkin.

Nosoz tormoz tizimi bo'lgan avtomobilning ekspluatatsiyasi odamlar jarohatlanishi, hamda avtomobilning va boshqa mulkning shikastlanishi bilan kuzatiluvchi avariya olib kelishi mumkin.

**Elektr yuritmal to'xtab turish tormozi signalizatori**

Agar avtomobil elektr mexanik to'xtab turish (EPB) bilan jihozlangan bo'lsa, elektr mexanik to'xtab turish tormozi yoqilishida EPB indikator yonadi.

Bu avtomobil to'xtab turish holatiga joylashtirilganligiga ko'rsatadi.

EPB o'chishida EPB indikator o'chadi. Bu avtomobil to'xtab turish holatidan chiqarilganligiga ko'rsatadi.

Agar elektr mexanik to'xtab turish tormozi ishonchli tortib qo'yilgan bo'lsa, indikator yonib turadi. Elektr yuritmal to'xtab turish tormozi ↻ 8-17 ni ko'ring.

**Elektr to'xtab turish tormozining nosozlik indikator**

Elektr mexanik to'xtab turish tormozga ega bo'lgan avtomobilda EPB nosozlik signalizatori o't oldirish yoqilishida yonadi va bir necha sekunddan keyin o'chadi. Bu signalizator lampochkasi va EPB moduli soz holatda ekanligiga ko'rsatadi.

EPB yoki signalizator lampasining nosozligi holatida tizim quyidagi signallar bilan nosozlik haqida xabar beradi:

- O't oldirish yoqilishida lampa yonmayapti.
- Yoqilishdan keyin bir necha sekund o'tib lampa o'chayotgani yo'q.
- Harakatlanish vaqtida lampa yonmoqda

Agar EPB signalizatori lampasi yuqorida ta'riflanganidek o'zini tutayotgan bo'lsa, zudlik bilan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. EPB nosozligi holatida avtomobil beixtiyor yurib ketishi mumkin.

### Antibloklash tormoz tizimi (ABS) signalizatori



ABS ogohlantiruvchi indikator o't oldirish yoqilishidan keyin darhol yonadi. Bu tizim o'z-o'zini tekshirishni bajarayotganini va indikator lampasi soz ekanligiga ko'rsatadi. Ogohlantiruvchi indikator bir necha sekunddan keyin o'chadi.

Agar ABS ogohlantiruvchi indikator quyida ko'rsatilgani kabi o'zini tutayotgan bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

- O't oldirish yoqilishida yonayotgani yo'q
- Doimo yonib turibdi
- Harakatlanish vaqtida yonib turibdi

Agar ABS ogohlantiruvchi indikator harakatlanish vaqtida yonayotgan bo'lsa, bu ABS nosozligiga ko'rsatishi mumkin.

Avtomobilni ABSsiz me'yorda ekspluatatsiya qilish mumkinligi sababli, ABSni tekshirish va zarurat tug'ilganida uni ta'mirlash uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

### ⚠️ DIQQAT!

Agar tormoz tizimi signalizatori yonib turgan avtomobilni ekspluatatsiya qilmang. Harakatlanish vaqtida ushbu signalizatorning yoqilishi avtomobilning tormoz tizimi nosozligini anglatishi mumkin. Tormoz tizimining nosozligi avariya olib kelishi va o'zi bilan jarohatlar, Sizning avtomobilingizni shikastlanishi yoki boshqa moddiy zararlarni keltirib chiqarishi mumkin.

### Nishablikda avtomobilni tutib turishning avtomatik tizimi (AVH) indikator

### Avtomobilni avtomatik tutib turish tizimining (AVH) ishlashi indikator (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)



Avtomobilni avtomatik tutib turish tizimining (AVH) ishlashi indikator o't oldirishda yonadi va bir necha sekunddan keyin o'chadi. Bu indikator sozligiga ko'rsatadi. Avtomobillarning ba'zi modellarida ushbu indikator o't oldirish vaqtida yonmaydi;

u avtomobilni to'xtab turishga joylashtirish vaqtida, AVH funksiya yoqilgan paytda yonadi. Avtomobil to'xtab turish holatidan chiqarilganda indikator o'chadi. AVH haqida batafsil To'xtab turish tormozi ↷ 8-17 ni ko'ring.

### Avtomobilni avtomatik tutib turish tizimi (AVH) nosozligi signalizatori (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)



Avtomobilni avtomatik tutib turish tizimining (AVH) nosozlik indikator o't oldirishda yonadi va bir necha sekunddan keyin o'chadi. Bu signalizator lampochkasi va AVH boshqaruv moduli soz holatda ekanligiga ko'rsatadi. Avtomobillarning ba'zi modellarida ushbu signalizator o't oldirish vaqtida yonmaydi. AVH yoki signalizator lampasining nosozligi holatida tizim quyidagi signallar bilan nosozlik haqida xabar beradi:

- O't oldirish yoqilishida lampa yonmayapti.
- Yoqilishdan keyin bir necha sekund o'tib lampa o'chayotgani yo'q.
- Harakatlanish vaqtida lampa yonmoqda

Agar AVH signalizatori lampasi yuqorida ta'riflanganidek o'zini tutayotgan bo'lsa, zudlik bilan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

#### Rul gidrokuchaytirgichini ogohlantiruvchi indikator (EPS)



Rul boshqaruvi kuchaytirgichini ogohlantiruvchi indikator o't oldirish yoqilishida darhol yonadi. Bu tizim o'z-o'zini tekshirishni bajarayotganligi va indikator lampasi soz holatda ekanligiga ko'rsatadi. Ogohlantiruvchi indikator bir necha sekunddan keyin o'chadi. Agar elektr kuchaytirgichli rul boshqaruvi tizimida (EPS) nosozlik aniqlanganida, ushbu indikator yonadi. Avtomobilning rul boshqaruvi hattoki elektr kuchaytirgich nosozligida ham ishlashda davom etadi, biroq ahamiyatli katta kuchlarni talab qiladi. Agar quyidagi alomatlar kuzatilayotgan bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

- O't oldirish yoqilishida indikator yonmayapti.
- Yoqilishdan keyin bir necha sekund o'tib indikator o'chayotgani yo'q.
- Harakatlanish vaqtida indikator yonmoqda

#### ⚠ **DIQQAT!**

Agar rul boshqaruvi kuchaytirgichi signalizatori yonib turgan bo'lsa, avtomobilni ekspluatatsiya qilmang. Harakatlanish vaqtida signal lampasining yoqilishi servokuchaytirgichli rul boshqaruvi nosozligiga ko'rsatishi mumkin. Bunday nosozlik avariya olib kelishi va o'zi bilan jarohatlar, Sizing avtomobilingizga shikastlar yoki boshqa moddiy zararlarni keltirib chiqarishi mumkin.

#### O'chirilgan StabiliTrak tizimi indikator



StabiliTrak tizimini o'chirish signalizatori o't oldirish yoqilishidan keyin yonadi va bir necha sekunddan keyin o'chadi. Bu indikator sozligiga ko'rsatadi. Agar haydovchi avtomobil tezligi hali chegara qiymatga erishmagan vaqtda ESC OFF (ESCni o'chirish) tugmasini bosganida, ESC tizimining ba'zi funksiyalari faolsizlantiriladi.

Ushbu holatda ESC OFF indikator yonadi. Elektron dinamik stabilashtirish tizimi (ESC) ⇨ 8-22ni ko'ring. Odatda, ESC OFF o'zgartirgichini o'chirilgan holatga o'rnatish tavsiya etilmaydi.

#### Tortish kuchi nazorati tizimi (TCS)/StabiliTrak nazorat lampasi



Ushbu signalizator o't oldirish yoqilishidan keyin yonadi va bir necha sekunddan keyin o'chadi. Bu indikator sozligiga ko'rsatadi. ESC tizimi faol bo'lgan vaqtda, ESC indikator miltillab turadi. Agar ESC indikator doimo yonib turgan bo'lsa, bu ESC nosozligiga ko'rsatadi. Elektron dinamik stabilashtirish tizimi (ESC) ⇨ 8-22 ni ko'ring.

### Dvigatelnings sovituvchi suyuqligining harorati signalizatori



Dvigatelnings sovituvchi suyuqligining harorati signalizatori o't oldirish yoqilganidan keyin yonadi va bir necha sekund o'tgandan keyin o'chadi. Bu tizim va indikator lampasi sozligiga ko'rsatadi. Ushbu indikator sovituvchi suyuqlikning ruxsat etilgan haroratdan oshib ketishida yonadi.

Bu dvigatel haddan tashqari qizib ketganligiga ko'rsatadi. Harakatlanishni to'xtating.

### Shinalardagi bosim signalizatori



TPMS signalizatori o't oldirish yoqilishida bir necha sekundga yonadi va so'ngra o'chadi. Bu signalizator sozligiga ko'rsatadi.

TPMS signalizatori shinalarda juda yuqori yoki juda past bosim bo'lganida, hamda TPMS tizim nosozligida yonadi.

Shinalardagi to'g'ri bosimni Shinalarda havo bosimi ⇨ 9-14 bo'limda ko'ring.

### Motor moyi bosimi signalizatori



Motor moyining past bosimi indikator o't oldirish yoqilishida yonadi va so'ngra dvigatel ishga tushirilganidan keyin o'chadi. Bu indikator sozligiga ko'rsatadi.

Agar ushbu indikator dvigatel ishlayotgan vaqtda yonsa, bu motor moyining bosimi xavfli past darajagacha tushib ketganligiga ko'rsatishi mumkin. Zudlik bilan dvigatelni o'chiring va moy sathini tekshiring.

Agar moy sathi past bo'lsa, talab etiluvchi turdagi motor moyini yetarlicha darajagacha qo'yib quyning. Motor moyi ⇨ 9-4 ni ko'ring.

Agar moy sathi me'yorda bo'lsa, moylash tizimini tekshirish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

### ⚠️ **DIQQAT!**

Motor moyining bosimini xavfli pasayishi ehtimoli bor.

Motor moyi bosimi signalizatori yonib turgan vaqtda avtomobilni ekspluatatsiya qilmang. Past bosimdagi moy bilan harakatlanish shikastlanishga olib kelishi mumkin, u qimmatbaho ta'mirlashni talab qiladi.

### Yonilg'ini past sathi signalizatori



Yonilg'ini past sathi signalizatori o't oldirish yoqilishi bilan darhol yonadi. Bu tizim o'z-o'zini tekshirishni bajarayotganligi va indikator soz holatda ekanligiga ko'rsatadi.

Agar ushbu indikator o't oldirish yoqilishidan keyin yonib turishda davom etsa yoki harakatlanish vaqtda yonsa, bu yonilg'i bakida yonilg'i yetarli emas va qo'shimcha quyish talab etilishiga ko'rsatadi.

Yonilg'ini butunlay sarflamang, aks holda katalitik neytralizatorning shikastlanish ehtimoli bor.

**Qo'riqlash signalizatsiyasi indikator**

Ushbu indikator eshikni ochishda yonadi va dvigatel ishga tushirilganidan keyin o'chadi. Bu indikator sozligiga ko'rsatadi. Dvigatel starterini himoyalash ⇨ 8-7 ni ko'ring.

**Uzoqni yoritish chirog'ini yoqilganligi signalizatori**

Uzoqni yoritish faralari yoqilganida uzoqni yoritish indikator yonib turadi.

**Oldingi tumanga qarshi faralar signalizatori**

Ushbu indikator oldingi tumanga qarshi chiroqlar yoqilishida yonadi. Oldingi tumanga qarshi faralar ⇨ 5-5 ni ko'ring.

**Orqa tumanga qarshi chiroqlar signalizatori**

Ushbu indikator orqa tumanga qarshi chiroqlar yoqilishida yonadi. Orqa tumanga qarshi chiroqlar ⇨ 5-5 ni ko'ring.

**Yoritish uskunlari yoqilgigi haqida eslatma**

Ushbu indikator gabarit chiroqlar yoqilishida yonadi.

**Kruiz-nazorat signalizatori**

Ushbu indikator kruiz-nazorat funksiyasi faol bo'lgan vaqtda yonadi. Kruiz-nazorat ⇨ 8-23ni ko'ring.

**AXBOROT DISPLEYLARI****Haydovchining axborot markazi (DIC)****Bortli kompyuter ekran**

3/6

Avg. Fuel Econ.

7.8L/100km

Instant Fuel


Economy

---L/100km

P

Ekranida avtomobil komplektatsiyasiga qarab o'rtacha yonilg'i sarfi, joriy yonilg'i sarfi, masofa, shinalar bosimi ko'rsatkichi, nosozlik ma'lumotlari, yorqinlikni nazorat qilish va hokazolar ko'rsatilishi mumkin.

### Uskunalar majmuini boshqarish tugmasi



1. Tanlash tugmasi yuqoriga/pastga Opsiyanani tanlash yoki sozlash uchun tugmani yuqoriga yoki pastga suring.
2. Tasdiqlash tugmasi (OK) Bu tugma sozlamalarni tasdiqlash va joriy kilometr yoki o'rtacha yoqilg'i sarfini o'chirish uchun ishlatiladi.

### O'rtacha yoqilg'i sarfi

Avg. Fuel Econ.

**8.4 L/100km**

O'rtacha yoqilg'i sarfi l/100 km da ko'rsatiladi; bu ko'rsatkich haydovchiga haydash malakasini oshirishga yordam beradi. Turli xil haydash rejimlarida o'rtacha yoqilg'i sarfining mos qiymati boshqacha. Haydash rejimlari shaharda haydash, yuqori tezlikda haydash, o'zgaruvchan doimiy tezlikda haydash, tezlashtirish / sekinlashtirish, turli uzatmalarda ma'lum tezlikda haydash va shunga o'xshashlarni o'z ichiga oladi.

Joriy kilometr hisoblagichini va o'rtacha yoqilg'i sarfini qayta o'rnatish uchun joriy boshqaruv interfeysidagi pastga tugmasini bosib va ushlab turing.

Ushbu ma'lumotlarni o'chirib tashlaganingizdan so'ng, avtomobil 0,1 km yo'l bosib o'tmaguncha o'rtacha yoqilg'i sarfi ko'rsatilmaydi. Salt turganda sarflangan yoqilg'i o'rtacha yoqilg'i sarfiga kiritilmaydi.

### Joriy yonilg'i sarfi

Instant Fuel  
Economy

**8.4 L/100km**

Joriy yonilg'i sarfi- joriy pedal holati va joriy haydash rejimi uchun yoqilg'i sarfi mos yozuvlar qiymati (l/100 km). Juda past joriy avtomobil tezligida, joriy yoqilg'i sarfi l/soat (soatiga litr) da ko'rsatiladi. Joriy yoqilg'i sarfi pedal bosilishi, dvigatel tezligi va avtomobil nagruzkasi o'zgarishlariga qarab real vaqtda o'zgaradi.

## Yurish zaxirasi


---

RANGE  
**150km**

---

P

## Shinalardagi bosim ko'rsatkichi



P

## Nosozlik tafsilotlari



Please check EPB system


P

Bu avtomobilning qolgan yoqilg'ida uzluksiz yurishi mumkin bo'lgan masofani ko'rsatadi. Ushbu qiymat joriy haydash rejimiga qarab yoqilg'i sarfining o'zgarishi bilan o'zgaradi. Quvvat zaxirasi faqat ma'lumot uchun ko'rsatilgan. Agar past yonilg'i indikatorini yonib turgan bo'lsa, imkon qadar tezroq yonilg'i quyung.

Shinalarda bosimni nazorat qilish tizimi (TPMS) barcha to'rtta shinalardagi joriy bosimni va ularning haroratini ko'rsatadi. Agar tizim shinalardagi past yoki yuqori bosimni aniqlasa, u bosimni rostdashni taklif qilib, ogohlantirish uzatadi. Shinalardagi standart bosimni Shinalarda havo bosimi ↪ 9-14 bo'limda qarang..


Displeyda avtomobilda muammo borligini ko'rsatadigan nosozlik ma'lumotlari paydo bo'lsa, ehtiyot bo'ling va potentsial xavfli holatni tuzatish uchun o'z vaqtida xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

### Yorqinlikni nazorat qilish




Yorug'likning yorqinligini sozlash menyusida siz ruldagi yuqoriga/pastga tugmalari yordamida kombinatsiya indikatorining orqa yorug'ligini sozlashingiz mumkin. Sozlashni tugatgandan so'ng, o'zgarishlarni saqlash va menyudan chiqish uchun OK tugmasini bosing.

### Til sozlamalari



Joriy interfeys tilini o'rnatishingiz mumkin bo'lgan til sozlamalari menyusini ochadi.

### Yopilgan eshik signalizatori



Agar oldingi yoki orqa eshiklardan biron biri yopilgan yoki zich yopilgan bo'lsa, ochilib qolgan eshik shaklidagi indikator yonadi; agar yuk bo'linmasining eshigi yopilgan yoki zich yopilgan bo'lsa, ochilib qolgan yukxona shaklidagi indikator yonadi yoki miltillaydi. Agar 10 km/soat yoki undan yuqori avtomobil tezligida istalgan eshik to'liq yopilgan bo'lsa, yopilgan eshik ovozli signali jaranglaydi.



**Orqa o'rindiq taqilmagan xavfsizlik kamarining ogohlantirish chirog'i (agar mavjud bo'lsa)**



- Agar tezlik 20 km/soat dan oshsa, indikator miltillay boshlaydi va ma'lum vaqt davomida ogohlantiruvchi ovozli signal eshitaladi.

Orqa o'rindiqlar band bo'lmasa yoki ogohlantirish funksiyasi o'chirilgan bo'lsa (bu funktsiyani qurilmalar panelidagi sozlash orqali o'chirib qo'yish mumkin - faqat bitta o't oldirish sikli uchun amal qiladi) o't oldirish yoqilgandan so'ng ogohlantirish chirog'i yonmaydi.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

Orqa o'rindiqlarda yo'lovchilar bo'lsa, ular xavfsizlik kamarlarini to'g'ri taqqanligiga ishonch hosil qilish uchun xavfsizlik kamarlari haqida ogohlantirishni o'chirmang.

Orqa yo'lovchi o'rindig'i band bo'lsa, lekin o't oldirish yoqilgandan keyin yo'lovchi xavfsizlik kamarini taqilmagan bo'lsa, xavfsizlik kamarining ogohlantirish chirog'i yonadi.

Shundan so'ng, agar orqa o'rindiqdagi yo'lovchilar xavfsizlik kamarlarini taqmasa, quyidagilar yuzaga keladi:

- Xavfsizlik kamarining ogohlantirish chirog'i yonadi (indikator ichidagi 3/4/5 raqami mos ravishda 2-qatoridagi chap, o'rta va o'ng o'rindiqlarni bildiradi; 6/7 raqamlari o'rindiqlarning 3-qatoridagi chap va o'ng o'rindiqlarni bildiradi. ).



# 5

## YORITISH

- 
- TASHQI YORITISH ..... 5-2
  - SALONNI YORITILISHI ..... 5-6
  - IZOHLAR .....5-8

## TASHQI YORITISH

### Tashqi yoritish uskunalarini boshqarish organlari

#### Yoritish uskunalarining o'zgartirgichi



Faralarni, orqa chiroqlarni yoki to'xtab turish chiroqlarini yoqish/o'chirish uchun yorug'likni boshqarish pishangisini uchini burang. Yoritish uskunalarining o'zgartirgichi yoritishning turli rejimlariga muvofiq keluvchi uchta holatga ega: OFF (O'CHIRILGAN): Barcha yoritish uskunalari o'chirilgan.

$\text{☞}$  : Gabarit chiroqlar, raqam belgisini yoritgichi, uskunalar paneli yoritgichi va boshqa ponellarning yoritgichlari yonib turibdi. AUTO\*: uzoqni yoritish chirog'ini faol boshqarish

$\text{☞}$  : ON (YOQILGAN) holatga yoritish uskunalarining o'zgartirgichini o'rnatishda yaqinni yoritish faralari va yuqorida sanab o'tilgan barcha yoritish uskunalari yonadi.

#### Uzoqni yoritish chirog'i



Uzoqni yoritish chirog'ini yoqish uchun:

1. O't oldirish yoqilganligiga ishonch hosil qiling.
2. Yaqinni yoritish chirog'ini yoqing.
3. Yorug'likni boshqarish pishangisini uskunalar paneli tomonga suring.

Uzoqni yoritish faralari yoqilgan vaqtda, uzoqni yoritish chirog'i indikator yonib turadi.

Uzoqni yoritish chirog'idan yaqinni yoritish chirog'iga o'tish uchun, boshqaruv pishangisini odatiy holatga qaytaring.

Qarshi avtomobilning paydo bo'lishida yoki yo'ldosh avtomobilga yaqinlashishda harakatlanish yo'nalishi bo'ylab oldinda uzoqni yoritish chirog'idan yaqinni yoritish chirog'iga o'ting. Uzoqni yoritish chirog'i boshqa haydovchilarning ko'zini qamashtirishi mumkin, bu avariya olib keladi.

#### Faralar bilan miltillash

Uzoqni yoritish chirog'i bilan miltillash uchun, yorug'likni boshqarish pishangisini torting va uni qo'yib yuboring. Qo'yib yuborishda pishangi me'yordagi holatga qaytadi. Siz boshqarish pishangisini ushlab turguningizcha, uzoqni yoritish chirog'i yonib turadi.

#### Faralarni o'chirilishini kechiktirilishi

Faralarni o'chirilishini kechiktirilishi funksiyasini yoqish uchun, faralarni o'chirib qo'ying va bir sekund davomida yorug'likni boshqarish pishangisini o'zingizga torting. Yorug'likni boshqarish pishangisini dvigatelni o'chirish va o't oldirishni ACC yoki LOCK holatga o'tkazish yoki kalitning o't oldirish qulfidan sug'urib olinishidan keyin ikki marta torting. Masofadan qulflashdan keyin yaqinni yoritish faralari yana 30 sekund yonib turishda davom etadi; agar avtomobilni qulflab qo'yilmasa, yaqinni yoritish chiroqlari 10 min. o'tgandan keyin o'chadi.


### Yoritish uskunalari yoqiligi haqida eslatma

Agar siz o't oldirishni LOCK holatga o'rnatayotgan yoki yoritish uskunalarning o'zgartirgichlaridan biron biri o'chirilgan holatga o'rnatilmagan vaqtdagi holatda kalitni sug'urib olayotgan bo'lsangiz, haydovchining eshigi ochilishida tovushli signal jaranglaydi. Yoritish uskunasi o'chirishdan keyin tovushli signal to'xtaydi.

### Kunduzgi yoritish faralari lampalari

Kunduzgi yurish chiroqlari dvigatel ishga tushirilishida avtomatik yoqiladi; ular gabarit chiroqlar o'chirilishida avtomatik o'chadi.

### Faralar tuzatgichi



Faralarni sozlash tutqichi uskunalar panelidan chapda joylashgan.

Avtomobil yuklanishiga bog'liq holda faralarni shunday sozlangki, eng yaxshi yoritilganlikni ta'minlash va ko'z qamashirilishi istisno qilinsin. Tutqichni kerakli holatga burang:

0 = oldingi o'rindiqlar band

1 = barcha o'rindiqlar band

2 = barcha o'rindiqlar band, yuk bo'linmasida yuk bor

3 = haydovchi o'rindig'i band, yuk bo'linmasida yuk bor


### Yoritishni avtomatik boshqarish\*


Agar o't oldirish o'zgartirgichi ON holatga o'rnatilgan, yoritish uskunalari o'zgartirgichi esa AUTO holatiga o'rnatilgan bo'lsa, yoritishni avtomatik boshqarish funksiyasi yoqiladi.


Yorug'lik datchigi atrofdagi yoritilganlik yorug'ligini aniqlaydi va gabarit chiroqlarni va yaqinni yoritishni avtomatik yoqadi yoki o'chiradi.

#### **⚠ DIQQAT!**

Juda kuchli tumanda faralarni qo'lda yoqish zarur. Tuman sababli faralar avtomatik yoqilmaydi. Yorug'likni avtomatik boshqarish - bu yordamchi funksiyadir. Harakat xavfsizligini kafolatlash uchun, haydovchi har doim yoritilganlikni diqqat bilan nazorat qilishi kerak.

**Avariya yorug'lik signalizatsiyasi**

Avariya chiroqlarini yoqish/o'chirish uchun  ni bosing.

**Burilish va harakatlanish chizig'ini o'zgartirish signallari**

Burilish / chiziqni almashtirish ko'rsatkichlari o't oldirish yoqilgan vaqtda ishlaydi.  
 Boshqaruv pishangisi tepaga = burilishning o'ng ko'rsatkichi  
 Boshqaruv pishangisi pastga = burilishning chap ko'rsatkichi  
 Burilishni yakunlashdan so'ng burilish ko'rsatkichi o'chadi, va boshqaruv pishangisi odatiy holatga qaytadi.  
 Harakatlanish chizig'ini almashtirishda boshqaruv pishangisini yarmiga suring va uni ushlab turing. Harakatlanish chizig'ini almashtirgandan keyin boshqaruv pishangisini qo'yib yuboring, va u odatiy holatiga avtomatik qaytadi.

Burilishning orqa ko'rsatkichlari sizning avtomobilingizni blok-chiroqlari va orqa bamperga o'rnatilgan. Yuk bo'linmasi eshigi ochiqligida burilish ko'rsatkichi yoqilishida orqa bamperdagi burilish signali yonadi. Bu boshqa avtomobillarning haydovchilarini burilish signalini, hattoki agar yuk bo'linmasining eshigi ochiq bo'lsa ham, uzatishini kafolatlaydi.

**Rul kuchaytirgichini yoritish funksiyasi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)**

Rulni burishda ikki oldingi tumanga qarshi faralar yonadi, ular quyidagi sharoitlarda yordamchi yoritishni yaratadi:

- Dvigatel yoqilgan.
- Avtomobilning tezligi 35 km/soatdan yuqori emas.
- Yaqinni yoritish faralari yoqilgan.
- Rul chamberagining burilish burchagi 60°dan yuqori yoki burilish ko'rsatkichi o'zgartirgichi yoqilgan.

Oldingi tumanga qarshi faralarning yoqilishida shuningdek uskunalar panelidagi oldingi tumanga qarshi faralar indikator yonadi. Rul kuchaytirgichini yoritish funksiyasi yoritish faolsizlantiriladi va quyidagi biron bir sharoit bajarilishida bir qancha vaqtdan keyin oldingi tumanga qarshi faralar o'chadi:

- Rul chamberagining burilish burchagi 30° dan past va burilish ko'rsatkichi o'zgartirgichi o'chirilgan.
- O't oldirish kaliti istalgan holatga o'rnatiladi, ON dan tashqari.
- Avtomobil tezligi 40 km/soatdan yuqori emas.
- Yaqinni yoritish chiroqlari o'chirilgan.


#### Oldingi tumanga qarshi faralar




O't oldirish kaliti ON holatga joylashtirilganida va oldingi blok-faralar gabarit chiroqlar yoki yaqinni yoritish chiroqlari rejimida ishlayotganida oldingi tumanga qarshi faralarni yoqish uchun majmullangan o'zgartirgichning o'rtasidagi halqani ON (YOQILGAN) holatga burang.

Oldingi tumanga qarshi faralarni o'chirish uchun, o'zgartirgich halqasini OFF (O'CHIRILGAN) holatga burang.

#### Orqa tumanga qarshi chiroqlar



Orqa tuman chiroqlarini yoqish uchun, oldingi faralar yaqinni yoritish rejimiga joylashtirilganida yoki oldingi tumanga qarshi faralar yoqilgan holatda bo'lganida, orqa oyna tozalagichni boshqarish tutqichini  holatga burang va so'ngra qo'yib yuboring. Orqa tumanga qarshi faralarni o'chirish uchun, tutqichni yana bir marta burang.

Agar orqa tumanga qarshi faralar o'chiqligida yaqinni yoritish chirog'i yoki oldingi tumanga qarshi faralar o'chsa, orqa tumanga qarshi faralar yonishda davom etadi.

#### Avtomatik yoqiluvchan lampalar

##### Orqaga yurish chiroqlari


Orqaga yurish chiroqlari o't oldirish yoqilgida orqa uzatmaga (R) o'tishda yonadi.

##### Stop-signal

Haydovchi tormozga bosganida stop-signal yonadi.

## SALONNI YORITILGANLIGI

### Yuk bo'linmasini yoritilganligi




Yuk bo'linmasini yoritilishi yuk bo'linmasi eshigi ochilishida yonadi. Yuk bo'linmasini eshigi yopilishidan keyin u o'chadi. Shtatdagi lampalar kuyishi yoki avariya ularning shikastlanishi holatida ularni kuchli (masalan, ksenonli) lampalarga almashtirmang. Avtomobilni tark etayotganda, barcha yoritish uskunalarini o'chiring.




### O'qish uchun lampalar

#### Individual yoritishning oldingi qorachirog'i

##### I-turi



Ushbu qorachiroq uchta rejimga ega:




-  : Qorachiroq yonadi va toki uni qo'lda o'chirilmagunicha yonib turadi.
-  : Istalgan eshik, jumladan yuk bo'linmasining eshigi ochilishida qorachiroq asta yoqiladi; barcha eshiklar yopilishidan keyin u asta-sekin o'chadi.
-  : Qorachiroq hattoki eshik ochilishida ham yonmaydi.

### **OGOHLANTIRISH!**

Qorong'uda harakatlanishda salon yoritilishini yoqmang. Salondagi yorqin yorug'lik tashqaridagi ko'rishni yomonlashtirishi va avariya sababi bo'lib qolishi mumkin.

##### II-turi



-  yoki  : Chap yoki o'ng individual qorachiroqni yoqish uchun tugmani bosib, o'chirish uchun yana bir marta bosib.
-  : Tugma bosilishida va istalgan eshik ochilishida qorachiroq asta yoqiladi; u bir oz vaqt yonib turadi va so'ngra barcha eshiklar, jumladan yuk bo'linmasining eshigi yopilishidan keyin asta-sekin o'chadi.



**Individual yoritishning orqa qorachiroqlari**

Ba'zi modellarda ikkinchi qator o'rindiqlar uchun individual yoritishning qorachiroqlarini boshqarishning ikki tugmasi shiftga joylashgan.



# 6

## AXBOROT-KO'NGILOCHAR TIZIMI

---


- KIRISH ..... 6-2
- RADIOPRIYOMNIK ..... 6-8
- AUDIOPLEERLAR ..... 6-8
- TELEFON ..... 6-9
- SOZLAMALAR ..... 6-11

## KIRISH

### Kirish

Tizimni o'rnatish va qo'llashdan avval ushbu qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing. O'rnatishni avtomobil audiotizimlari bo'yicha mutaxassisga ishonib topshirish tavsiya etiladi. Tizim 12 Vga (yerga ulash simi bilan) elektr oziqlanishni bort manbaiga ulash uchun mo'ljallangan. Tizimni 24-voltli yuk mashinasiga yoki yuqori quvvatdagi boshqa transport vositasiga bevosita o'rnatmang. Almashtirish uchun muvofiq kuchli saqlagichlarni qo'llang va ushbu ishni malakali mutaxassisga topshiring. Aks holda asbob-uskunaning alangalanish va uning shikastlanish ehtimoli bor. Tizim displeyi - bu yuqori aniqlikdagi elektron konstruksiyadir. Displeyga o'tkir buyumlar bilan teginmang. YHQLarini buzishdan va avariyalardan saqlanish uchun, avtomobilni boshqarish vaqtida haydovchi video, tasvirlar va matnli ma'lumotlarni ko'rishdan, hamda tizimni boshqarishdan saqlanishi kerak. Xavfsizlikni va tizimning me'yorda faoliyat yuritishini kafolatlash uchun, uni sotuvchining malakali vakili o'rnatishi kerak. Asbob-uskunalar shikastlanishidan va avariya

saqlanish uchun, tizimni mustaqil qismlarga bo'lish va uni ta'mirlashga urinmang. Qo'shimcha ma'lumotlarni avtomobil audiotizimlarini sotish bo'yicha mahalliy do'kondan olish mumkin. Asbob-uskunalarining alangalanishi, shikastlanishi va qisqa tutashuv natijasida elektr toki urishidan saqlanish uchun, tizimni suv va namlik ta'siriga uchratmang. Qisqa tutashuvdan saqlanish uchun, tizimni o'rnatishdan avval avtomobilni o'chiring va akkumulator batareyasini uzib qo'ying.



Foydalanuvchi qo'llanmasi qulay elektron formatda yaratilgan. Ko'rsatmalar va interfeyslar foydalanuvchilarga tizim bilan ishlashni o'rganishga yordam beradigan tasvirlar shaklida taqdim etiladi. Tarkibni ko'rish uchun ekranni yuqoriga yoki

pastga suring. Qo'llanmaning mazmuni funksiyalarga bog'liq holda ahamiyatsiz farqlanishi mumkin.



Dastlabki bo'yicha birinchi sahifa aks ettiriladi. Foydalanuvchi qo'llanmasi faqat ma'lumotlar uchun mo'ljallangan; har doim haqiqiy buyum bilan qiyoslang.



#### **Qisqacha ma'lumot**


Axborot-ko'ngilochar tizim va orqani ko'rish kamerasi va Bluetooth kabi boshqa vositalar avtomobil modeli va opsiyalariga bog'liq holda farqlanadi. Axborot-ko'ngilochar tizimiga yo'riqnomaga qarang.


#### **Ta'mirlashdan avvalgi tekshirish**

Agar siz audiotizimning to'g'ri faoliyat yuritishiga nisbatan gumonlarga ega bo'lsangiz, u holda ta'mirlash uchun dilerga murojaat qilishdan oldin, avval qurilmaga yo'riqnomani diqqat bilan tanishib chiqing, so'ngra esa uning ishlashi quyidagi jadval bilan muvofiqlikda tekshiring.

1. Old oynani muzdan tushirish funksiyasini yoqish uchun paneldagi  tugmasini bosing.
2. Orqa oynani muzdan tushirish va yon ko'zgu oynalarini isitishni yoqish uchun paneldagi  tugmasini bosing.

3. Asosiy sahifaga o'tish uchun qurilmalar panelidagi  /  tugmasini bosing. Faqat ekrandagi soatni ko'rsatish uchun bosing va 2 soniya ushlab turing. Axborot-ko'ngilochar tizimini qayta ishga tushirish uchun 10 soniya bosib turing.

4. Ovoz balandligini pasaytirish uchun  - tugmasini bosing. Agar tugmani bosib ushlab tursangiz, ovoz balandligi uzluksiz ravishda pasayadi.

5. Ovoz balandligini oshirish uchun  + tugmasini bosing. Agar tugmani bosib ushlab tursangiz, ovoz balandligi uzluksiz ravishda oshadi.


#### **Bosh sahifa**



**CHEVROLET**

1. O't oldirish yoqilganda yoki o't oldirish kaliti ACC yoki ON holatida bo'lsa, axborot ko'ngilochar tizim ekranida ishga tushirish logotipi paydo bo'ladi va dastlabki animatsiya tugagandan so'ng asosiy sahifa ko'rsatiladi.
2. Axborot-ko'ngilochar tizimi o't oldirish tugmasi OFF holatiga o'tkazilgandan keyin uch daqiqadan so'ng avtomatik ravishda o'chadi.
3. Avtomobil OFF holatida bo'lsa, axborot-ko'ngilochar tizimini o'chirish uchun o't oldirishni yoqish tugmasini bosing yoki haydovchi eshigini oching/yoping.

### Orqaga yurish bilan harakatlanishda yordamning standart tizimi



Ba'zi modellar orqaga yurish bilan harakatlanishda yordamning standart tizimi bilan jihozlanadi.

- Orqa uzatma yoqilishida multimedia ko'ngilochar tizimi displeyida orqaga yurish

bilan harakatlanishning videointerfeysi avtomatik faollashadi.

- Orqaga yurish bilan harakatlanish vaqtida multimedia tizimini tovush balandligi darajasini o'zgartirish imkoni yo'q.
- Rul chambaragidagi tugmalar va panellar ishlamaydi. Faqat chaqiruvga javob/chaqiruvni yakunlash tugmasi faol bo'ladi.
- Agar orqaga uzatma o'chirilgan bo'lsa, muvofiq radar holatida to'siq aniqlanishida ogohlantirish aks ettiriladi. Ogohlantirishni o'chirish uchun, "X"ni bosing.

#### Izoh

Avtomobil 4ta radarlar (hammasi orqada) yoki 6ta radarlar (2ta oldinda va 4ta orqada) bilan jihozlangan bo'lishi mumkin.

### Orqaga yurish bilan harakatlanishda yordamning panorama tizimi



Ba'zi modellar orqaga yurish bilan harakatlanishda yordamning panoram videotizimi bilan jihozlanadi.

- Orqa uzatma yoqilishida multimedia ko'ngilochar tizimi displeyida orqaga yurish

bilan harakatlanishning panorama videointerfeysi avtomatik faollashadi.

- Bosh interfeysda "360"ni bosib (tezlik <15 km/soat), orqaga yurish bilan harakatlanishning panorama videointerfeysini faollashtirish mumkin.
- Agar orqaga uzatma o'chirilgan bo'lsa, orqa radarlar (bitta chapda, bitta o'ngda va ikkita o'rtada) ta'siri zonasida to'siqlar aniqlanishida orqaga yurish bilan harakatlanishning panorama videointerfeysi faollashtiriladi.
- Orqaga yurish bilan harakatlanishning panorama tizimi faollashtirilgan bo'lsa, multimedia tizimining tovush balandligini darajasini o'zgartirish imkoni yo'q. Rul chamberagidagi tugmalar va panellar ishlamaydi. Faqat chaqiruvga javob/chaqiruvni yakunlash tugmasi faol bo'ladi.
- Foydalanuvchi oldindan ko'rinish yoki orqadan ko'rinishni tanlashi mumkin.

### Rul chamberagidagi boshqaruv organlar



☰ : Avtomobil mobil telefonga ulangan vaqtda, ovozli aloqa interfeysini ochish uchun ushbu tugmani bosib va qo'yib yuboring, yoki Carplay nutqni aniqlash interfeysini ochish uchun uni bosib va ushlab turing (Android Autoda "tugmani bosish va ushlab turish" operatsiyasi uchun funktsiya tayinlanmagan).

**SRC** : Manbani almashtirish uchun bosib. "Tugmani bosish va ushlab turish" operatsiyasi uchun funktsiya tayinlanmagan.

△ : Oldingi qo'shiqqa (USB/BT/Carplay/Android Auto) qaytish yoki chastotani pasaytirish (FM/AM) yo'nalishidagi radiostansiyalarni qidirish uchun "yuqori"ga bosib. Joriy qo'shiqni orqaga o'tkazish uchun

bosib va ushlab turing (USB/BT/Carplay/Android Auto). Chastotani uzluksiz pasaytirish (FM/AM); tugma qo'yib yuborilgandan so'ng, stansiya erishilgan chastotada ijro etishni boshlaydi.

▽ : Keyingi qo'shiqqa (USB/BT/Carplay/Android Auto) o'tish yoki radiostansiyalarni yuqoriga qarab qidirish (FM/AM) uchun "past"ga bosib. Joriy qo'shiqni oldinga siljitish uchun bosib va ushlab turing (USB/BT/Carplay/Android Auto). Chastotani uzluksiz oshirish (FM/AM); tugma qo'yib yuborilgandan so'ng, stansiya erishilgan chastotada ijro etishni boshlaydi.

□+ : Ovoz balandligini oshirish uchun tugmani bosib. Agar tugmani bosib ushlab tursangiz, ovoz balandligi asta-sekin maksimal darajaga ko'tariladi.

□- : Ovoz balandligini pasaytirish uchun tugmani bosib. Agar tugmani bosib ushlab tursangiz, ovoz balandligi asta-sekin minimal darajaga tushadi.

☎ : Ulangan telefonda qo'ng'iroqni qabul qilish uchun bosib (BT/Carplay/Android Auto). Agar telefon ulanmagan bo'lsa, Bluetooth sozlamalari sahifasiga o'tish uchun tugmani bosib.

📶/📶 : Ulangan qurilmada (BT/CarPlay/Android Auto) qo'ng'iroqni rad etish yoki tugatish uchun bosib. Agar qurilma


ulanmagan bo'lsa, multimedia tizimining ovozini o'chirish uchun tugmani bosing. Ovozni yoqish uchun tugmani yana bosing.

### Tizimning qo'llanilishi





1. Asosiy sahifada musiqa tizimi, konditsioner va radio funksiyalariga kirish uchun belgi ko'rsatilgan.


2. Belgilar ikki sahifaga yoyilgan. Boshqa sahifaga o'tish uchun ekranda o'ngga yoki chapga suring. Birinchi sahifada Telefon, CarPlay va Android Auto belgilari, ikkinchi sahifada konditsioner, foydalanuvchi qo'llanmasi va sozlamalar mavjud.


3. Agar mobil telefon ulangan bo'lsa, holat panelining pastki chap burchagida ovozli belgi ko'rsatiladi. Mobil telefon nutqini aniqlash interfeysini ochish uchun  tugmasini bosing. Agar telefon ulanmagan bo'lsa, ovozli belgi ko'rsatilmaydi.


4. Konditsionerni boshqarish interfeysini ochish uchun holat panelidagi  tugmasini bosing.

5. Konditsionerni boshqarish interfeysini ochish uchun holat panelidagi  tugmasini bosing.


6. Konditsionerni o'chirish uchun holat panelidagi  tugmasini bosing.

7. Konditsionerni boshqarish interfeysini ochish uchun holat panelidagi  tugmasini bosing.

8. Konditsionerni boshqarish interfeysini ochish uchun holat panelidagi  tugmasini bosing.






9. Panoramali teskari interfeysni ochish uchun holat panelidagi  tugmasini bosing.


### Mexanik konditsioner




Ba'zi modellar mexanik konditsioner bilan jihozlanadi.







- Konditsionerni boshqarish interfeysini ochish uchun, yorliqlarning tepa satrida  bosib.
- Konditsionerni o'chirish uchun, "AS" bosib.
- Sovutishni to'liq quvvatga yoqish uchun, "AS MAX" bosib.
- Haroratni sozlash uchun   bosib yoki oq emaklagichni siljiting. Jami haroratning 8 darajasi ko'zda tutilgan: L8 - eng baland, L1 esa - eng past harorat.
- Havo hajmini sozlash uchun   tugmasini bosib yoki oq emaklagichni siljiting.
- Konditsionerlashning quyidagi tartiblari qo'llab turiladi: "Bosh va oyoqlar", "Faqat bosh", "Faqat oyoqlar", "Oynani muzdan tushirish bilan oyoqlar", "Old oynani muzdan tushirish" va "Orqa oynani muzdan tushirish". Tartibni faollashtirish uchun, uning nishonchasini bosib.
- Havo aylanish tizimiga tashqi havo oqimini yoqish yoki o'chirish mumkin. Havo aylanish tartibini almashtirish uchun, muvofiq nishonchasini bosib.
- OFF: konditsionerni o'chirish.
- ON: Konditsionerni yoqib.



Ba'zi modellar avtomatik konditsioner bilan jihozlanadi.

- Konditsionerni boshqarish interfeysini ochish uchun yorliqlarning tepa satrida  bosib.
- Konditsionerni o'chirish uchun, "AS" bosib.
- Sovutishni to'liq quvvatga yoqish uchun, "AS MAX" bosib.

- Haroratni avtomatik boshqarilishini yoqish uchun, "AUTO" bosib. Agar AUTO tartibida biron tugma bosiladigan bo'lsa (havo hajmi, tartib, tashqi havoning oqimi va hokazo), AUTO tartibi o'chiriladi.
- Haroratni sozlash uchun   bosib yoki oq emaklagichni siljiting. Agar harorat oshirib boriladigan bo'lsa, har bir bosishda avtomatik konditsionerning sozlamasi toki 32°S qiymat erishilmagunicha 0,5°Sga ortib boradi. 32°Sdan yuqori "HI" yozuv aks ettiriladi. Agar harorat pasaytirib boriladigan bo'lsa, har bir bosishda avtomatik konditsionerning sozlamasi toki 18°S qiymatga erishilmagunicha 0,5°Sga pasayib boradi. 18°Sdan past "LO" yozuvi aks ettiriladi.
- Havo hajmini sozlash uchun   tugmasini bosib yoki oq emaklagichni siljiting.
- Konditsionerlashning quyidagi tartiblari qo'llab turiladi: "Bosh va oyoqlar", "Faqat bosh", "Faqat oyoqlar", "Oynani muzdan tushirish bilan oyoqlar", "Old oynani muzdan tushirish" va "Orqa oynani muzdan tushirish". Tartibni faollashtirish uchun, uning nishonchasini bosib.
- Havo aylanish tizimiga tashqi havo oqimini yoqish yoki o'chirish mumkin. Havo aylanish tartibini almashtirish uchun, muvofiq nishonchasini bosib.
- OFF: konditsionerni o'chirish.
- ON: Konditsionerni yoqib.

## RADIOPRIYOMNIK



Radiopriyomnik interfeysiga kirish uchun, bosh menyuda "Radio" nishonchasini bosib. "Radio" menyusida "Oraliq", "Izlash", "Stansiya", "Tanlangan" va "Tovush" operatsiyalari erishimlidir.

📶 Radiopriyomnik interfeysini ochish uchun bosib.

AM yoki FM oraliqlarni tanlash mumkin.

🔍 Ushbu tugmani bosgandan so'ng, qidiruv boshlanadi va Search channels, please wait (Kanallarni qidirish amalga oshirilmoqda. Kuting) xabari aks ettiriladi. Qidiruv vaqtida tizim ovozi o'chadi.

+ : Ancha yuqori chastotali kanal yoki stansiya o'tish uchun bosib. FM-oraliq uchun o'tish 100 kGs qadam bilan, AM-oraliq uchun esa - 9 kGs qadam bilan amalga oshiriladi.

- : Ancha past chastotali kanal yoki stansiya o'tish uchun bosib. FM-oraliq uchun o'tish 100 kGs qadam bilan, AM-oraliq uchun esa - 9 kGs qadam bilan amalga oshiriladi.

## Izoh

FM/AM-oraliqlar uchun o'tish qadamining o'lchami avtomobil modeliga bog'liq bo'ladi.

⏮ : Ancha yuqori chastotali stansiya izlashni boshlash uchun bosib.

⏪ : Ancha past chastotali stansiya izlashni boshlash uchun bosib.

❤️ : Joriy radiostansiya "Tanlanganlar" ro'yxatiga qo'shish uchun bosib.

< : Radiostansiyalar/ "Tanlanganlar" ro'yxatini chapga aylantirish uchun bosib.

> : Radiostansiyalar/ "Tanlanganlar" ro'yxatini o'ngga aylantirish uchun bosib.

## AUDIOPLEERLAR

## Tovushni Bluetooth orqali ijro qilish





🎵 : Musiqani ijro etish interfeysini ochish uchun bosib.


⏮ : Keyingi kompozitsiyani ijro etishga o'tish uchun bosib.

⏪ : Oldingi kompozitsiyani ijro etishga o'tish uchun bosib.

## TELEFON

: Musiqiy kompozitsiyalar ro'yxatini ochish uchun bosing.

: "Tanlanganlar" ro'yxatiga joriy Kompozitsiyani qo'shish uchun bosing.

: Siklik ijro etishni yoqish yoki o'chirish uchun bosing.

O'zgartirish ketma-ketligi:

"ro'yxatni siklik ijro etish => ixtiyoriy ijro etish => bir kompozitsiyani siklik ijro etish".

**II:** Musiqani ijro etish/pauzani yoqish uchun bosing.


Qo'llab turiluvchi audioformatlar: MP3/AAC/WMA.


**Musiqqa Bluetooth orqali** : Bluetooth musiqiy proigrivatel interfeysini ochish uchun bosing.

### Izoh

Ba'zi audiofayllarning tovushlari har xil dekodearlarni qo'llash sababli ijro etilmaydi.

### Bluetooth kanali




 : Telefonning Bluetooth interfeysini ochish uchun bosing.

**Chaqiruvlar jurnali** : Telefon chaqiruvlari ro'yxatili sahifaga o'tish uchun bosing. Yaqindagi chaqiruvchi takrorlash uchun, ro'yxatdagi muvofiq yozuvni bosing.


**Raqamni terish** : Raqamni terish ekranini ochish uchun bosing. Raqamni tering va "Qo'ng'iroq qilish" tugmasini bosing.

**Kontaktlar** : Kontaktlar ro'yxatli ekranni ochish uchun bosing. Agar kontaktlar sinxronlashtirilmagan bo'lsa, "None" (yo'q) ko'rsatiladi.



Kiruvchi qo'ng'iroq kelib tushishida foydalanuvchi uni qabul qilishi yoki bekor qilishi mumkin.

### Apple Airplay va Android Auto Mobil telefonni ulash



Telefoningiz ekranidagi kontentni avtomobilingiz displeyiga aks ettirish uchun telefoningizni USB kabeli yordamida ma'lumot-ko'ngilochar tizimiga ulang. Shundan so'ng siz ma'lumot-ko'ngilochar tizim orqali ba'zi ilovalarni boshqarishingiz mumkin bo'ladi. CarPlay va Android Auto ilovalari navigatsiya, musiqa tinglash, telefon qo'ng'iroqlari, ovozli boshqaruv va boshqa haydash funksiyalarini ta'minlaydi.

#### Izoh

Ulangan mobil telefon ishlab chiqaruvchisi tomonidan taqdim etilgan asl USB ma'lumot kabelidan foydalanish tavsiya etiladi. Aks holda, ulanish xatosi yoki boshqa g'ayritabiiy hodisalar yuz berishi mumkin.

#### Quyidagi ulanish usullari taqdim etiladi:


1. Original USB kabelidan foydalanib, mobil telefoningizni USB ma'lumot portiga ulang.

#### Apple telefoni

- Axborot-ko'ngilochar tizimiga ulanish uchun Apple mobil telefonini ulaganingizdan so'ng, siz maxfiylik siyosatini qabul qilishingiz kerak.


#### Android telefon

- Axborot-ko'ngilochar tizimiga ulanish uchun Android mobil telefonini ulaganingizdan so'ng, siz maxfiylik siyosatini qabul qilishingiz kerak.



## SOZLAMALAR

2. Mobil telefoningizni ma'lumot-ko'ngilochar tizim bilan ulash uchun Connect (Ulanish) tugmasini bosib. Ulanishni to'xtatib turish uchun Cancel (Bekor) qilish tugmasini bosib.
3. Ulanish tugallangach, Android Auto yoki Carplay belgisi faollashadi.




⚙️ Sozlamalar ekranini ochish uchun bosib. Bluetooth funksiyasini birinchi yoqilishida telefon va avtomobil o'rtasidagi aloqa mavjud bo'lmaydi va telefon uchun Bluetooth bort tizimi bilan juftni yaratish zarur bo'ladi. Agar telefon uchun avtomobil tizimida avval juft yaratib bo'lingan bo'lsa, unga Bluetooth nomini taqdim etishga bosib. Bluetooth ulanishini uzib qo'yib, "O'chirib yuborish" nishonchasi yordamida "Mening qurilmalarim" ro'yxatidan telefonni o'chirib yuborish mumkin.

### Avtomobil sozlamalari



Avtomobil sozlamalari ekranini ochish uchun Vehicle Setting (Avtomobil sozlamalari) nishonchasini bosish. Bu yerda oynalar, yoritish, oynatozalagichlar va eshiklarni qulflanishi parametrlarini sozlash mumkin.


### Vehicle Window (Avtomobil oynalari)



**Remote window lowering (Oynani masofadan pastga tushirish):** Agar ushbu funksiya yoqilgan bo'lsa, masofadan turib barcha oynalarni tushirish mumkin. Buning uchun masofa kalitida blokdan chiqarish tugmasini bosish va ushlab turish zarur bo'ladi.

**Automatic sunroof closing upon vehicle locking (Avtomobilni qulflashdan keyin shaffof lyukni avtomatik yopish) (faqat kengaytirilgan jamlanmada):** Avtomobil qulflangandan so'ng, masofadan boshqarish kalitidagi eshikni qulflash tugmachasini bosib ushlab turish orqali shaffof lyukni masofadan turib yopish mumkin.


### Eshiklarni qulflash



**Automatic door locking (with speed sensors) Eshik qulflarini avtomatik qulflash (tezlik datchiklari bilan):** Funksiya yoqilishidan keyin eshiklarning qulflari avtomobilning harakat tezligi 10 km/soatdan oshib ketishi vaqtida avtomatik qulflanadi.

**Vehicle locking prompt (Avtomobilni qulflashga reaksiya) :** Tovushli signal bilan miltillashni yoki faqat miltillashni tanlash mumkin.

### Vehicle Lights (Avtomobil yoritilishi)




**Lane change flashing (Harakat chizig'ini o'zgartirishda miltillash):** Agar funksiya yoqilgan bo'lsa, harakat chizig'ini o'zgartirish indikatorini harakat chizig'ini o'zgartirish o'zgartirgichini o'chirishdan keyin uch marta miltillaydi. Agar funksiya o'chiq bo'lsa, harakat chizig'ini o'zgartirish indikatorini faqat bir marta miltillaydi.

**Interior lighting extending time (Salonni yoritish davomiyligi):** Avtomobil o'chirilishidan keyin salon yoritib turiladigan vaqt davri. Salonni yoritish o'chirgichi yoqilgan vaqtdagi vaqt hisobga olinmaydi (yoritish o'chmaydi). Agar hisoblash jarayonida avtomobil holati o'zgaragan bo'lsa (kalit tiqilgan, eshik ochilgan/yopilgan, qulflar blokdan chiqarilgan va hokazo), hisoblash qayta boshlanadi. 10, 20 yoki 30 minut qiymatlarini tanlash mumkin. Dastlabki bo'yicha 10 minut sozlangan.

**Time setting for Walk Me Note (Kuzatib boruvchi yoritishning davomiyligi):** Agar 30 sekund qiymat tanlangan bo'lsa, avtomobilni qulflashdan keyin faralar yana 30 sekund yorishib turadi, so'ngra esa avtomatik o'chadi. Shuningdek, 50 yoki 75 sekundni tanlash mumkin. Harakat prinsipi: Avtomobilni tark etib, foydalanuvchi ikki marta ketma-ket faralarni yoqadi, eshiklarni yopadi va qulflaydi. Foydalanuvchi avtomobilni tark etishidan keyin, faralar yana 30, 50 yoki 75 sekund yorishib turishda davom etadi (eshiklarni qulflash paytidan boshlab).


**Find My Vehicle (Avtomobilni topish) :** - Faqat miltillashni yoki tovushli signal bilan miltillashni tanlash mumkin. Miltillash: Foydalanuvchi bloklash tugmasini ikki marta bosadi, signal lampasi 20 sekund davomida miltillaydi. Tovushli signal bilan miltillash: Signal lampa 20 sekund davomida miltillaydi va uchta tovushli signal jaranglaydi.

### Oynatozalagichlarni ta'mirlash



1. Agar ushbu funktsiya yoqilgan bo'lsa, old oyna tozalagich old oynaning o'rtasiga o'tadi.
2. Agar bu funktsiya o'chirilgan bo'lsa, old oyna tozalagich asl holatida qoladi.

### Ovoz balandligini sozlash




Ovoz balandligini sozlash ekranini ochish uchun Volume (Ovoz balandligi) nishonchasini bosing.

Multimedia tizimi va telefon uchun ovoz balandligini alohida sozlash mumkin.

Agar CarPlay tizimiga ulanish o'rnatilgan bo'lsa, CarPlay navigatsiya tizimi va Siri uchun ovoz balandligini sozlash mumkin.

Agar Android Auto tizimiga ulanish o'rnatilgan bo'lsa, Android Auto TTS interfeysi uchun ovoz balandligini sozlash mumkin.

### Displey




Displey yorug'ligini tartibini tanlash mumkin: Day (Kun), Night (Tun) yoki Auto (Avto).

Day (kunduzgi) va Night (tun) rejimlarida yorqinlikni o'zingiz xohlagan qo'lda sozlashingiz mumkin. Yorqinlik darajasini bir zumda o'zgartirish uchun chiziqdagi kerakli joyga bosing yoki emaklagichni siljiting. Sozlash diapazoni 1 dan 10 gacha.

Agar avtomatik tartib tanlangan bo'lsa, yoritish darajasini sozlash imkoni yo'q.


Displey yorug'ligi va tugmalar yoritish yorug'ligi faralarning signali bo'yicha sozlanadi.

### Til






Tilni tanlash ekranini ochish uchun Language (Til) nishonchasini bosib. Siz ingliz yoki ispan tilini tanlashingiz mumkin.



1. Vaqtini sozlash ekranini ochish uchun Time (Vaqt) nishonchasini bosib.
2. Vaqtini sozlash ekranini ochish uchun Set Time (Vaqtini sozlash)ni bosib.
3. Emaklagichlar yordamida vaqtini sozlang, "yarim kungacha" yoki "yarim kundan keyin" va hokazolarni tanlang.
4. Sozlamalarni tasdiqlash uchun "OK" tugmasini bosib, yoki Cancel (Bekor qilish)ni bosib.

### Ovozli effektlarni sozlash



Ovozli effektlarni sozlash ekranini ochish uchun Sound Effect (ovozli effektlar) tugmasini bosib. Ushbu ekranda Advanced Sound Effect (Kengaytirilgan ovozli effekt), Ordinary Sound Effect (Standart ovozli effekt), Equal Loudness

(Bir xil ovoz balandligi) va Balance (Balans) parametrlarini sozlash mumkin.

- Agar kengaytirilgan ovozli effekt yoqilgan bo'lsa, ovozli maydon haydovchi o'rindig'iga joylashadi va uskunalar paneli ustida fokuslanadi, uning kengligi esa avtomobil kengligidan oshib ketadi. Bu yaxshi muvozanatlangan ovozni va har xil musiqiy instrumentlarning darajalarini izchilligini ta'minlaydi.
- Agar kengaytirilgan ovozli effekt o'chirilgan bo'lsa, standart ovozli effektlardan birini (maxsus, klassik, standart, stildagi, djaz yoki rok) tanlash mumkin.
- Agar Equal Loudness (Bir xil ovoz balandligi) funksiya yoqilgan bo'lsa, ancha yoqimli tovushni yaratish uchun alohida oraliqlarning kuchaytirilishi sodir bo'ladi.
- Agar Balance (Balans) tugmasiga bosilsa, ovoz maydoni oldinda chapda, oldinda o'ngda, orqada chapda va orqada o'ngda joylashgan bo'ladi. Agar Reset (Bekor qilish) tugmasi bosilsa, ovoz maydoni markaziy nuqtaga qaytadi.

### Zavod sozlamalarini tiklash




**Zavod sozlamalarini tiklash:** Multimedia tizimining barcha parametrlari va funksiyalari uchun zavod qiymatlarini tiklanadi.

**Zavod sozlamalarini tiklash uchun shartlar:**  
1. Avtomobil quvvati yoqilgan bo'lishi kerak (ON).

2. Avtomobil bir joyda turishi kerak.  
Zavod sozlamalarini tiklashdan keyin multimedia ko'ngilochar tizimi avtomatik qayta ishga tushiriladi.

### Tizim haqida



About Wuling (Wuling haqida ma'lumot) ekranini ochish uchun About (Tizim haqida)ni bosing. Bu yerda tizim versiyasi, kristalldagi tizim versiyasi, boshqaruvning mikroprotsessor bloki, apparat ta'minot versiyasi, displey versiyasi va seriya raqami aks ettiriladi.

# 7

## IQLIM-NAZORATNI BOSHQARISH ORGANLARI

---


- IQLIM-NAZORAT TIZIMLARI ..... 7-2

- VENTILYATSION PANJARALAR ..... 7-5

## IQLIM-NAZORAT TIZIMLARI


## Elektron boshqaruvli konditsioner

## Konditsionerni boshqarish paneli




1. Konditsioner tugmasi (A/S)
2. AS MAX tugmasi
3. Haroratni sozlash
4. Ventilatorni boshqarish
5. Havoni oynaga uzatilishi
6. Havoning ikki bosqichli uzatish
7. Havoning boshga uzatilishi
8. Havo aylanishi tartibi
9. Havoning oyoqlarga uzatilishi
10. Konditsioner o'chirgichi
11. Orqa oyna isitgichi
12. Havoning oyoqlarga oynaga uzatilishi

## Haroratni sozlash



1. Haroratni ko'tarish tugmasi
  2. Harorat sozlagichi
  3. Haroratni pasaytirish tugmasi
- Havoni sozlash tugmasi ventilyatsion tirqishlardan uzatilayotgan havoning haroratini boshqarish uchun qo'llaniladi. Konditsioner yoqilgan holatda bo'lganida, haroratni harorat sozlagichi (2) yordamida oshirish yoki pasaytirish tomonga sozlash mumkin. Agar sozlagich eng yuqori (eng past) harorat sektoriga o'rnatib bo'lingan bo'lsa, u holda haroratni oshirishga (pasaytirishga) urinishda harorat sozlanishi eng yuqori (eng past) sektorda qoladi.

## Uzatiluvchi havo hajmini sozlash



1. Havo hajmini oshirish tugmasi
  2. Havoning joriy uzatiluvchi hajmi indikator
  3. Havo hajmini kamaytirish tugmasi
- Havo chiqarish tirqishlari orqali uzatiluvchi havoning hajmi ventilatorni boshqarish tugmasi yordamida sozlanishi mumkin. (1) tugmaga bir marta bosib, uzatiluvchi havo hajmi indikator bir sektorga ko'tariladi; sozlagichda ko'pi bilan oltita sektor; (3) tugmaga bir marta bosib, uzatiluvchi havo hajmi indikator bir sektorga pasayadi, sektorlarning eng kam soni - bir.

Konditsioner o'chirgichi

**OFF**

Konditsionerni yoqadi va o'chiradi.


Konditsioner tugmasi (A/C)

**A/C**

Konditsionerni yoqadi va o'chiradi.


1. Dvigatelni ishga tushiring.
  2. Konditsioner tugmasini (A/S) bosing. Konditsioner ishlayotganiga ko'rsatuvchi tugma indikator yonadi.
  3. Ventilator aylanishining tezligini sozlang.
- Konditsionerni o'chirish uchun: Konditsioner tugmasiga (A/S) yana bir marta bosing. Konditsioner bilan havoning sovutilishi to'xtatilganligiga ko'rsatib, tugma indikator o'chadi. Agar konditsioner dvigatelning oxirgi o'chirilishida yoqilgan holatda qolgan bo'lsa, u holda avtomobilni keyingi yoqilishida konditsioner tizimi avtomatik yoqiladi.

Boshga havoning uzatilishi ↻




Ushbu rejimda havo markaziy havo chiqarish tirqishlari, yon tomon havo chiqarish tirqishlari va konsoldagi havo chiqarish tirqish orqali uzatiladi.

Havoning ikki pog'onali uzatilishi ↻




Ushbu rejimda havo ikki yo'nalishda uzatiladi. Havoning yarmi polning havo chiqaruvchi tirqishlari va oldingi o'rindiqlar zonasidagi havo chiqarish tirqishlari orqali uzatiladi; havoning qolgan qismi markaziy havo chiqarish tirqishlari, yon tomon havo chiqarish tirqishlari va konsolning havo chiqarish tirqishi orqali uzatiladi.

### Havoning oyoqlarga uzatilishi 🌀



Havoning katta qismi polning havoni chiqarish tirqishlari va oldingi o'rindiqlar zonasidagi pastki havoni chiqarish tirqishlari orqali uzatiladi; havoning kam qismi old oyna isitgichining va old eshiklarning oynalarining havoni chiqarish tirqishlari orqali, hamda yon tomon havoni chiqarish tirqishlari orqali uzatiladi.

### Havoning oyoqlarga/oynalarga uzatilishi 🌀



Ushbu rejimda havoni old oynaning isitgichini havoni chiqarish tirqishi, oldingi eshiklarni oynalarini isitgichining havoni chiqarish tirqishlari, polning havoni chiqarish tirqishlari, oldingi o'rindiqlar zonasidagi pastki havoni chiqarish tirqishlari, hamda yon tomon havoni chiqarish tirqishlari orqali uzatiladi.

### Tezkor muzdan tushirish va terchillashni bartaraf qilish

Sovuq ob-havoda qo'llash:

- Konditsioner o'chirgichi: YOQILGAN yoki O'CHIRILGAN
- Tashqi havoni kiritish: yoqilgan
- Havoni uzatish tartibi: 🌀
- Harorat o'zgartirgichi: qizil zona (iliq havoni)
- Havoni hajmi o'zgartirgichi: maksimum
- Old oynani tozalash va iliq havoni oyoqlarga qayta yo'naltirish uchun, 🌀 havoni uzatish tartibini (oyoqlarga/muzdan tushirish)ga almashtiring.


### Iliq ob-havoda qo'llash:


- Konditsioner o'chirgichi: YOQILGAN
- Tashqi havoni kiritish: o'chirilgan (qayta aylanish). Terchillashni bartaraf qilishdan so'ng tashqi havoni uzatilishini yoqing.
- Havoni uzatish tartibi: 🌀 yoki 🌀
- Harorat o'zgartirgichi: yo'lovchi uchun qulay sharoitlarni ta'minlovchi zona.
- Havoni hajmi o'zgartirgichi: maksimum

### Ochiq oyna orqali ventilyatsiya.

Agar avtomobil salonida havoni juda nam bo'lsa, ochiq oyna orqali ventilyatsiya namlik darajasini pasaytirishga va oynalarning terchillab qolishini oldini olishga imkon beradi. Agar ob-havo sharoitlari imkon berayotgan bo'lsa (unchalik sovuq emas va yomg'ir yo'q), namlikni kamaytirish uchun oynani 3-5 sm.ga tushiring. Oynalarning terchillab qolishi muzdan tushirish funksiyasi yoqilganidan keyin va iliq havoni

## VENTILYATSION PANJARALAR

qo'llash bilan terchillab qolishni bartaraf qilishdan so'ng darhol kuchaytirilishi mumkin. Haydash xavfsizligi haqida qayg'uring. Shaxsiy xavfsizlik uchun toki tezkor muzdan tushirish funksiyasidan to'g'ri foydalanish va terchillab qolishni bartaraf qilishni o'rganib olmaguningizcha terchillab qolishni bartaraf qilish uchun sovuq havodan foydalaning (konditsioner yoqilgan, havo uzatish tartibi ).



1. Yon tomon havo chiqarish tirqishlari
2. Oldingi eshiklarni oynalarini isitgichining havo chiqarish tirqishlari
3. Markaziy havo chiqarish tirqishlari
4. Old oynaning isitgichini havo chiqarish tirqishi
5. Polning havo chiqarish tirqishlari
6. Old o'rindiqlar zonasidagi pastki havo chiqarish tirqishlari
7. Konsoldagi havo chiqarish tirqishi

#### **Yon tomon havo chiqarish tirqishlari**

Yon tomon havo chiqarish tirqishlarini sozlanuvchi panjaralarini boshqarib, havo oqimini oldingi zonaning ikkala tomoniga yoki yon tomon eshiklarning oynalariga yo'naltirish mumkin.

Havo hajmini sozlash uchun havo chiqarish tirqishning yonida joylashgan sozlagichdan foydalaning.

#### **Oldingi eshiklarni oynalarini isitgichlarining havo chiqarish tirqishlari**

Oldingi eshiklarni oynalarini isitgichlarining havo chiqarish tirqishlari yon tomon eshiklarini oynalariga havoni, asosan, orqani ko'rish tashqi toshoyna zonasiga uzatish uchun qo'llaniladi.

#### **Markaziy havo chiqarish tirqishlari**

Havo oqimining yo'nalishini ikki markaziy havo chiqarish tirqishlarning sozlanuvchi panjaralari yordamida boshqaring.

#### **Old oynaning isitgichini havo chiqarish tirqishi**

Old oynaning isitgichini havo chiqarish tirqishi old oynaga havo oqimini uzatish uchun qo'llaniladi.

#### **Polning havo chiqarish tirqishlari**


Polning havo chiqarish tirqishlari avtomobilning old qismida oyoqlar zonasiga havoni uzatish uchun mo'ljallangan.

#### **Old o'rindiqlar zonasidagi pastki havo chiqarish tirqishlari**

Oldingi o'rindiqlar zonasida ikki pastki havo chiqarish tirqishlari orqali havo avtomobilning orqa qismiga oyoqlar zonasiga uzatiladi.

Havo to'sqinliklarsiz orqa bo'linmaga uzatilishi uchun oldingi o'rindiqlar ostidagi zonani to'sib qo'ymang.

#### **Konsoldagi havo chiqarish tirqishi**



Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, havo chiqarish tirqishlari oldingi o'rindiqlarni orasida joylashgan tirsaklagichning orqa tomonida mavjud. Ular orqali havo salonning orqa qismiga uzatilishi mumkin.



# 8

## AVTOMOBILNI HAYDASH VA BOSHQARISH

---

- HAYDOVCHIGA MASLAHATLAR .....8-2
- ISHGA TUSHIRISH VA EKSPLOATATSIYA .....8-5
- AVTOMATIK UZATMALAR QUTISI ..... 8-10
- MEXANIK UZATMALAR QUTISI .....8-14
- TORMOZ TIZIMI .....8-15
- OSMA QATTIQLIGINI SOZLASH TIZIMI ..... 8-22
- KRUIZ-NAZORAT ..... 8-23
- HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI .....8-25
- YONILG'I ..... 8-29

## HAYDOVCHIGA MASLAHATLAR

### **Avtomobilni boshqarish**

Ishlamayotgan dvigatelda nishablik ostiga avtomobilning harakatlanishiga yo'l qo'ymang. Ushbu holatda ko'pchilik tizimlar (masalan, tormoz kuchaytirgichi) faoliyat yuritmaydi. Bunday harakatlanishda siz atrofdagilarni va avtomobilda bo'lganlarning barchasini xavf-xatarga qo'yasiz.

### **Tepkilar**

Tepkilarni to'sqinliksiz yurishini ta'minlash uchun, tepkilar zonasida begona buyumlar bo'lmasligi, va gilamcha ingichka bo'lishi kerak.

### **Rul boshqaruvi**

#### **Rul elektr kuchaytirgichi tizimi (EPS) Rul gidrokuchaytirgichining ogohlantiruvchi indikator**

EPS tizimi avtomobilni rul boshqaruvini yangillash tiradi. Tizim ishlaydi uchun rul boshqaruvining kuchaytirgichini ishchi suyuqligi talab etilmaydi.

O't oldirish yoqilishida EPSning MIL (nosozlik indikator) yonadi. Agar EPSning nosozlik indikator o'chmayotgan yoki avtomobil harakatlanishi vaqtida yonayotgan bo'lsa, demak EPS tizimida muammo mavjud.

Texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling

Agar EPS tizimi yuqori yuklanganlikning ekstremal sharoitlarida uzoq vaqt davomida ishlayotgan bo'lsa (masalan, rul chambaragi tiralguncha burilgan va uzoq vaqt ushbu holatda qolmoqda, yoki avtomobil kichik tezlikda ko'p marta katta burchak ostida garajga kirib bormoqda), u holda elektr komponentlarning kuchli qizishi sababli issiqlik ortiqcha yuklanganligidan himoya funksiyasi ishlab ketishi mumkin.

Issiqlik yuklanganligidan himoyalash holatiga o'tishdan keyin tizim kuchaytirgich ta'sirini cheklaydi, va shu vaqtda rul bilan boshqarish uchun ahamiyatli kuch talab etiladi. Kuchaytirgichning me'yordagi ishlashi tiklangandan keyin rulni kichik burchakka burang yoki avtomobilning tezligini oshiring. Zarurat tug'ilganida dvigatelni o'chiring va qayta yoqing.

EPS tizimi avtomobilning tezligiga bog'liq holda kuchaytirgichning ta'sirini tartiblashtiradi. Natijada rul chambaragini harakatlanishning past tezligida oson burish mumkin, ammo u yuqori tezlikda nisbatan barqarordir.

### **Rul kolonkasining elektron boshqariluvchi qulfi**

Rul kolonkasining elektron boshqariluvchi qulfi rul kolonkasini bloklash uchun qo'llanilayotganligi sababli, DVIGATELNI STOP-START funksiyasiga ega bo'lgan avtomobil bir vaqtda rul kolonkasining elektron boshqariluvchi qulfi bilan jihozlanadi. Bloklash qurilmasini yoqish yoki o'chirishda ishlash tovushi eshitiladi.

Agar rul chambaragini bloklash talab etilsa, bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga rioya etilishi kerak:

- Avtomobil harakatsiz.
- O't oldirish o'chirgichi LOCK (BLOKIROVKA) holatiga o'rnatilgan.

Agar yuqorida ko'rsatilgan shartlarga amal qilingan bo'lsa, quyidagi harakatlardan biri sodir bo'lishi bilanoq, rul chambaragi darhol bloklanadi:

- Chap oldingi eshikni ochish yoki yopish.
- Masofadan bloklash.
- 24 sekund o'tib bo'ldi.

Agar rul chambaragini bloklash talab etilayotgan bo'lsa, dvigatelni amaldagi kalit bilan yoqing va DVIGATELNI STOP-START o'chirgichini bosing. Agar rul to'g'ri oldinga harakatlanish holatiga joylashmagan vaqtda rul kolonkasi qulfini blokdan chiqarish imkon bo'lmasa, uskunalar majmuasiga "Failure in locking of electronic steering lock" ("Elektron

boshqariluvchi rul kolonka qulfini bloklash nosozligi") xabari chiqariladi va ovoqli signal uzatiladi.

Rul chambaragini holatini to'g'irlang, o't oldirish o'chirgichini ON (YOQILGAN) holatga burang, so'ngra LOCK (BLOKIROVKA) holatiga o'tkazing. Agar rul kolonkasini bloklash imkoni bo'lmagan bo'lsa, avtomobilni tekshiring.

### **Yo'lsizlik bo'yab haydash**

Agar avtomobil qorda, loyda yoki turg'un bo'lmagan tuproqda tiqilib qolgan bo'lsa:

1. Rul chambaragini tiralgunicha chapga, so'ngra tiralgunicha chapga burang. Bu oldingi g'ildiraklar atrofida bo'sh zonani yaratishga imkon beradi.
  2. Orqaga yurish va oldinga harakat uzatmalarini galma-galdan yoqing va orqaga va oldinga harakatlaning.
  3. G'ildiraklarning shataksirashini iloji boricha qisqartiring.
  4. Uzatma yoqilishida akselerator tepkisini qo'yib yuboring.
  5. Uzatma yoqilishidan keyin akselerator tepkisiga ohista bosing.
- Agar tiqilib qolgan avtomobilni chiqarib olish imkoni bo'lmayotgan bo'lsa, shataklash talab etiladi.
- Agar avtomobil qorda, loyda yoki qum tuproqda tiqilib qolgan bo'lsa, avtomobilni iloji boricha tezroq chiqarib oling.

Avvalambor, avtomobil atrofida to'siqlar yoki odamlarning mavjud emasligiga ishonch hosil qiling.

Chiqarib olish jarayonida avtomobil oldinga yoki orqaga to'satdan siljib ketishi va yonida joylashgan odamlarni yoki buyumlarni bosib ketishi mumkin.

Avtomobilni chiqarib olishda uzatmalar qutisini va boshqa detallarni shikastlanishidan saqlanish maqsadida quyidagi ehtiyotkorlik choralariga rioya qilish zarur:

- Uzatmalarni o'zgartirayotgan vaqtda, yoki agar uzatmalar qutisida talab etiluvchi uzatma o'rnatilmagan bo'lsa, akselerator tepkisiga bosmang.
- Dvigatelni yuqori aylanishlarini qo'llash kerak emas, hamda g'ildiraklarning shataksirashidan saqlanish lozim.
- Agar bir necha urinishlar natijasida avtomobilni chiqarib olishga erishilmagan bo'lsin, boshqa uslublardan, masalan, shataklashdan foydalaning.

### **Favqulodda holatlar**

Starterning ishlash vaqti 10 sekunddan oshmasligi kerak. Starterning ancha uzoq ishlashida uning shikastlanishi yoki akkumulator batareyasining quvvatsizlanishi sodir bo'lishi mumkin.

### **Avtomobil harakatlanishi vaqtida bitta shinaning teshilishi**

Avtomobil harakatlanishi vaqtida bitta shinaning teshilishi holatida harakat yo'nalishini

boshqarish uchun rul chambaragini mahkam ushlang, tezlikni asta-sekin pasaytiring, avariya signalizatsiyasini yoqing, va tormoz tepkisiga ohista bosib, avtomobilni xavfsiz joyda to'xtating.

Agar bitta shina teshilgan bo'lsa, keskin tormozlanmang. Keskin tormozlanishda avtomobil bir tomonga og'adi, bu avariya olib kelishi mumkin.

### **Avtomobil harakatlanishi vaqtida nosozlikning yuzaga kelishi**

Agar avtomobil harakatlanishi vaqtida nosozlik ro'y bergan bo'lsa, avariya signalizatsiyasini yoqing, tezlikni asta-sekin pasaytiring va avtomobilni qatnov qismning chetiga xavfsiz joyda to'xtating.

Sutkaning yorug' vaqtida avtomobil orqasida 50 m uzoqlikda va sutkaning qorong'u vaqtida avtomobil orqasida 100 m uzoqlikda avariya to'xtash belgisini o'rnatib. Yo'l harakati normalariga va qoidalariga rioya qiling. Tekshirish va ta'mirlash uchun dilerga murojaat qiling.

Avariya to'xtash belgisi yuk bo'linmasida saqlanishi kerak.

### **Agar dvigatel ishlamayotgan bo'lsa**

Agar o't oldirish o'chirgichi START (ISHGA TUSHIRISH) holatiga o'rnatilgan bo'lsa, starter esa ishlamayotgan bo'lsa, akkumulator batareyasining quvvatini, akkumulator batareyasining to'g'ri ulanishini va muvofiq saqlagichlarning soz holatini tekshiring.

Agar starter ishlayotgan, dvigatel esa ishga tushirilmayotgan bo'lsa, yonilg'i sathini, yonilg'i filtrinini, yonilg'i nasosini, muvofiq elektr simlarini va boshqalarni tekshiring. Yonilg'i nasosi holatini yoqishda o't oldirish o'chirgichi tomonidan uzatiladigan ovozlarning bo'yicha oldindan baholash mumkin.

#### **Dvigatel haddan tashqari qizib ketishida amalga oshiriluvchi harakatlar**

Agar avtomobil ishlayotgan vaqtda dvigatelning chiquvchi quvvati to'satdan pasayib ketgan, yoki uskunalarning majmuasida haddan tashqari yuqori harorat signalizatori yongan bo'lsa, avtomobilni xavfsiz joyda to'xtab turishga joylashtiring va quyidagilarni bajaring:

- Dvigatelni bo'sh aylanishlarda qoldiring va neytral uzatmani yoqing.
- To'xtab turish tormozini tortib qo'ying.
- Konditsionerni o'chiring.
- Dvigatel ventilyatsiyasi uchun kapotni oching.
- Agar bachokdagi sovutuvchi suyuqlikning sathi pasaymagan bo'lsa, dvigatelni sovutish uchun, uni to'xtating.
- Agar sovutuvchi suyuqlikning sathi juda past bo'lsa, bachokni oching, uning ichiga sekin, ozginadan sovutuvchi suyuqlikni quyib, toki bachokdagi sath MAX (maksimum) maksimal sath belgisigacha erishmaguncha.

- Ushbu harakatlarni bajargandan so'ng tekshirish uchun zudlik bilan dilerga murojaat qiling.

#### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Agar dvigateldan bug' yoki sovutuvchi suyuqlik chiqayotgan bo'lsa, dvigatel qopqog'ini ochmang, chunki siz bug'dan yoki sovutuvchi suyuqlikdan kuyishingiz mumkin.

#### **⚠ DIQQAT!**

Haddan tashqari qizib ketgan dvigatelga sovuq suv quyish taqiqlanadi. Bu dvigatelning shikastlanishiga olib keladi. Dvigatelni haddan tashqari qizib ketishi holatida dilerga murojaat qiling.

#### **⚠ OGOHLANTIRISH!**

Issiq sovutuvchi tizimdan sovutuvchi suyuqlik jiddiy jarohatlar yetkazishi mumkin. Sovutuvchi suyuqlikning kengaytiruvchi bachogidan qopqoqni burab ochayotganda - hatto qisman - sovutuvchi suyuqlik chayqalib to'kilishi mumkin. Agar sovutish tizimi, jumladan sovutuvchi suyuqlikning kengaytiruvchi bachogi qopqog'i issiq bo'lsa, ularni burab ochish taqiqlanadi. Sovutish tizimini va sovutuvchi suyuqlikning kengaytiruvchi bachogi qopqog'ini, agar qopqoqni burab bo'shatish umuman zarur bo'lsa, ularning sovishini kuting.

#### **Kuchli qor yog'ishida avtomobilni boshqarish**

- Buriilishda, ko'tarilishda yoki ko'priklar ustidan harakatlanishda avtomobil tezligini pasaytiring.
- Yo'l chetini mustahkamalanmagan qismida to'xtab turishga joylashmang; aks holda sizning avtomobil qorni yig'ishtirishga xalal beradi.
- Boshqa avtomobillardan xavfsiz oraliq masofada harakatlaning; shunda sizga tormozlanishni tez-tez qo'llashga to'g'ri kelmaydi.
- Avtomobil atrofida qor uyumlarini tez-tez yig'ishtiring, tutun chiqarish quvurlarining tiqilib qolishiga yo'l qo'ymang.

## ISHGA TUSHIRISH VA EKSPLUATATSIYA QILISH


### Yangi avtomobilni chiniqtirish

Safar qilishni birinchi 500 km davomida quyida keltirilgan yo'l-yo'riqlarga rioya qiling. Bu avtomobilni tortish-dinamik xarakteristikalarini yaxshilashga, uning tejamkorligini oshirish va xizmat muddatini uzaytirishga imkon yaratadi:

- Akselerator tepkisi to'liq bosilganida dvigatelni ishga tushirishdan saqlaning.
- Uzoq vaqt davomida bo'sh aylanishlarda dvigatelning ishlashiga qo'ymang.
- Keskin tormozlanishdan saqlaning, favqulodda holatlar bundan mustasno.
- Dvigatel shikastlanishidan saqlanish va yonilg'ini tejash maqsadida joydan keskin qo'zg'alishga, tez tezlik olishga va dvigatelning yuqori aylanishlarda uzoq muddatli ishlashiga iloji boricha yo'l qo'ymang.
- Akselerator tepkisini tiralguncha bosish, hamda harakatlanish vaqtida akselerator tepkisiga kuchli bosish hisobiga past uzatmada tezlik olishdan saqlaning.
- Boshqa avtomobillarni shataklamang.

Agar dvigatel o'chiq bo'lsa, radiopriyomnik va faralar kabi shunday vositalarning uzoq vaqtga yoqmag. Avtomobilni tark etayotganda, akkumulator batareyasining quvvatsizlanishidan saqlanish maqsadida avtomobilning elektr asbob-uskunalarini o'chiring. Agar akkumulator batareyasi quvvatsizlashgan bo'lsa, dvigatel ishga tushirilmagligi mumkin.

### O't oldirish qulfidagi kalitning holati (Kalit yordamida kirish)



Rul kolonkasining o'ng tomonidagi o't oldirish o'chirgichida quyidagi ishchi holatlar ko'zda tutilgan:

#### • LOCK (BLOKIROVKA)

Rul chamberagini bloklaydi. Kalitni chiqarib oling va rul chamberagini bloklay holatigacha buring.

Agar rul chamberagini blokdan chiqarishda kalitni burash imkoni bo'lmasa, rul chamberagini ohista o'nga/chapga buring va kalitni burang.

#### • ACC (AKSESSUARLAR)

Rul chamberagini bloklay zaruratisiz o't oldirish kalitini ACC holatga burashda dvigatel o'chirib qo'yilishi mumkin.

O't oldirish kalitini ACC holatdan LOCK holatga burashda kalitga ehtiyotkorlik bilan bosib va uni LOCK holatga burang.

Agar o't oldirish kaliti ACC holatga o'rnatilgan bo'lsa, ba'zi qo'shimcha elektr asbob-uskunalaridan, masalan, radiopriyomnik va chektirgichdan foydalanish mumkin.

#### • ON (YOQILGAN)

O't oldirish tizimi va qo'shimcha elektr asbob-uskunalar yoqiladi.

Agar dvigatel ishlamayotgan bo'lsa, uzoq vaqtga ACC yoki ON holatda kalitni qoldirmang; aks holda akkumulator batareyasining quvvati yetarlicha bo'lmay qoladi.


#### • START (ISHGA TUSHIRISH)

Dvigatelni ishga tushiring. Dvigatel ishga tushirilganidan keyin kalitni qo'yib yuboring; u avtomatik ON holatga qaytadi.

O't oldirish kalitini START holatga burashdan avval dvigatel ishlamayotganligiga ishonch hosil qiling.

**⚠ DIQQAT!**

Harakatlanish vaqtida kalitni sug'urib olish yoki o't oldirish qulfida kalitni burash taqiqlanadi. Aks holda, haydovchi avtomobil boshqaruvini yo'qotadi, tormoz kuchaytirgichi esa tegishli tarzda ishlashni to'xtatadi, bu avtomobil shikastlanishiga va jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin.

**O't oldirish qulfida kalitning holati  
(Kalitsiz kirish)**

Muvofiq jamlanmada DVIGATELNI STOP-START o'chirgichi uskunalar panelining o'ng tomonida pastda joylashgan. DVIGATELNI STOP-START o'chirgichida ishlash indikatorini:  
Sarg'ish chiroq: o't oldirish o'chirgichi ACC yoki ON holatga o'rnatilganligiga ko'rsatadi.  
Yashil chiroq: ishga tushirish shartlariga rioya etilganligiga ko'rsatadi.  
Ishlash indikatorini yashil chiroq bilan yonib turganida, uzatmalar qutisi esa neytral uzatmaga o'rnatilgan bo'lsa, ishga tushirish o'chirgichiga bosib, va dvigatel ishga tushirilgan bo'lishi mumkin.  
Oziqlanishning past quvvatdan yuqori quvvatga o'zgartirilishida tizim haqiqiy kalitni aniqlashi

kerak. Kalitni DVIGATELNI STOP-START o'chirgichi yaqinida salondagi istalgan joyga, masalan, haydovchining cho'ntagiga yoki uskunalar panelidagi buyumlar qutisiga, joylashtiring.

Oziqlanishni pastki quvvatdan yuqori quvvatga navbatma-navbat o'zgartirilishida quyidagi ishchi holatlar mavjuddir:

- LOCK holati

O't oldirish o'chirgichining ushbu holatida avtomobil to'xtab turishga joylashtirish rejimida bo'ladi. DVIGATELNI STOP-START o'chirgichidagi ishlash indikatorini yonmay turibdi, avtomobil oziqlanishi o'chirilgan.

- ACC holati

O't oldirish o'chirgichining LOCK holatida DVIGATELNI STOP-START o'chirgichiga bosib; o't oldirish o'chirgichi ACC holatga o'zgartirilgan bo'lishi mumkin. DVIGATELNI STOP-START o'chirgichidagi ishlash indikatorini sarg'ish chiroq bilan yonadi. Ba'zi qo'shimcha elektr asbob-uskunalarining, masalan, radiopriyomnik va chektirgichning oziqlanishi yoqiladi.

Agar hech qanday tartib-tamoyillar amalga oshirilmayotgan bo'lsa, tizim bir soatdan keyin iste'mol qilinayotgan quvvatni pasaytirish uchun LOCK holatga avtomatik qaytadi.

- ON holati

Ushbu holatda dvigatelni ishga tushirish va avtomobil harakatlanishini boshqarish sodir bo'ladi.

O't oldirish o'chirgichining ACC holatida DVIGATELNI STOP-START o'chirgichiga bir marta bosib; o't oldirish o'chirgichini ON holatga o'zgartirish mumkin. Uskunalar majmuasida indikator va DVIGATELNI STOP-START o'chirgichida sarg'ish indikator yonadi. Agar o't oldirish o'chirgichi ON holatga o'rnatilgan bo'lsa, u holda DVIGATELNI STOP-START o'chirgichiga bir marta bosishda (boshqa harakatlar mavjud bo'lmaganida) o't oldirish o'chirgichi LOCK holatga o'nashadi.

- START holati

O't oldirish o'chirgichi ON holatga o'rnatilganida, uzatmalar qutisida neytral uzatmani yoqing va ssepleniya tepkisini bosib. DVIGATELNI STOP-START o'chirgichidagi indikator yashil chiroq bilan yonadi. DVIGATELNI STOP-START o'chirgichiga bir marta bosib, dvigatel ishga tushiriladi. Dvigatel ishga tushirilishidan keyin o't oldirish o'chirgichi ON holatda qoladi.

- OFF holati

Avtomobil tezligi soatiga 2 km.dan past bo'lgan vaqtda, ishga tushirish o'chirgichiga bir marta bosib.

Besh minutdan ortiq yuqori bo'sh aylanishlarda dvigatelning ishlab turilishini qo'llab turish taqiqlanadi.

Haddan tashqari harorat chiqarish tizimini shikastlanishiga olib keladi.

Agar uzatmalar qutisi neytral uzatmaga o'rnatilmagan bo'lsa, dvigatel ishga tushirilmaydi.

**⚠️ DIQQAT!**

Harakatlanish vaqtida kalitni sug'urib olish yoki o't oldirish qulfida kalitni burash taqiqlanadi. Aks holda, haydovchi avtomobil boshqaruvini yo'qotadi, tormoz kuchaytirgichi esa tegishli tarzda ishlashni to'xtatadi, bu avtomobil shikastlanishiga va jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin.

**Dvigatel starterini himoyalash**

Dvigatel immobilayzer tizimi bilan jihozlangan avtomobil qo'shimcha olib qochishga qarshi vositaga egadir, u dvigatelning har qanday begona shaxs tomonidan ishga tushirilishini oldini oladi.

Dvigatelni immobilayzer tizimining kelishilgan kaliti elektron kodlangan. O't oldirish kalitiga elektron qabul qilgich-uzatgich o'rnatilgan. Dvigatelni ishga tushirish uchun faqat haqiqiy kalitni qo'llang.

Biroq, haqiqiy bo'lmagan kalitni ham eshiklarni ochish uchun qo'llash mumkin. Dvigatel immobilayzeri tizimi elektr oziqlanishni o't oldirish tizimidan, yonilg'i nasosidan va yonilg'i

forsunkalaridan uzadi. START holatga haqiqiy kalitni begona shaxs tomonidan o'rnatishga urinishda dvigatel immobilayzeri tizimi elektron kodni identifikatsiya qilmaydi. Natijada, dvigatel ishga tushmaydi, immobilayzer tizimi indikator esa miltillashni boshlaydi.

Agar mavjud bo'lsa, rul chamberagidagi mexanik qulf olib qolishdan yanada yaxshiroq himoya qiladi.

**Dvigatelni ishga tushirish**

Dvigatelni ishga tushirishdan oldin:

- Avtomobil atrofida to'siqlar mavjud emasligiga ishonch hosil qiling.
- Barcha oynalar va eshiklarning oynalari toza va tiniqligini tekshiring.
- Shinalar holatini, shinalarda tegishli bosimni va shinalarda begona buyumlar yo'qligini tekshiring.
- Bosh tagligining holatini to'g'ri sozlang.
- Salonda va avtomobil tashqarisidagi orqani ko'rish toshoynalarining holatini sozlang.
- Xavfsizlik kamarini taqib oling va hamma yo'lovchilarni xavfsizlik kamarlarini taqib olishlarini so'rang.

- Kalitning ON holatga buralishida uskunalar panelida signalizatorlarning va indikatorlarning ishchi holatini tekshiring.
- Ushbu qo'llanmada sanab o'tilgan xizmat ko'rsatish pozitsiyalarini holatini muntazam (masalan, yonilg'i to'ldirishda) tekshiring.

#### **Dvigatelni ishga tushirish:**

1. To'xtab turish tormozini yoqing.
2. O'rindiqlar va orqani ko'rish toshoynalari tegishli holatda o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Zarurat tug'ilganida ularning holatini sozlang.
3. O't oldirish o'chirgichini ON holatga burang.
4. Uzatmalarni o'zgartirish pishangisi neytral holatga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling, so'ngra ssepleniya tepkisini tiralguncha bosing.
5. Akselerator tepkisiga bosmang, o't oldirish o'chirgichida kalitni ON holatga burang va dvigatel ishga tushganidan keyin ssepleniya (yoki tormoz) tepkisini qo'yib yuboring. Agar jamlanmada DVIGATELNI STOP-START funksiyasi ko'zda tutilgan bo'lsa, dvigatelni ishga tushirish uchun DVIGATELNI STOP-START o'chirgichiga bir marta bosing. Agar dvigatel qisqa vaqtga ishga tushirilayotgan bo'lsa, ammo ishlamayotgan bo'lsa, 10 sekund kuting va yana bir marta urinib ko'ring.

6. Dvigatel qizishi uchun 30 sekunddan ortiq bo'sh aylanishda dvigatelga ishlash imkoniyatini bering.

7. To'xtab turish tormozini o'chiring.

8. Toki dvigatel me'yordagi ishchi haroratgacha qizimaguncha, yuqori tezlikda harakatlanishdan saqlaning.

Turbinalangan dvigatelli avtomobilda harakatlanishni boshlashdan avval, ayniqsa qishki sharoitlarda yoki uzoq muddatli saqlashdan keyin, hamda motor moyini almashtirish yoki dvigatelga texnik xizmat ko'rsatishdan keyin, dvigatelga bo'sh aylanishlarda uch - besh minut ishlash imkoniyatini bering.

- Starterning uzluksiz 10 sekunddan ortiq vaqt ishlashiga yo'l qo'ymang.
- Dvigatelni ishga tushirishdagi qiyinchiliklar ekstremal past haroratlarda yuzaga kelishi mumkin.
- Dvigatelni ishga tushirishdagi qiyinchiliklar dengiz sathidan katta balandlikdagi zonada hosil bo'lishi mumkin.
- Agar dvigatel ishga tushirilmayotgan bo'lsa, 10 sekund kuting, so'ngra esa starterning shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ishga tushirish urinishini takrorlang.

#### **Turbohavo keltirishli dvigatelni o'chirish**

Yuqori aylanishlarda turbohavo keltirishli dvigatelni uzoq vaqt ishlashidan keyin turbohavohaydagichni sovitish uchun unga uch - besh minut yuqori aylanishlarda ishlashga imkon bering, so'ngra esa dvigatelni o'chiring. Aks holda turbohavohaydagich haddan tashqari qizib ketish sababli shikastlanishi mumkin.

Turbohavo keltirgichli dvigatelga 20 minutdan ortiq vaqt bo'sh aylanishlarda ishlashga imkon bermang.

#### **Dvigatelni avtomatik to'xtatish/ishga tushirish tizimi**

##### **Ishga tushirish sharoitlari**

Dvigatelni ishga tushirish uchun quyidagi sharoitlarga rioya etilgan bo'lishi kerak:

1. Kalit avtomobilga joylashtirilgan.
  2. Ssepleniya tepkisi bosilgan.
- Agar yuqorida ko'rsatilgan sharoitlarga rioya etilgan bo'lsa, DVIGATELNI STOP-START tugmasidagi indikator yashil chiroq bilan yonadi. Ushbu holatda, agar uzatmalar qutisi "N" (neytral uzatma) holatga o'rnatilgan bo'lsa, ishga tushirish tugmasini bosing va dvigatel asta-sekin ishga tushiriladi.

Boshqarish bo'yicha boshqa yo'l-yo'riqlar

1. Dvigatelning avariyaviy ishga tushirilishi
- Tormoz yoki ssepleniyaning nosozligi ishga tushirish shartiga rioya qilishga imkon bermaydi, va dvigatel me'yordagi holatda



ishga tushirish imkoni yo'q. O't oldirish o'chirgichini ACC holatga burang, uzatmalar qutisi "N" (neytral uzatma) holatga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling, so'ngra esa 15 sekund davomida DVI GATEL STOP-START tugmasini bosib va ushlab turing.

- Uzatgichning batareyasining quvvatini past darajasi tizim kalitni topaolmasligiga olib keladi, natijada dvi gatel ishga tushirilmaydi. Ushbu holatda ssepleniya tepkisini bosib va bir vaqtning o'zida uzatgichni DVI GATELNI STOP-START tugmasiga emblemali tomonini joylashtiring. DVI GATELNI STOP-START tugmasida indikator yashil chiroq bilan yongan paytda, dvi gatelni ishga tushirish tugmasini bosib. Agar bu ishlamasa, yana bir marta urinib ko'ring. Uzatgichdagi batareykani almashtiring.

## 2. Avariya y o'chirilish

Agar avtomobil harakatlanishi vaqtida dvi gatelning avariya y o'chirilishi talab etilsa, ikki sekund davomida DVI GATELNI STOP-START tugmasini bosilgan holda ushlab turing yoki uch sekund davomida uch marta ketma-ket tugmani bosib.

### XAVF-XATAR!

Avtomobilning harakatlanishi vaqtida DVI GATELNI STOP-START o'chirgichiga bosish taqiqlanadi. Avtomobil dvi gatelini qasddan to'xtatish tormoz tizimini va rul boshqaruvi kuchaytirgichi tizimini ishini vaqtinchalik to'xtatishi mumkin. Haydovchi avtomobil boshqaruvini yo'qotishi mumkin, bu jiddiy shikastlanishlarga olib keladi va halokatli avariya xavfini yuzaga keltiradi.

### To'xtab turishga joylashtirish

- Agar to'xtab turishga joylashtirish uchun to'xtab turish tormozi qo'llanilayotgan bo'lsa, to'xtab turishga joylashtirishdan keyin tugmani qo'yib yuborish kerak. Nishablikda to'xtab turishga joylashtirish holatida bir vaqtda tormoz tepkisini bosib, to'xtab turish tormozini iloji boricha kuchliroq tortib qo'ying.
- Dvi gatelni va o't oldirishni o'chiring. Rul chamberagini bloklash holatigacha buring.
- Avtomobilning ko'tarilishda to'xtab turishga joylashtirilishida oldingi g'ildiraklarni yo'l chetiga qarshi tomonga burib qo'ying.
- Avtomobilni nishablikda to'xtab turishga joylashtirishda oldingi g'ildiraklarni yo'l cheti tomonga qaratib burib qo'ying.

### DIQQAT!

Yonuvchi materiallar avtomobil ostida joylashgan chiqarish tizimining detallari bilan teginishida alanganishi mumkin. Avtomobilni qog'oz, barglar, quruq o't va boshqa alanganuvchi buyumlar ustiga to'xtab turishga joylashtirmang.

## AVTOMATIK UZATMALAR QUTISI

### Avtomatik pog'onasiz transmissiya (CVT)

Sizning avtomobil Avtomatik pog'onasiz transmissiya (CVT) bilan jihozlangan bo'lishi mumkin.

CVT uzatma sonning uzluksiz o'zgarishini ta'minlaydi, bu uzatmalarning cheksiz ko'pchiligi mavjudligini va, natijada, ancha ohista uzatmalarni o'zgartirilishini anglatadi.

Qo'llash bo'yicha yo'l-yo'riqlar:

1. Dvigatelni ishga tushirishdan avval, oldin tormoz tepkisini bosib va uzatmalar qutisini o'zgartirgichi pishangisi "P" (To'xtab turishga joylashtirish) holatga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.

2. Tormoz tepkisini bosib, so'ngra, dvigatel ishga tushirilganidan keyin, uzatmani yoqing.


3. Uzatma yoqilganidan keyin tormoz tepkisini bosishda davom eting, to'xtab turish tormozini qo'yib yuboring va avtomobil joyidan qo'zg'alishida tormoz tepkisini qo'yib yuboring.

4. Silliq yo'l qoplamasida tormoz tepkisini qo'yib yuborishdan keyin avtomobil avtomatik va asta-sekin harakatlanishni boshlaydi, toki akselerator tepkisi bosilmagunicha.

5. Harakatlanish vaqtida neytral uzatmada g'ildirab harakatlanish tavsiya etilmaydi. Bu avariya olib kelishi va uzatmalar qutisining shikastlanishini chaqirishi mumkin.

### Selektor pishangisi


#### Bloklash tugmasi



Uzatmalarni o'zgartirish pishangisida, boshqa uzatmalar yoqilgan vaqtda tasodifan "P" (To'xtab turishga joylashtirish) yoki "R" (Orqaga yurish) uzatmalari yoqilishini oldini olish uchun bloklash tugmasi mavjuddir.

Harakatlanish vaqtida tugmani bosish taqiqlanadi. Ushbu tugmani, faqat avtomobil harakatsiz bo'lganida, va siz "P" yoki "R" uzatmani yoqishni istaganingizda bosib.

### Uzatmalar o'zgartirgichi pishangisini boshqarish



Uzatmalarni o'zgartirishda quyida strelkalar bilan ko'rsatilganidek o'zgartirish pishangisini boshqaring:

⇄ Uzatmalarni erkin o'zgartirish.

➡ Uzatmalarni o'zgartirish uchun bloklash tugmasini bosib va ushlab turing.

⬇ Uzatmalarni o'zgartirish uchun bir vaqtda tormoz tepkisiga bosib, bloklash tugmasini bosib va ushlab turing.

### Uzatmalar

#### **P: To'xtab turishga joylashtirish uzatmasi**

To'xtab turishga joylashtirish uzatmasi yoqilishida uzatmalar qutisi mexanik bloklanadi. Avtomobil harakatsiz bo'lganida va to'xtab turish tormozi tortib qo'yilgan vaqtda, to'xtab turishga joylashtirish uzatmasini (P) yoqing.

#### **Izoh**

Avtomobilni nishablikda to'xtab turishga joylashtirishda avval tormoz tepkisini bosib va to'xtab turish tormozini tortib qo'ying, so'ngra esa avtomobilda to'xtab turishga joylashtirish uzatmasini (P) o'rnating.

#### **R: Orqaga yurish uzatmasi**

Orqaga yurish uzatmasini (R) faqat agar avtomobil harakatsiz bo'lganida va dvigatel bo'sh aylanishlarda ishlayotganida yoqish mumkin.

#### **N: Neytral uzatma**

Neytral uzatmani (N) avtomobil harakatsiz bo'lganida va dvigatel uzoq vaqt davomida bo'sh aylanishlarda ishlayotganida (masalan, svetofor signalini kutishda yoki tirbandlikda) yoqing.

#### **D: Oldinga harakatlanish uzatmasi (me'yordagi rejim)**

Oddiy harakatlanish uchun qo'llang. Uzatmalar qutisi, avtomobil tezligi va akselerator tepkisini holatiga bog'liq holda, eng yaxshi uzatma munosabatni ta'minlovchi uzatmada

avtomatik qoladi. Me'yordagi rejimda uzatma avtomatik tanlanadi.

Me'yordagi rejim yonilg'i sarfi va tortish-dinamik xarakteristikalarni nisbiy balansini ta'minlaydi.

#### **S: Oldinga harakatlanish uzatmasi (sport rejimi)**

Uzatmalarni o'zgartirish pishangisini (D) holatdan (S) holatga o'tkazib. Avtomatik rejimda sport rejimini tanlang, u eng yaxshi tortish-dinamik xarakteristikalarni ta'minlashi mumkin.

#### **M: Qo'lda o'zgartirish rejimi**

Qo'l rejimi (D) holatdan uzatmalarni o'zgartirish pishangisini o'ng holatga (+/-) o'tkazilishida tanlanadi. Qo'lda o'zgartirish rejimida uzatmani oshirish uchun, uzatmalarni o'zgartirish pishangisini bir marta (+) holatga o'tkazib. Agar avtomobil tezligi juda past bo'lsa, tizim uzatmani oshirish buyrug'ini bajarmaydi, va qurilma tovushli signal uzatadi.

Dvigatelning aylanishlari 1600-2000 ay/min.da qo'lda yuqori uzatmaga o'zgartirish tavsiya etiladi.

Uzatmani pasaytirish uchun uzatmalarni o'zgartirish pishangisini (-) holatga o'tkazib. Agar avtomobil tezligi juda yuqori bo'lsa, tizim uzatmani pasaytirish buyrug'ini bajarmaydi, va qurilma tovushli signal uzatadi.

Uzatmalarni o'zgartirish pishangisini (+/-) holatdan (D) holatga o'tkazilishida o'zgartirishning avtomatik rejimi yoqiladi.

Qo'lda o'zgartirish rejimida harakatlanishning 8ta uzatmasi (eng balandi: 8-uzatma) ko'zda tutilgan.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

- P (To'xtab turishga joylashtirish) yoki N (Neytral) holatdan R (Orqaga yurish), D (Oldinga yurish) yoki L (Pastlatilgan uzatma) holatga o'tishda akselerator tepkisini bosish taqiqlanadi. Uzatmani o'zgartirishni yakunlaguncha albatta tormoz tepkisini bosilgan holatda ushlab turing. Ushbu talabga rioya etmaslik avtomobil boshqaruvining yo'qotilishiga va avariya olib kelishi mumkin.
- Sovuq dvigatel yuqori bo'sh aylanishlarda ishlaydi, dvigatel qizdirilmagunicha, oldinga yurish yoki orqaga yurish uzatmasiga o'tishda ehtiyotkorlikka rioya qiling.
- Sirpanchiq yo'llarda ancha past uzatmani keskin yoqmang. Bu avtomobil boshqaruvning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.
- Uzatmalarni o'zgartirish pishangisini avtomobil oldinga harakatlanayotgan vaqtda P (To'xtab turishga joylashtirish) yoki R (Orqaga yurish) holatga, hamda avtomobil orqaga yurish bilan harakatlanayotgan vaqtda R (To'xtab turishga joylashtirish) yoki D (Oldinga yurish) holatga yoqish taqiqlanadi. Bu avariya yoki uzatmalar qutisining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

**⚠ OGOHLANTIRISH!**

- Favqulodda holatlardan tashqari, harakatlanish vaqtida N (Neytral) holatga pishangini o'zgartirmang. Uzatmalar qutisi N (Neytral) holatga joylashtirilganida g'ildirab harakatlanish uzatmalar qutisining jiddiy shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

**Uzatmalar displeyi**

<b>P</b>	<b>R</b>	<b>N</b>	<b>A<sup>D</sup></b>	<b>M<sup>1</sup></b>
Parking	Reverse	Neutral	S: Sport Mode A: Auto Mode D: Drive	M: Manual Mode 1: Gear Position

<b>P</b>	<b>R</b>	<b>N</b>	<b>D</b>	<b>S</b>	<b>M<sup>1</sup></b>
Parking	Reverse	Neutral	D: Drive	S: Sport Mode	M: Manual Mode 1: Gear Position

**II-tur uzatmalar displeyi**

Uzatmalar haqidagi ma'lumotlar uskunalar majmuasidagi displeyga chiqariladi.

**Avtomobilning joydan qo'zg'alishi**

Dvigatel yoqilgan va talab etilgan uzatma yoqilgan vaqtda, avtomobil joyidan qo'zg'aladi va to'xtab turish tormozi tushirilganidan va tormoz tepkisi qo'yib yuborilganidan keyin avtomatik harakatga keladi.

**Ko'tarilishda harakatlanish boshlanishini boshqarish**

Elektr boshqaruvli to'xtab turish tormozi tizimi (EPB) avtomobilning ko'tarilishda qo'zg'alishida yordam beradi. Avtomobilni nishablikda to'xtatayotganda, to'xtab turish tormozini tortib qo'ying va xavfsizlik kamarini taqib oling. Harakatlanishni boshlashga tayyorgarlik ko'rib, tormoz tepkisini bosing va talab etiluvchi uzatmani (D/R) yoqing, tormoz tepkisini qo'yib yuboring va akselerator tepkisini bosing. Shunda EPB tizimi avtomatik faoliyat yuritishni boshlaydi, va avtomobil joyidan ohista qo'zg'aladi. Elektr yuritmalni to'xtab turish tormozi  $\varnothing$ 8-17 ni ko'ring.

**⚠ DIQQAT!**

Ko'tarilishda to'xtashda akselerator tepkisiga bosish bilan avtomobilni ushlab turmang. Ushbu maqsad uchun oyoq tormozini qo'llash kerak.

### **Pastlikka harakatlanish**

Uzoq vaqt davomida tormoz tepkisiga uzluksiz bosishda tormoz tizimining haddan tashqari qizib ketishi yuzaga kelishi mumkin, bu tormozlanish samarasining pasayishiga yoki umuman mavjud bo'lmisligiga olib keladi. Avtomobil uzun nishablik bo'ylab pastga harakatlanayotgan vaqtda, uzatmalarni o'zgartirish pishangisini (+/-) holatdan (D) holatga o'ngga o'tkazing va uni (-) holatga, jumladan ancha past uzatmaga suring. Shunday qilib, avtomobil tezligini pasaytirish va tormoz kuchini kamaytirish uchun dvigatel bilan tormozlanish funksiyasini faollashtirish mumkin.

### **Himoya rejimi**

#### **Uzatmalar qutisini haddan tashqari qizib ketishidan himoyalash**

Agar avtomobil issiq ob-havo sharoitlarida joyidan tez-tez qo'zg'alayotgan, yoki uzatmalar qutisi yuqori yuklamaga uchrayotgan bo'lsa, avtomatik uzatmalar qutisi juda kuchli qizib ketishi mumkin.

Uzatmalar qutisini shikastlanishidan saqlanish maqsadida tizim haddan tashqari qizib ketishdan himoyalash funksiyasini yoqadi. Shu vaqtda avtomobil dvigatelining quvvati cheklanadi. Ravon bir tekis harakatlanish tavsiya etiladi, tajovuzkor haydashdan saqlanish kerak.

Agar uskunalar majmuasidagi ogohlantiruvchi xabar yuqorida keltirilgan tavsiyalarga binoan 20 minut o'tganidan keyin o'zgarmasa yoki g'oyib bo'lmasa, iloji boricha tezroq dilerga murojaat qiling.

Aks holda uzatmalar qutisi jiddiy shikastlanishi mumkin.

### **Avariyaiviy ishlash rejimi**

Uzatmalar qutisi unda ba'zi nosozliklar yuzaga kelishida avariyaiviy ishlash rejimiga o'tadi. Ushbu rejimda uzatmalar qutisi faqat ma'lum uzatma munosabat bilan ishlashi mumkin. Uzatmalarni o'zgartirishda uzatmalar qutisida kuchli zarba his etiladi. Uskunalar majmuasida uzatmalar qutisi nosozligi signalizatori yonadi. Uzatmalar qutisining bunday nosozlik holatida ta'mirlash uchun sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish Markaziga iloji boricha tezroq murojaat qiling.

### **Izoh**


Uskunalar majmuasida uzatmalar qutisi nosozligining miltillovchi indikatorini transmission moyning harorati juda yuqoriligiga (140 Cdan yuqori) yoki juda pastligiga (-30 Cdan past) ko'rsatadi.

Shu vaqtda ravon bir tekis haydash tavsiya etiladi, jadal tezlik olishdan saqlanish kerak.

### **Izoh**

Uskunalar majmuasida uzatmalar qutisi nosozligining doimo yonib turgan indikatorini uzatmalar qutisida funksional nosozlikning mavjudligiga ko'rsatadi. Iloji boricha tezroq dilerga murojaat qiling.

### MEXANIK UZATMALAR QUTISI



Uzatmani o'zgartirish uchun, ilakishishni o'chiring va uzatmalarni o'zgartirish dastagida keltirilgan sxemadan foydalaning. Orqa uzatmani (R) yoqish uchun, avtomobilni to'xtating, ilakishish tepkisini to'liq bosing, so'ngra esa dastakni N holatdan R holatga o'tkazing.

1: birinchi uzatma

2: ikkinchi uzatma

3: uchinchi uzatma

4: to'rtinchi uzatma

5: beshinchi uzatma


6: oltinchi uzatma (mavjud bo'lsa)

R: orqa uzatma

Uzatmalarni o'zgartirishda ilakishish tepkisini to'liq bosish zarur.

Haydash vaqtida oyog'ingizni ilakishish tepkisiga qo'yib turmang.

### Oldinga harakatlanish uchun oltita uzatmali qutida orqa uzatmani (R) yoqish



Oltita uzatmali qutida orqa uzatmani (R) yoqish uchun, qulf halqani (1) ko'taring va uzatmalarni o'zgartirish dastagini N holatdan R holatga o'tkazing.

Oldinga harakatlanishda uzatmani yoqishda qulf halqani ko'tarmang. Aks holda siz tasodifan orqa uzatmani (R) yoqishingiz mumkin.

Oldinga harakatlanish uchun uzatmadan orqa uzatmaga (R) o'tishdan avval avtomobilni to'liq to'xtatish zarur. Ilakishishni oxirigacha bosing, ozgina kuting va uzatmani yoqing. Aks holda, uzatmalar qutisining shikastlanishi yoki uning xizmat muddatining qisqarishi ehtimoli bor.

Orqaga yurish bilan harakatlanishni asta-sekin, orqa uzatma (R) yoqilganligiga oldindan ishonch hosil qilib, boshlash zarur. Noto'g'ri uzatmani yoqish avariya olib kelishi mumkin. Agar safar qilish vaqtida oyoq ilakishish tepkisinde doimo ushlab turilsa, bu dvigatelning va ilakishish tizimining shikastlanishiga, hamda yonilg'i sarfining oshirib ketishiga olib keladi.

## TORMOZ TIZIMI

Tormoz tizimi harakatlanishning eng turlicha sharoitlarida avtomobilni tormozlash uchun mo'ljallangan.

Tormozlanish jarayonida avtomobil tezligi tormozlanish ishqalanishi va shinalar va yo'l yuzasi orasidagi ishqalanish hisobiga pasayadi.

Tormoz ishqalanishining past ovozi va shinalar va yo'l yuzasi orasida ishqalanish tovushlari me'yordagi holat hisoblanadi va maxsus xizmat ko'rsatishni talab etmaydi. Tormozlanishda vaqti-vaqti bilan yuzaga keluvchi g'ichirlash ham me'yordagi holat hisoblanadi. G'ichirlash avtomobil ekspluatatsiyasi jarayonida, avtomobilning uzoq muddat harakatsizligida, yoki yomg'irdan keyin tormoz kolodkalarida zangning hosil bo'lishida tormoz kolodkalarida begona zarralarning mavjudligida yuzaga kelishi mumkin. Kam hollarda yuzaga keluvchi g'ichirlashlarda maxsus xizmat ko'rsatish talab etilmaydi.

Tepki yurishiga to'sqinlikni yuzaga keltirmaslik uchun, tormoz tepkisi zonasiga qalin gilamchani to'shamang. Agar avtomobil polusti gilamchalari bilan jihozlangan bo'lsa, gilamchalar tepkilarning yurishiga to'sqinlik qilmayotganligini tekshiring.

Tormoz tepkisi dastlabki holatga qaytmayapti, yoki tormoz tepkisining yurishi ancha uzun bo'lib qoldi - bu tormoz tizimining nosozligiga ko'rsatishi mumkin.

Dengiz sathidan katta balandlik zonasida avtomobil harakatlanishida uzluksiz tormozlanish tormoz tepkisiga bosish kuchini ortishiga olib kelishi mumkin.

Yangi avtomobilda yoki yangi tormoz kolodkalarni o'rnatgandan keyin tormoz tizimini tegishli samaradorligini ta'minlash uchun, safar qilishning birinchi 20 km davomida favqulodda yoki uzun tormozlanishdan saqlaning.

### OGOHLANTIRISH!

Chuqur ko'lmaklar orqali haydab o'tish, avtomobilni yuvish yoki qiya tushishlarda jadal tormozlanishdan keyin tormozlarning samaradorligini vaqtinchalik pasayish ehtimoli bor. Bu tormoz mexanizmlari komponentlarida namlikning yoki haddan tashqari qizib ketishning mavjudligi bilan ifodalanadi.

Haddan tashqari qizib ketish sababli tormozlanish samaradorligini vaqtinchalik pasayishi holatida quyidagilarni bajaring: Pastga tushishda ancha past uzatmaga o'ting. Uzoq tormozlanishga yo'l qo'ymang.

Tormoz mexanizmlari komponentlarida namlikning mavjudligi sababli tormozlanish samaradorligini vaqtinchalik pasayishi holatida me'yordagi tormozlanishni tiklash uchun quyidagilarni bajaring:

1. Orqadagi avtomobillarga nisbatan yo'l holatini baholang.
2. Harakatlanishni xavfsiz tezlik va orqada va parallel ketayotgan avtomobillargacha yetarlicha oraliq masofa bilan davom ettiring.
3. Me'yordagi tormozlanish tiklangunga qadar tormoz tepkisiga ravon bosing.

Agar tormoz tizimi haddan tashqari qizib ketish sababli vaqtinchalik tormozlanishni ta'minlay olmasa, nishablikdan pastga harakatlanayotganda past uzatmani yoqing va dvigatel bilan tormozlanishni qo'llang.

Agar tormoz tizimi tizimning nam komponentlari sababli tormozlanishni ta'minlab berolmasa, me'yordagi faoliyat yuritishni quyidagicha tiklash mumkin:

1. O'z avtomobilingiz orqasida avtomobillarning mavjudligini tekshiring.
2. O'z avtomobilingiz orqasida va ikkala yon tomonida yetarlicha masofani ta'minlash uchun harakatlanishni xavfsiz tezligini saqlang.
3. Tormoz tepkisini bir necha marta ehtiyotkorlik bilan bosing, toki me'yordagi faoliyat yuritish tiklanmagunicha.

### **Tormoz kuchini elektron taqsimlash tizimi (EBD)**

Tormoz kuchini elektron taqsimlash tizimi (EBD) ma'lumotlarni to'plash va har bir to'rtala g'ildiraklar uchun yo'l bilan ilakishishini hisoblash, va shunday qilib, avtomobilni tormozlanish paytiga tormoz kuchining turlicha qiymatlarini hisoblash uchun tez harakat qiluvchi kompyuterni qo'llaydi. Shuning uchun turlicha sharoitlarga bog'liq holda to'rtala g'ildiraklar turlicha usullarda va turlicha kuch bilan tormozlanishi mumkin, uni avtomobilni turg'unligini va xavfsizligini ta'minlash uchun harakatlanish vaqtida tez sozlash mumkin.

### **Antibloklovchi tormoz tizimi (ABS)**

Zamonaviy elektr tormozlanish tizimi bilan birgalikda antibloklovchi tormoz tizimi (ABS) g'ildiraklarning shatakchilashini va avtomobil boshqaruvini yo'qotilishini oldini olishga yordam beradi, hamda sirpanchiq yo'l qoplamasida maksimal tormozlanish qobiliyatini ta'minlaydi.

O't oldirish o'chirgichi yoqilishida ABS tizimi signalizatori qisqa vaqtga yonadi. Agar ABS signalizatori o'chayotgan yoki avtomobil harakatlanishi vaqtida yonayotgan bo'lsa, demak, ABS tizimida nosozlik mavjud. Darhol sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish Markaziga murojaat qiling.

Antibloklash tormoz tizimi (ABS) signalizatori ⇨ 4-16ni "Signalizatorlar, ko'rsatkichlar va indikatorlar" bo'limida ko'ring.

ABS tizimi tormozlanish vaqtida har bir g'ildirakning aylanish tezligini nazorat qiladi. Agar bitta g'ildirakni bloklash ehtimoli mavjud bo'lsa, tizim muvofiq tarzda ikki oldingi g'ildiraklarning va ikki orqa g'ildiraklarning tormozlanishini boshqaradi. ABS tizimi ishlashi vaqtida tormoz tepkisi ko'pincha shovqin bilan o'zgina titraydi.




### **OGOHLANTIRISH!**

Nosoz ABS tizimi ishga layoqatsiz, va favqulodda tormozlanishda g'ildiraklar bloklanib qolishi, bunda avtomobil rulga bo'ysunmasligi yoki ko'zda tutilmagandek harakatlanishi mumkin.

ABS tizimi tormozni yoqish uchun talab etiluvchi vaqtni o'zgartirmaydi, va tormoz yo'lini qisqartirmaydi. Harakatlanishda yetarlicha tormoz yo'lini saqlash kerak, hattoki ABS tizimi mavjud bo'lganida ham.



### To'xtab turish tormozi



To'xtab turish tormozi orqa g'ildiraklarga ta'sir qiladi.

To'xtab turish tormozining pishangisi oldingi qatorning ikki o'rindiqlari orasida joylashgan.

To'xtab turish tormozini jalb qilish uchun avtomobilni to'xtating, tormoz tepkisini bosing va to'xtab turish tormozini tortib qo'ying.

To'xtab turish tormozini o'chirib qo'yish uchun:

1. Tormoz tepkisini bosing.
2. To'xtab turish tormozining pishangisini (1) ozgina orqaga torting.
3. To'xtab turish tormozi pishangisi ulanish joyidagi (2) tugmani bosing.
4. Tugmani (3) bosilgan holda ushlab turing, to'xtab turish pishangisini pastga tushing.

Pastga yoki tepaga ketayotgan qatnov yo'lida to'xtab turishga joylashishda, to'xtab turish tormozini iloji boricha kuchliroq tortib qo'ying.

- Avtomobilning ko'tarilishda to'xtab turishga joylashtirilishda oldingi g'ildiraklarni yo'l chetiga qarshi tomonga burib qo'ying.
- Avtomobilni nishablikda to'xtab turishga joylashtirishda oldingi g'ildiraklarni yo'l cheti tomonga qaratib burib qo'ying.

Mexanik uzatmalar qutisi bo'lgan avtomobillar uchun:

- tekis maydonga to'xtab turishga joylashishda neytral uzatmani yoqing.
- Pastga tushishda avtomobilni to'xtab turishga joylashtirishda R (Orqaga yurish) uzatmasini yoqing.
- Ko'tarilishda to'xtab turishga joylashishda 1 (Birinci) uzatmani yoqing.

CVTli avtomobillar uchun:

Avtomobilni to'xtab turishga joylashtirishda P (To'xtab turishga joylashtirish) uzatmasini yoqing.

#### **⚠️ DIQQAT!**

Agar to'xtab turish tormozi tegishli tarzda yoqilmayotgan bo'lsa, avtomobil ba'zi holatlarda boshqaruvni yo'qotishi sababli (masalan, nishablikda to'xtab turishga joylashtirishda) o'z-o'zidan harakatlanishni boshlashi va xavf-xatarni yuzaga keltirishi mumkin.

Zarurat tug'ilganida sozlash uchun dilerga murojaat qiling.


To'xtab turish tormozi tushirilmagan avtomobilda harakatlanish taqiqlanadi, aks holda orqa g'ildiraklarning tormozlari haddan tashqari qizib ketishi va muddatidan oldin yedirilgan bo'lishi mumkin. Natijada sizga orqa g'ildiraklarning tormozini almashtirish talab etiladi; avtomobilning boshqa komponentlari ham shikastlangan bo'lishi mumkin.

### Elektr yuritmalı to'xtab turish tormozi

**Elektron boshqaruvli to'xtab turish tormozi (EPB), agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa**




To'xtab turish tormozi orqa g'ildiraklarga ta'sir qiladi. Elektron boshqaruvli to'xtab turish tormozi (EPB) o'chirgichi oldingi qatorning ikki o'rindiqlari orasida joylashgan.

**To'xtab turish tormozini qo'lda yoqish**

To'xtab turish tormozini yoqish uchun, avtomobilni to'xtatish uchun tormoz tepkisini bosib va so'ngra elektron boshqaruvli to'xtab turish tormozi o'chirgichini tortib qo'ying. Bunda EPB ishlash indikatorini (P) yonadi, uskunalar majmuasi displeyida "Parking brake applied" ("To'xtab turish tormozi yoqilgan") xabari chiqarilishidan keyin EPB o'chirgichini qo'yib yuboring. EPB tizimi tormozi avtomobilni to'xtab turishga joylashtirish uchun talab etiluvchi holatda qayd etiladi.

To'xtab turish tormozini tortish yoki qo'yib yuborish jarayonida siz tormoz tepkisini ko'tarilishi yoki tushishini his qilishingiz mumkin, bu me'yordagi holat.

**To'xtab turish tormozini qo'lda tushirish**

To'xtab turish tormozini qo'yib yuborish uchun, avval o't oldirish o'chirgichi ON (YOQILGAN) holatga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling, tormoz tepkisini bosib va so'ngra EPB o'chirgichini bosib. EPB ishlashi indikatorini (P) o'chadi, va uskunalar majmuasi displeyida "Parking brake released" ("To'xtab turish tormozi qo'yib yuborilgan") xabari chiqariladi.

Agar tormoz tepkisi bosilmagan bo'lsa, uskunalar majmuasi displeyida "Please depress the brake pedal and then release the EPB switch" ("Tormoz tepkisini bosib, so'ngra esa EPB o'chirgichini qo'yib yuboring") xabari paydo bo'ladi.

EPB o'chirgichini boshqarishda o'chirgich, faqat agar qo'yib yuborish davomiyligi yoki o'chirgich bosilishi 0,1 sekunddan oshsagina, javob beradi.

**EPBni avtomatik qaydlash funksiyasi**

Harakatsiz turgan avtomobilda dvigatel o'chirilishida avtomatik to'xtab turish tormozi yoqiladi, va sizga EPB o'chirgichini qo'yib yuborish talab etilmaydi.

**EPBni avtomatik qo'yib yuborish funksiyasi**

Joydan qo'zg'alishda sizga to'xtab turish tormozini qo'lda tushirish talab etilmaydi; tizim avtomobil joyidan qo'zg'alishni boshlayotganini aniqlagan vaqtda to'xtab turish tormozi avtomatik qo'yib yuboriladi.

Avtomobil dvigatelinu ishga tushiring, (oldinga yurish yoki orqaga yurish) uzatmani yoqing, bunda haydovchining xavfsizlik kamari taqilgan bo'lishi kerak; akselerator tepkisiga bosib va ssepleniya tepkisini qo'yib yuboring.

Avtomobilning joydan qo'zg'alish uchun shart bajarilgan vaqtda, to'xtab turish tormozi avtomatik qo'yib yuboriladi.

Ravon qo'zg'alish va ko'tarilishda orqaga yumalab ketishni oldini olish uchun akselerator tepkisini bosishda drossel to'sqichining ochilishi talab etilyotgandek ortadi.

### **Harakatlanishda takroran qayd qilish funksiyasi**

Agar to'xtab turish tormozi yoqilgan bo'lsa, u holda g'ildiraklarning harakatlanishi aniqlanishida EPB avtomobil harakatlanishini oldini olish maqsadida takroran qayd qilish funksiyasi darhol yoqiladi.

### **Tormoz diskini haddan tashqari qizib ketishida EPB funksiyasining takroran qayd etish funksiyasi**

Agar orqa tormoz diski kuchli qizib ketgan vaqtda, avtomobil to'xtab turishga joylashtirilayotgan bo'lsa, tormoz kuchi diskning issiqlik kengayishi va uning sovitilishida keyinchalik siqilishi tufayli bir qancha vaqt o'tib pasayishi mumkin. EPB avtomobilning harakatlanishidan saqlanish maqsadida ko'p martalik takroran qayd etilishi hisobiga tormoz kuchini saqlab qolishi mumkin.

### **Dinamik tormozlanish funksiyasi**

Harakatlanish vaqtida (3 km/soatdan yuqori tezlikda), ESC tizimini harakatga keltirish uchun, avtomobil to'liq to'xtaguncha to'rtala g'ildiraklar bilan tormozlanishi uchun, EPB o'chirgichini uzluksiz torting.

EPB avtomobil to'xtaganidan keyin qaydlanadi. EPB o'chirgichini yarmigacha qo'yib yuborilishida tormoz qo'yib yuboriladi. Dinamik tormozlanishda, agar ESC tizimi tormozlanishni ta'minlamayotgan bo'lsa, EPB tormozlanish uchun orqa g'ildiraklarni qaydlaydi. Ushbu funksiyani faqat favqulodda holatda, masalan, tormoz tizimi nosozligi holatida, faollashtirish mumkin. Funksiyani odatiy sharoitlarda yoqish taqiqlanadi. EPB o'chirgichini mustaqil boshqarishga begona shaxslarga yo'l qo'ymang.

### **Nazorat liniyasini o'tish rejimi**

Rolikli platformaga chiqqandan keyin nazorat liniyasi talablariga binoan harakatlarni bajaring. EPB o'chirgichini torting va ushlab turing yoki 6 marta EPB o'chirgichini tortish-qo'yib yuborish harakatini uzluksiz bajaring.

### **Avtomatik qaydlash funksiyasini o'chirish**

Avtomobilni transportda tashish, shataklash yoki yuvish vaqtida, EPBni o'chirgandan keyin avtomobilni joydan joyga ko'chirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun, EPB avtomatik qaydlash funksiyasini o'chirish talab etilishi mumkin.

O'chirish usuli: Tormoz tepkisini bosing va dvigatelni o'chirish jarayonida EPB o'chirgichini bosilgan holda ushlab turing. EPB avtomobilning holatini qaydlamayotganligiga

ishonch hosil qilish uchun, avtomobilni joydan joyga siljitishga urinib ko'ring.

Bundayni so'ng, to'xtab turish tormozini o'chirish zarurat tug'ilganida EPB o'chirgichini tortib qo'ying.

Avtomatik qaydlash funksiyasini faqat agar avtomobil tekis yuzada turganida o'chiring; aks holda, avtomobil harakatlanishni boshlashi va oyoq tormozi qo'yib yuborilganida xavf-xatar tug'dirishi mumkin.

Avtomatik qaydlash funksiyasi o'chirilgandan keyin tormoz kuchi mavjud bo'lmaganligi sababli yumalab ketishni oldini olish uchun choralarni ko'ring, masalan, bitta g'ildirakning ikkala biqin to'shamalariga yog'och brusoklarni yoki toshlarni o'rning.

Akkumulator batareyasining juda past quvvatida EPBni yoqish yoki tegishli tarzda o'chirish imkoniyati yo'q. Ushbu holatda akkumulator batareyasini quvvatlash zarur bo'ladi. Yordam uchun dilerga murojaat qilishni tavsiya qilamiz.

EPB tormozining friksion panelini almashtirish uchun professional asbob-uskunalar va texnik vositalar talab etiladi. Texnik xizmat ko'rsatishni mustaqil yoki biron bir texnik xizmat ko'rsatish stansiyasida bajarmang. Dilerga murojaat qiling; aks holda EPB tizimi shikastlangan bo'lishi mumkin. Ta'mirlashdan keyin EPB tizimi komponentlari texnik xizmat ko'rsatishga kafolatni yo'qotadi.

### **Ko'tarilishda harakatlanishni boshlashni yengillashtirish tizimi (HSA)**

Elektron dinamik stabilashtirish tizimi (ESC) ko'tarilishda harakatlanishni boshlashni yengillashtirish (HSA) funksiyasiga ega.

Funksiya to'xtab turish tormozisiz nishablikda avtomobilning joydan qo'zg'alishini ta'minlaydi. Ushbu funksiya, siz qiyalik bo'ylab oldinga yoki orqaga yurish bilan harakat qilayotganligingizga bog'liq bo'lmagan holda harakatlanishni boshlashda yordamni ta'minlaydi. Shuning uchun harakatlanishni boshlashdan avval uzatmani yoqing.

HSA tizimi faoliyat yuritayotgan vaqtda, u holda tormoz tepkisini qo'yib yuborishdan keyin avtomobil bir-ikki sekund davomida tormoz kuchini saqlab turadi. Bunda avtomobil orqaga yumalab ketmaydi.

Akselerator va ssepleniyani yoqing, va ikki sekund davomida HSA tizimi qiya ko'tarilishda harakatlanishni boshlashni soddallashtiradi.

Ushbu ikki sekund davomida, agar haydovchi tomonidan beriluvchi tortish kuchi ko'tarilishda avtomobil uchratiluvchi qarshilikka qaraganda kattaroq bo'lsa, tizim tormoz kuchini astasekin pasaytiradi va avtomobil ravon harakatlanishni boshlaydi. Agar avtomobil ikki sekund davomida harakatlanishni boshlamasa, yoki haydovchi tomonidan beriluvchi tortish kuchi yetarlicha bo'lmasa, tormoz tizimidagi bosim avtomatik pasaytiriladi, va avtomobil nishablik bo'yicha orqaga yumalab ketishni boshlashi mumkin.

Tormoz tepkisini avtomobilning to'liq to'xtagunicha bosning, va qo'zg'alishni keyingi urinishida tizim, agar shartlarga rioya qilingan bo'lsa, avvalgidek yordam ko'rsatishni davom ettiradi.

HSA tizimining faoliyat yuritish shartlari:

1. Tizimda nosozliklar mavjud emas, va dvigatel ishlamoqda.
  2. Avtomobil harakatsiz, tormoz pedali bosilgan.
  3. Oldinga yurish yoki "R" (Orqaga yurish) uzatmasi yoqilgan.
  4. Tizim nishablik mavjudligini aniqlamoqda. (Nazariy jihatdan, 4%dan kam nishablikda avtomobil tormozlanish vaqtda engashadi, va engashish burchagi nishablikni qoplaydi. Natijada tizim, agar nishablik 4%dan kam bo'lsa, ishlamasligi mumkin). HSA tizimining faoliyat yuritishi juda sirpanchiq yoki qiya nigshablikda avtomobilning yumalab ketishini oldini olmasligi mumkin. HSA tizimining ta'sirini to'xtab turish tormozni ta'siri almashtirmaydi. Avtomobilni tark etayotganda, to'xtab turish tormozini albatta yoqing. Yetarlicha tortish kuchi mavjud bo'lmaganida tormoz tepkisini qo'yib yuborilganidan keyin avtomobil orqaga yumalab ketadi.
- Darhol to'xtab turish tormozini torting va tormoz tepkisini bosning.
- Agar nishablikda joydan qo'zg'alishda dvigatel o'chib qolgan bo'lsa, darhol to'xtab turish tormozini torting va tormoz tepkisini bosning.

### **Nishablikda avtomobilni tutib turishning avtomatik tizimi (AVH)**


**Nishablikda avtomobilni tutib turishning avtomatik tizimi (AVH), agar mavjud bo'lsa**  
EPB funksiyasi bilan jihozlangan avtomobil avtomatik to'xtab turishga joylashtirish funksiyasiga egadir.

Haydovchi funksiya yoqilganidan keyin avtomobilni to'xtatish uchun tormoz tepkisini bosadi, yoki haydovchi avtomobil harakatsiz va dvigatel bo'sh aylanishlarda ishlayotgan vaqtda, tormoz tepkisiga bosadi. Tormoz tepkisi qo'yib yuborilgandan keyin tormoz tizimidagi gidravlik bosim to'xtab turishga joylashtirish holati darajasida qo'llab turiladi (avtomobil, nishablikda, ko'tarilishda yoki tekis yuzada turganligiga bog'liq bo'lmagan holda), bunda EPB o'chirgichini to'xtab turishga joylashtirish uchun tortib chiqarish zarurati yo'q.

Agar 5 minut davomida haydovchi akselerator tepkisiga bossa va qo'zg'alish uchun ssepleniya tepkisini qo'yib yuborsa, tormoz tizimidagi gidravlik bosim avtomatik pasayadi, va avtomobil harakatlanishni boshlashi uchun to'xtab turish tormozni qo'yib yuboriladi; 5 minut o'tgandan keyin tizim tormozni to'xtab turishga joylashtirish holatida qayd etilishi uchun EPB tormoz supportiga avtomatik o'zgaradi, va tormoz tizimining gidravlik bosimi pasaytiriladi. AVH tizimining yoqilgan va o'chirilgan holati xotirada saqlanib qoladi.

Oziqlanishning oxirgi yoqilishida AVHning yoqilgan/o'chirilgan holati xotirada saqlanadi, va AVHning muvofiq holati oziqlanishning keyingi yoqilishida o'rnatiladi.

**Nishablikda avtomobilni tutib turishning avtomatik tizimi (AVH) o'chirgichi, agar mavjud bo'lsa**



Dvigatel ishlayotgan vaqtda, haydovchining xavfsizlik kamari taqilgan, va haydovchini yon tomon eshigi yopilganida, AVH o'chirgichiga bosish zarur, bunda o'chirgichni yoritish lampasi yonadi va AVH funksiya faollashtiriladi. Bundan so'ng, quyidagi shartlarga rioya etilishida uskunalar majmuasida AVH ishlash indikatorini yonadi. To'xtab turish tormozi faoliyat yuritmoqda, va tormoz tizimi avtomobilni to'xtab turishga joylashtirish holatida tutib turish uchun muvofiq tormoz kuchini beradi.

**AVH ishi shartlari (avval AVH funksiya yoqilgan):**

1. Avtomobil harakatsiz, dvigatel ishlamoqda.
2. Tormoz tepkisi muayyan darajagacha bosilgan (tormoz tizimidagi gidravlik bosim 4 bardan yuqori).
3. Haydovchining xavfsizlik kamari taqilgan, haydovchining yon tomon eshigi yopilgan.

**Boshqa shartlar (barcha shartlarga rioya etilgan bo'lishi kerak):**

- Tizimda nosozlik mavjud emas.
- EPB ishga tushirilgan.
- Akselerator tepkisi bosilmagan (drossel to'siqichi kamida 2%ga ochilgan).

**AVHdan keyin avtomatik to'xtab turish tormozini qo'lda tushirish**

O't oldirish o'chirgichi ON holatga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling, tormoz tepkisini bosing va EPB o'chirgichini bosing. AVH ishlashi indikatorini o'chadi, va avtomatik to'xtab turish tormozi qo'yib yuboriladi.

**AVHdan keyin avtomatik qo'yib yuborish**

Sizga AVHdan keyin keyingi marta harakatni boshlashda o'chirish uchun EPB o'chirgichini qo'lda bosish talab etilmaydi. Tizim haydovchi harakatlanishni boshlamoqchi ekanligini aniqlanishi bilan oq, avtomatik tushirish bajariladi.

## OSMA QATTIQLIGINI SOZLASH TIZIMI

Dvigatelni yoqing, uzatmani yoqing oldinga harakatlanish yoki orqaga yurish), haydovchining xavfsizlik kamarini taqing, haydovchining yon tomon eshigini yoping. Akselerator tepkisiga bosing va ssepleniya tepkisini qo'yib yuboring. Avtomobilning joydan qo'zg'alish uchun shart bajarilgan vaqtda, to'xtab turish tormozi avtomatik qo'yib yuboriladi.

### **Elektron dinamik stabilashtirish tizimi (ESC)**

Elektron dinamik stabilashtirish tizimi (ESC) - bu o'zi bilan antibloklovchi tormoz tizimi (ABS) va tortish kuchini nazorat qilish tizimi (TCS) kelajakdagi rivojlanishini taqdim etuvchi xavfsizlik tizimidir. Tizim qo'shimcha vertikal o'qqa nisbatan burchak tezligi datchigi, ko'ndalang tezlanish datchigi va rul chamberagini burish burchagi datchigi bilan jihozlangan.

Oldingi va orqa, chap va o'ng g'ildiraklarga uzatiluvchi tortish kuchi va tormoz kuchini dvigatelni boshqarish moduli (ECM) boshqaradi, u avtomobilning ko'ndalang turg'unligini ta'minlaydi. Haydovchi chegara cheklolvlarni hisobga olmagan holda avtomobilni boshqarayotgan vaqtda, masalan yuqori tezlikda burilishni bajarayotganida, ESC tizimi avtomobilni xavfsiz boshqarilishini ta'minlash uchun avtomatik ishga tushadi.

ESC tizimiga quyidagi indikatorlar taalluqlidir: ABS nosozligi indikator, tormoz kuchini elektron aniqlash tizimi (EBD) nosozligi indikator, ESC nosozligi indikator va ESC OFF o'chirish indikator.

1. Indikatorlar o't oldirishni o'chirgichi yoqilishida o'z-o'zini tekshirishni bajarish vaqtida yonadi.

To'rtta indikator oddiy sharoitlarda, ESC tizimi o'z-o'zini tekshirishni bajarayotganiga va

indikatorlar me'yorda ishlayotganiga ko'rsatib, uch sekund davomida yoqilgan. Me'yordagi holatda to'rtala indikatorlar uch sekunddan keyin o'chadi. Agar ESC tizimida (noto'g'ri o'rnatish, yomon mahkamlangan ulagich, CAN shinasini bo'yicha aloqaning buzilishi kabi) nosozliklar mavjud bo'lsa, u holda uch sekunddan keyin faqat ESC OFF o'chirish indikator o'chadi, qolgan uchta indikatorlar odatiy sharoitlarda yonib turishda davom etadi.

2. Avtomobil harakatlanishi jarayonida ESC funksiyasini faollashtirishda, ESC tizimi ishlayotganiga ko'rsatib, ESC indikator miltillab turadi. Agar ESC tizimi me'yordagidek ishlamayotgan bo'lsa, ABS +EBD tizimi esa me'yorda ishlayotgan bo'lsa, odatiy sharoitlarda ESC indikator, ESC tizimi nosozlikka ega ekanligiga ko'rsatib, yoqiladi. Agar ESC va ABS tizimlari me'yordagidek ishlamayotgan bo'lsa, EBD tizimi esa me'yorda ishlayotgan bo'lsa, odatiy sharoitlarda ESC va ABS indikatorlari yonib turadi.

Agar ESC, ABS va EBD tizimlari me'yordagidek ishlamayotgan bo'lsa, odatiy sharoitlarda ESC, ABS va EBD indikatorlari yonib turadi.

3. ESC OFF o'chirish indikator ESC funksiyasi o'chirilganligiga belgi berish uchun qo'llaniladi (odatiy sharoitlarda indikator yoqilgan, toki ESC funksiyasi o'chiq bo'lgunicha; funksiya yoqilishidan keyin indikator o'chadi).

ESC OFF o'chirgichiga bosishda ESC ba'zi funksiyalari o'chiriladi, va ESC OFF o'chirilishi indikatorini yonadi. ESC tizimi ishlayotgan vaqtda, o'chirgichga bosilishida, ESC funksiyalari darhol o'chirilgan bo'lmaydi, ular tizim ishlashi yakunlanishidan keyin o'chirilgan bo'ladi. ESC o'chirgichiga takroran bosishda barcha funksiyalar qayta yoqilgan bo'ladi. Agar ESC o'chirgichi 10 sekunddan ortiq vaqt davomida bosilgan bo'lsa, ESC tizimi bu harakatni noto'g'ri kabi ko'radi, va ESC funksiyalari o'chirilgan bo'lmaydi.

4. ESC tizimi avtomobil dvigateli har ishga tushirilishida avtomatik yoqiladi. ESC tizimi avtomobilni boshqaruvini yo'qotilishidan saqlanishga yordam bermasligi mumkin. Shuning uchun avtomobilni diqqat va ehtiyotkorlik bilan boshqaring. Qumli yoki toshli yo'l qoplamasi bo'ylab harakatlanishda ESC tizimini o'chirib qo'ying. Muzlagan, qor bilan qoplangan yoki sirpanchiq yo'l qoplamasi bo'ylab harakatlanishda tizimni o'chirish yaramaydi.

### ESC OFF o'chirgichi



Avtomobil harakatlanishni boshlaganidan keyin ESC OFF o'chirgichiga bosing, uskunalar majmuasida ESC OFF o'chirgichi indikatorini yonadi, va ba'zi ESC funksiyalar o'chiriladi.

ESC o'chirgichiga yana bir marta bosing va ESC funksiyalari qayta yoqiladi, uskunalar majmuasida ESC OFF o'chirgichining indikatorini o'chadi.


Odatiy sharoitlarda ESC tizimini o'chirish tavsiya etilmaydi. Tizimni vaqtinchalik o'chirish va faqat loy, chuqur qum yoki qor bo'ylab harakatlanishda o'chirish lozim.



### KRUIZ-NAZORAT







### O'chirgichning III-turi

Kruiz-nazoratni boshqarish klavishalari rul chambaragiga joylashtirilgan. Kruiz-nazoratning tizimi yoqilganida avtomobil o'rnatilgan tezlikda harakatlanishi mumkin. Tormoz tepkisiga bosishda tizimning faoliyat yuritishi darhol to'xtatiladi. To'xtab turish tormozi va ssepleniya kabi o'chirgichlarning qo'llanilishi ham kruiz-nazorat tizimining o'chirilishiga olib kelishi mumkin. Agar dvigatel aylanishlari 4800 ay/min.dan past bo'lsa, tezlikning 40–120 km/soat oralig'ida bo'lganida 3 (uchinchi), 4 (to'rtinchi), 5 (beshinchi) va 6 (oltinchi) uzatmalar yoqilganida tizim qo'llanilishi mumkin.

1. Kruiz-nazoratni sozlash  
Kruiz-nazorat tizimining o'chirgichini turiga bog'liq holda,  tugmasini bosing yoki

o'zgartirgich-tugmani  belgi tomonga torting, bundan so'ng uskunalar majmuasidagi kruiz-nazorat indikatorini, kruiz-nazorat tizimi faol ekanligiga ko'rsatib, miltilashni boshlaydi. O'zgartirgich-tugmani SET/- belgi tomonga torting, kruiz-nazorat tizimi amal qilishni boshlaydi, va indikator doimo yoqilgan bo'ladi. Masalan, agar haydovchi tezlikni 100 km/soatga barqarorlashtirmoqchi bo'lsa, avval tezlikni 100 km/soatgacha tezlashtirish zarur. Avtomobil tezligi 100 km/soatga erishgan vaqtda,  o'zgartirgich-tugmani bosib va uni SET/- belgi tomonga torting. Akselerator tepkisini qo'yib yuboring, va avtomobil 100 km/soat tezlikda doimo harakatlanadi. Kruiz-nazoratni tezligini o'rnatgandan so'ng, shuningdek, odatdagidek tezlikni oshirish uchun akselerator tepkisini qo'llash mumkin. Akselerator tepkisini qo'yib yuborilgandan keyin tizim kruiz-nazoratning dastlabki tezligiga qaytadi.

2. Kruiz-nazoratni o'chirish Agar kruiz-nazoratni qo'llashda tezlikni darhol pasaytirish talab etilayotganda, tormoz tepkисigа yoki ssepleniya tepkисigа bosish, yoki kruiz-nazorat tugmasi , o'zgartirgich-tugmani  belgisi tomonga tortish mumkin. Avtomobil kruiz-nazoratning joriy rejimidan chiqadi va kruiz-nazoratni faollashtirish rejimiga o'tadi, bunda kruiz-nazoratni indikatorini miltillab turadi.  tugmasini bosishda yoki kruiz-nazorat rejimida  belgisi

tomonga o'zgartirgich-tugma o'rnatilishida kruiz-nazoratning butun tizimi o'chirilgan bo'ladi, indikator o'chadi.

3. Tezlikning saqlangan qiymatini xotiradan chaqirish

Agar avtomobil kruiz-nazorat rejimidan chiqarilgan vaqtda, ammo kruiz-nazoratni rejimini faollashtirish rejimida bo'lganida, kruiz-nazoratning oldingi tezligini tiklash talab etilsa, o'zgartirgich-tugmani RES/+ tugmasi tomonga bir marta torting. Kruiz-nazorat avval saqlangan tezlikda ishlaydi. Masalan, kruiz-nazorat tezligi tormozlanishdan avval 60 km/soat bo'lgan, tormozlanishdan keyin esa 50 km/soat bo'lib qolgan, bunda kruiz-nazorat indikatorini miltillab turadi. O'zgartirgich-tugmani RES/+ belgisi tomonga torting; kruiz-nazorat indikatorini doimo yonishni boshlaydi, avtomobil 60 km/soatgacha avtomatik tezlikni oladi va kruiz-nazorat rejimiga kiradi.

4. Kruiz-nazorat tezligini oshirish O'zgartirgich-tugmani RES/+ belgisi tomonga torting va kruiz-nazoratning o'rnatilgan tezligi akselerator tepkисigа bosish zaruratsiz oshib boradi. Tezlik o'zgartirgichni tepaga har bir marta o'tkazilishida 2 km/soatga ortadi.

Agar o'zgartirgich-tugmani bosilgan holda ushlab turilsa, avtomobil tezligi uzluksiz oshirib boriladi. O'zgartirgichni qo'yib yuborgandan keyin harakatlanish tezligi xotiraga saqlanadi, va avtomobil o'rnatilgan tezlik bilan kruiz-nazorat rejimida harakatlanadi.

5. Kruiz-nazorat tezligini pasaytirish Kruiz-nazorat tezligini pasaytirish uchun, o'zgartirgich-tugmani SET/- belgisi tomonga torting. O'zgartirgichni pastga har bir marta o'zgartirilishida tezlik 2 km/soatga pasayadi.

Agar o'zgartirgich-tugmani bosilgan holda ushlab turilsa, avtomobilning tezligi uzluksiz pasayib boradi. O'zgartirgichni qo'yib yuborgandan keyin harakatlanish tezligi xotiraga saqlanadi, va avtomobil o'rnatilgan tezlik bilan kruiz-nazorat rejimida harakatlanadi.

Agar avtomobil tezligi taxminan 40 km/soatgacha (40 km/soatdan past) pasaytirilgan vaqtda o'zgartirgich-tugma qo'yib yuborilgan bo'lsa, saqlangan qiymat o'chirib yuboriladi. Kruiz-nazorat tezligida doimo harakatlanish uchun, tezlikni qayta tayinlang.



## HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

### **OGOHLANTIRISH!**

Agar siz avtomobilni doimiy tezlikda ishonch bilan boshqarish imkoniga ega bo'lmasangiz, uning qo'llanilishi xavfli bo'lishi mumkin. Krui-zorotni ilonizi yo'lda va transport oqimi zich bo'lgan yo'lda yoqish yaramaydi. Krui-zorotni sirpanchiq yo'lda qo'llash xavfli bo'lishi mumkin. Ushbu holatda yo'l bilan g'ildiraklarning ilakishishining keskin o'zgarishi g'ildarklarning shataklashishiga va boshqaruvni yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Krui-zorotni sirpanchiq qoplamada qo'llamang.

Agar krui-zorot tizimi ishlayotgan bo'lsa, u holda mexanik uzatmalar qutisida neytral uzatmani yoqish zarurati bo'lganida avval albatta ssepleniya tepkisini bosish kerak bo'ladi. Aks holda, dvigatelning ruxsat etilgan aylanishlari oshirib yuborilgan bo'lishi mumkin, bu dvigatelning shikastlanishiga olib keladi.

### **To'xtab turishga joylashtirish yoki orqaga yurib harakatlanishni yengillashtirish tizimi**

#### **Orqaga yurish datchigi**

Orqaga yurishning zakovatli datchigi avtomobilning orqa qismi va to'siq orasidagi masofani orqa bamperda o'rnatilgan ultratovushli o'zgartirgich-datchik yordamida baholanadi. O't oldirish o'chirgichini yoqish va uzatmalar o'zgartirgichi pishangisini "R" (Orqaga yurish) holatiga o'rnatilishidan keyin uzatiluvchi bir martalik ovoqli signal tizim me'yorda ishlayotganiga ko'rsatadi.

Ikki martalik tovushli signal bitta o'zgartirgich-datchik ishlayotganligiga ko'rsatadi; uch martalik tovushli signal ikki yoki undan ortiq o'zgartirgich-datchiklar tegishli tarzda ishlayotganligiga ko'rsatadi.

Orqaga yurishning zakovatli datchigi o't oldirish o'chirgichi yoqilishi va uzatmalarni o'zgartirish pishangisi "R" (Orqaga yurish) holatiga o'rnatilishi bilanoq darhol ishlashni boshlaydi.

Agar avtomobil va uning orqasidagi to'siq orasidagi masofa taxminan 1,5-1,0 m.ni tashkil qilsa, tizim katta intervalllar bilan tovushli signallarni uzatadi. Agar avtomobil va uning orqasidagi to'siq orasidagi masofa taxminan 1,0-0,6 m.ni tashkil qilsa, tovushli signallar orasidagi interval qisqaradi.

Agar avtomobil va uning orqasidagi to'siq orasidagi masofa taxminan 0,6-0,4 m.ni tashkil qilsa, tovushli signallar orasidagi interval yanada qisqa bo'lib boradi.


Agar avtomobil va uning orqasidagi to'siq orasidagi masofa taxminan 0,4 m.ni tashkil qilsa, tizim uzluksiz tovushli signalni uzatadi.

- Tizimga to'siqlarni aniqlash uchun yetarlicha vaqtni taqdim etish va orqaga yurish bilan harakatlanishda xavfsizlikni ta'minlash uchun, orqaga 5 km/soatdan yuqori bo'lmagan tezlikda safar qiling.
- Agar uzluksiz tovushli signal uzatlayotgan bo'lsa, va avtomobil uning orqasidagi to'siqqa tiralayotgan bo'lsa, darhol avtomobilni to'xtating.
- O'zgartirgich-datchiklarga zarbalar yetkazilishiga, hamda yuvishda suvning yuqori oqimlariga uchratilishiga yo'l qo'ymang, aks holda o'zgartirgich-datchiklar shikastlanishi mumkin.
- O'zgartirgich-datchiklarida qor, loy yoki suv tomchilarining mavjudligi ularning noto'g'ri ishlashini chaqirishi mumkin.
- Tizim, ehtimol, quyidagi to'siqlarni aniqlamasligi mumkin:
- Konus shaklidagi yoki burchak ostida signalni aks ettiruvchi to'siqlar
- Tovushli to'lqinlarni singdiruvchi materiallardan obyektlar, masalan, paxta va qor

- Metall to'rlar va troslar kabi ingichka obyektlar
- 30 sm balandlikda yoki yerga juda yaqin yoki yerdan 1 m va undan yuqori balandlikda joylashgan obyektlar Tizim avval ushbu obyektlarni aniqlashi mumkin, ammo avtomobilga yaqinlashish chorasi bo'yicha ular ishonchli aniqlanish oraliq'idan chiqishlari va natijada aniqlanmay qolishlari mumkin.
- nishablik bo'yicha pastga yoki tepaga orqaga erish bilan harakatlanishda tizim soxta ogohlantirishlarni uzatishi mumkin. Tizim, ehtimol, quyidagi holatlarda nome'yor ishlaydi:
- Notekis yo'l, yirik toshlar bilan qoplangan yo'llar, qiya yo'ldan yoki yaylov bo'ylab orqa bilan harakatlanish
- Ultratovushdan, metall tovush yoki xuddi o'sha chastotadagi yuqori bosimdagi gazning chiqish tovushidan xalallar mavjudligida
- O'zgartirgich-datchiklarda begona buyumlarning mavjudligi
- Katta yuklama ta'siri ostida avtomobilning orqa qismining balandligini o'zgarishi
- Samarali aniqlanish oraliq'i chegarasida o'rnatilgan boshqa asbob-uskunalarining aniqlanishi.
- Agar avtomobilda biron bir radioaloqaning nostandart asbob-uskunalarini o'rnatilgan bo'lsa, bunday asbob-uskunalarining qo'llanilishi (uyali telefon va audiotizim

bundan istisno) ushbu tizimning ishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

### Orqaga yurish displeyi



Agar avtomobil orqani ko'rish kamerasi bilan jihozlangan bo'lsa, u holda o't oldirish o'chirgichini yoqish, to'xtab turish tormozini qo'yib yuborilishi va uzatmalarni o'zgartirish pishangisini "R" (Orqaga yurish) holatiga o'rnatilishidan keyin ekranga orqani ko'rish

kamerasidan tasvirlar, yordamchi chiziqlar va orqaga yurish bilan harakatlanishni yo'naltiruvchi chiziqlari chiqariladi. Sektorlarni indikatsiyasi zonalari ham ekranda ko'rsatiladi.


### Orqaga yurish bilan harakatlanishni yordamchi chiziqlari

Yordamchi zona uchta sektorga bo'lingan: qizil, sariq va yashil, ular obyekt va avtomobilning orqa qismi orasidagi masofaga bog'liq bo'ladi. Pastki qizil chiziq 0,4 m chegarasida to'siqgacha masofani ko'rsatuvchi ogohlantiruvchi chiziqni taqdim etadi; o'rta sariq chiziq 1,0 m chegarasida to'siqgacha masofani ko'rsatuvchi ogohlantiruvchi chiziqni taqdim etadi; tepa yashil chiziq 0,2 m chegarasida to'siqgacha masofani ko'rsatuvchi ogohlantiruvchi chiziqni taqdim etadi; ikkala tomondagi chiziqlar avtomobilning kengligini belgilaydi.

### Orqaga yurish bilan harakatlanishni yo'naltiruvchi chiziqlari

Sariq yo'naltiruvchi chiziq rul chamberagini burilishiga muvofiq keluvchi virtual yo'naltiruvchi chiziqni aks ettiradi.

### Sektorlar indikatsiyasi zonalari



Ekranida to'siqlardan muvofiq tarzda avtomobilning oldingi chap, oldingi o'ng, orqa chap, orqa o'ng, orqa chap o'rta va orqa o'ng o'rta qismlarigacha oraliq masofani belgilovchi sektorlar indikatsiyasining oltita zonasi ko'rsatilgan. Oldingi chap, oldingi o'ng, orqa chap, orqa o'ng sektorlarni indikatsiyasi zonalari uchun:

Agar avtomobilidan to'siqgacha oraliq masofa taxminan 0,4-0,6 m.ni tashkil qilsa, sektorni indikatsiya zonasi sariq rangda aks ettiriladi. va tizim qisqa interval bilan tovushli signalni uzatadi. Agar to'siq 0,4 m chegarasida joylashgan bo'lsa, sektorni indikatsiya zonasi qizil rangda aks ettiriladi, va tizim uzluksiz tovushli signalni uzatadi.

Orqa chap o'rta va orqa o'ng o'rta sektorlarni indikatsiyasi zonalari uchun:

Agar avtomobilidan to'siqgacha oraliq masofa taxminan 0,6-1,0 m tashkil qilsa, sektorni

indikatsiya zonasi yashil rangda aks ettiriladi. va tizim intervalli tovushli signallarni uzatadi.

Agar to'siq 0,4-0,6 m chegarasida joylagan bo'lsa, sektorning indikatsiya zonasi sariq rangda aks ettiriladi, va tizim qisqa intervallar bilan tovushli signallarni uzatadi.

Agar to'siq 0,4 m chegarasida joylashgan bo'lsa, sektorning indikatsiya zonasi qizil rangda aks ettiriladi, va tizim uzluksiz tovushli signalni uzatadi. Orqani ko'rish zakovatli kamera faqat orqaga yurish bilan harakatlanishda to'qnashuvdan saqlanish uchun haydovchiga yordam berishi mumkin. Doimiy nazoratni saqlang.

GM orqani ko'rish bort kamerasiga ishonib ehtiyotkorsiz haydash natijasida sodir bo'lgan biron bir jarohatlar yoki avtomobilning shikastlanishlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Orqaga yurish bilan harakatlanishni boshlashdan avval avtomobil yonida bolalar yoki hayvonlar yo'qligini tekshiring.


### To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi

To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi oldingi/orqa bamperga o'rnatilgan ultratovushli o'zgartirgich-datchik yordamida avtomobilning oldingi/orqa qismlari va to'siq orasidagi masofani baholaydi.

O't oldirish o'chirgichini yoqishdan keyin uzatiluvchi bir martalik tovushli signal tizim me'yorda ishlayotganligiga ko'rsatadi. Ikki martalik tovushli signal bitta o'zgartirgich-datchik ishlamayotganligiga ko'rsatadi; uch martalik tovushli signal ikki yoki undan ortiq o'zgartirgich-datchiklar tegishli tarzda ishlamayotganligiga ko'rsatadi.

O'zgartirgich-datchik nosozligi aniqlanishida nosozlik haqidagi ma'lumot audiotizimning displeyi ekranida paydo bo'ladi.

### To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi o'chirgichi



Agar avtomobil to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi o'chirgichi bilan jihozlangan bo'lsa, u holda o't oldirish o'chirgichini yoqish va to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi o'chirgichini bosishdan keyin o'chirgich indikatori yonadi. Agar ushbu paytda to'xtab turish tormozi tushirilsa, to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi ishlashni boshlaydi.

Agar avtomobilning oldingi/orqa qismi to'siqlardan muayyan oraliq masofa chegarasida joylashgan bo'lsa, to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi indikatsiyasi audiotizim displeyi ekranida paydo bo'ladi. O'chirgichga takroran bosishda to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi o'chadi.

Shuningdek o'chirgich indikatori ham o'chadi. To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi, uzatmalarni o'zgartirish pishangisi "R" (Orqaga yurish) holatiga o'rnatilgan vaqtda, to'xtab turish tormozini tushirishda avtomatik faollashtiriladi. Tizim, agar avtomobil tezligi 15 km/soat tezlikdan oshmayotgan bo'lsa, ishlashni to'xtatadi. Tizimni takroran faollashtirish uchun o'chirgichni bosing.

### To'xtab turishga joylashtirish tizimi displeyi



### Parking System Display

Rasmda ko'rsatilganidek, uzatmalar qutisi oldinga yurish yoki neytral uzatmaga yoqilgan vaqtda, agar avtomobilning oldingi qismi to'siqdan taxminan 0,6 m uzoqlikda yoki avtomobilning orqa qismi to'siqdan taxminan 1,5 m uzoqlikda joylashgan bo'lsa, audiotizim displeyi ekranida darcha sizib chiqadi.

Oldingi va orqa sektorning zonasi rangi oraliq masofa o'zgarib borishi bo'yicha o'zgaradi, bundan tashqari tovushli signal uzatiladi.

"Sektorlarni indikatsiya zonalarini"ni ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.

Agar tizim to'siqlarni aniqlamasa, darcha g'oyib bo'ladi.

Oynani yopish tugmasi (x) bosilganidan keyin darcha darhol g'oyib bo'ladi. Darcha to'siq aniqlanishi bilan oq yana paydo bo'ladi. Orqani ko'rish kamerasi va to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi faqat orqaga yurish bilan harakatlanishda yoki to'xtab turishga joylashtirishda to'qnashuvdan saqlanishda haydovchiga yordam berishi mumkin. Doimiy nazoratni saqlang.

GM radiolokatsion datchiklarning bort tizimiga ishonib ehtiyotkorsiz haydash natijasida sodir bo'lgan biron bir jarohatlar yoki avtomobilning shikastlanishlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

To'xtab turishga joylashtirish yoki orqaga yurish bilan harakatlanishni boshlashdan avval, avtomobil atrofida bolalar yoki hayvonlar yo'qligini tekshirish, chunki radiolokatsion datchiklar tizimi ularni aniqlay olmasligi mumkin.

## YONILG'I

### Yonilg'ini tavsiya etilgan turlari

Oktan soni 95 bo'lgan benzinni, ekvivalent standart raqamli benzinni yoki ancha yuqori standart raqamiga ega bo'lgan benzinni qo'llang.

Har 5000 km masofada vakolatlangan diler tomonidan tavsiya qilingan asl yuvish vositasini benzingga qo'shib quyning. Dvigatelning yonish qismlarida birikmalarning hosil bo'lishini oldini olish va olib tashlash uchun benzinli yuvish vositasidan foydalanish qat'iy tavsiya etiladi. Oktan soni juda past bo'lgan yonilg'ining qo'llanilishi quvvatni va dvigatelni aylantirish momentini pasaytiradi, hamda yonilg'i sarfini oshiradi.

### Metil spirtini qo'llash taqiqlanadi

Avtomobilida metil spirtini saqlovchi yonilg'ini qo'llash taqiqlanadi.

Ushbu yonilg'i avtomobilni tortish-dinamik karakteristikalarini pasaytiradi va yonilg'i tizimi komponentlarini shikastlanishini chaqiradi.

### Avtomobilni boshqa mamlakatlarda haydash

Avtomobilni boshqa mamlakatlarda haydashda:

- Ro'yxatdan o'tkazish va sug'urtalashning barcha qoidalariga rioya qiling.
- Mamlakatda tegishli yonilg'i mavjudligini tekshiring.

#### **DIQQAT!**

Tegishli bo'lmagan markadagi yonilg'ini qo'llash yoki yonilg'i bakini noto'g'ri yonilg'i bilan to'ldirish dvigatelni va katalitik neytralizatorning jiddiy shikastlanishini chaqirishi mumkin. Sizing avtomobilingiz uchun mo'ljallangan tegishli yonilg'i qo'llanilayotganligiga ishonch hosil qiling. Xavfsizlik maqsadlarida yonilg'i baki, nasoslar va quvurlar to'g'ri yerga ulangan bo'lishi kerak. Statik elektr zaryadi yonilg'i bug'larining alanganishini chaqirishi mumkin. Siz kuyib qolishingiz, va avtomobil shikastlanishi mumkin.

#### **XAVF-XATAR!**

Yonilg'i yengil alanganuvchi va portlash xavfi bo'lgan modda hisoblanadi. Chekish taqiqlanadi. Ochiq alanga qo'llanilishi yoki uchqunlashishga yo'l qo'yilmaydi. Avtomobilida yonilg'i isi paydo bo'lishida tekshirish va ta'mirlash uchun darhol dilerga murojaat qiling.

#### **DIQQAT!**


Past oktan soniga ega bo'lgan yonilg'ining qo'llanilishi yonilg'ining nomuntazam yonishiga va dvigatelning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu avtomobilning konstruksiyasi metanol saqlovchi yonilg'ini qo'llanilishiga imkon bermaydi.

Shuning uchun, metanol saqlovchi yonilg'ini qo'llamang. Metanol yonilg'i tizimidagi metall detallarning korroziyasini chaqirishi va plastik va rezina detallarni shikastlashi mumkin.

Metanol saqlovchi yonilg'ini qo'llash bilan chaqirilgan har qanday shikastlanish kafolat bilan qoplanmaydi. Yonilg'ida marganes va temirning ortiqcha miqdori katalitik neytralizatorning tiqilib qolishiga olib kelishi, o't oldirish svechalarining shikastlanishini va boshqa muammolarni chaqirishi mumkin. Har doim davlat standartlariga muvofiq keluvchi yonilg'ini qo'llang.

**⚠ XAVF-XATAR!**


Yonilg'ini quyishdan oldin dvigatelni va shaxsiy yonish kameralariga ega bo'lgan qo'shimcha isitgichlarni o'chirib qo'ying. Barcha elektron qurilmalarni o'chiring. Yonilg'i to'ldirish vaqtida yonilg'i quyish stansiyasining xavfsizlik texnikasi yo'riqnomalariga va qoidalariga rioya qiling.

**Bakga yonilg'ini to'ldirish**

1. Dvigatelni o'chiring.

2. Lyuchokni ochish uchun, uskunalar panelining chap tomonida pastida joylashgan yonilg'i bakining yonilg'i quyish bo'yinchasining lyuchogini ochish dastasini tepaga torting.

Agar yonilg'i bakining yonilg'i quyish bo'yinchasi lyuchogi sovuq ob-havoda ochilmayotgan bo'lsa, ehtiyotkorlik bilan lyuchok ustiga urib chiqing. So'ngra yana bir marta ochishga urinib ko'ring.



3. Yonilg'i quyish bo'yinchasini qopqog'ini soat strelkasiga qarama-qarshi ohista burang (1).

Agar vishillovchi tovush eshitsangiz, toki tovush to'xtamagunicha kuting, so'ngra esa qopqoqni burab oching.

4. Yonilg'i bakining yonilg' quyish bo'yinchasi qopqog'ini burab bo'shating. Yonilg'i bakining yonilg'i quyish bo'yinchasi qopqog'i lyuchokga zanjir yordamida mahkamlangan.

Yonilg'i quyish bo'yinchasini mahkamlash uchun, yonilg'i bakining yonilg'i quyish bo'yinchasi lyuchogida mavjud bo'lgan ushlagichni zanjirga osib qo'ying.

5. Yonilg'i to'ldirib bo'lgandan so'ng yonilg'i bakining yonilg'i quyish bo'yinchasining qopqog'ini joyiga o'rnatib. Yonilg'i bakining yonilg'i quyish bo'yinchasini qopqog'ini eshitiluvchi chertikagacha soat strelkasi bo'ylab burang (2).

6. Yonilg'i bakining yonilg'i quyish bo'yinchasi lyuchogini zichlab yoping.

# 9

## AVTOMOBILNI PARVARISHLASH

---

- UMUMIY MA'LUMOTLAR ..... 9-2
- AVTOMOBILNI TEKSHIRISH ..... 9-3
- CHO'G'LANMA LAMPALARNI ALMASHTIRISH .... 9-10
- ELEKTR TIZIMI ..... 9-12
- AVTOMOBIL INSTRUMENTLARI ..... 9-13
- G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR ..... 9-14
- QO'SHIMCHA AKBDAN ISHGA TUSHIRISH ..... 9-21
- AVTOMOBILNI SHATAKLASH ..... 9-23
- AVTOMOBILNING TASHQI KO'RINISHINI  
PARVARISHLASH ..... 9-26
- IZOHLAR ..... 9-30

## UMUMIY MA'LUMOTLAR

### **Avtomobilning qo'shimcha asbob-uskunalar va modifikatsiyalari**

Asl ehtiyot qismlar va anjomlarni, ushbu avtomobilda qo'llash uchun GM tomonidan ma'qullangan ehtiyot qismlar va komponentlarni qo'llashni tavsiya qilamiz.

GM ushbu avtomobil bilan boshqa mahsulotlar, hattoki agar u texnik talablarga javob bersa yoki boshqa tarzda ma'qullangan bo'lishiga qaramasdan, mos kelishlikni kafolatlashi mumkin emas.

Atrof-muhit muhofazasiga tegishli bo'lgan tizimlarda, jumladan, dvigatel, uzatmalar qutisi, lak-bo'yoq qoplamalari, yonilg'i bug'larini tutib qoluvchi tizim, karterdan otib chiqarishlarni pasaytirish tizimi, OBD, ECM, katalitik neytralizator, so'ndirgich, EGR tizim (agar ko'zda tutilgan bo'lsa), turbokompressor (agar ko'zda tutilgan bo'lsa), va interkuler (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)da asl ehtiyot qismlar va jihozlarni qo'llashga ushbu tavsiya etiladi. Aks holda avtomobilning chiqindilarni chiqarish darajasi standartlarning talablaridan tashqariga chiqib ketishi mumkin.

GM asl bo'lmagan ehtiyot qismlar va komponentlarni qo'llash (jumladan, ammo sanab o'tilganlar bilan chegaralanmasdan, asl bo'lmagan ehtiyot qismlar va komponentlarni qo'llash sababi bo'yicha chiqindilar chiqarish darajasining qonunchilik talablariga nomuvofiqlik, hamda qonun va normativlarni boshqa buzish) bilan chaqirilgan muammolar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

GM kompaniyasining ma'qullashsiz elektr asbob-uskunalar tizimini qayta ishlashga yo'l qo'yilmaydi.

### **Oynalar tonirovkasi bo'yicha maslahatlar**

Tonirovkani tushirish jarayonida yuvuvchi eritma uskunalar majmuasi atrofidagi elektron komponentlarga oson kirib borishi va elektr nosozliklarni chaqirishi mumkin. Tonirovkani tushirishdan avval namgarchilikdan himoyani o'rnatish.

Avtomobilni qayta ishlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Aks holda avtomobilning ekspluatatsiya xarakteristikalarining, uzoq muddat xizmat qilishi va xavfsizligining yomonlashish ehtimoli bor; qayta ishlash oqibatida yuzaga kelgan muammolar kafolat bilan qoplanmaydi.

### **Avtomobilni saqlash**

Agar avtomobil uzoq muddatga saqlashga o'rnatilayotgan bo'lsa, ro'yxat bo'yicha quyidagi tartib-tamoyillarni bajaring:

### **Uzoq muddatli saqlash**

- Mum qoplamasini surtilishiga tayyorlash uchun avtomobilni yuving
- Dvigatel bo'linmasi va tubni mum qoplamasini tekshiring.
- Rezina zichlashtirgichlarini tozalang va ularni himoyalang.
- Motor moyini almashtiring.
- Yuvgich bachogidan suyuqlikni to'kib yuboring.


- Sovituvchi suyuqlikni muzlab qolishdan himoyaga va antikorroziya xususiyatlarini tekshiring.
- Shinalardagi bosimni avtomobilni to'liq yuklanganligi uchun ko'rsatilgan qiymatgacha yetkazing.
- Avtomobilni quruq va yaxshi shamollatiluvchi joyda saqlang. Avtomobilning yumalab ketishini istisno qilish uchun, 1-uzatmaga yoki R (orqaga yurish)ga o'ting.
- Barcha eshiklarni yoping va qullarni qulflang.
- Klemmani avtomobil AKBsini manfiy chiqishidan uzib qo'ying. Barcha tizimlar o'chirilganligini kuzating.

### **Avtomobilni ekspluatatsiya qilishga qaytarish:**

- Avtomobil AKBsining manfiy chiqishini klemmaga ulang. Elektr oyna ko'targichlarni ishlashini tekshiring.
- Shinalardagi bosimni tekshiring.
- Oyna yuvgichning bachogini to'ldiring.
- Motor moyi sathini tekshiring.
- Sovituvchi suyuqlikning sathini tekshiring.



## AVTOMOBILNI TEKSHIRISH

Dvigatel bo'linmasining umumiy ko'rinishi  
1,5 litr turbo dvigatel

1. Havo filtri
2. Dvigatelga moy quyish bo'g'izining qopqog'i

3. Tormoz suyuqligi / gidravlik ilashish muftasi suyuqligi uchun bak
4. Akkumulyator batareyasi

5. Rele va saqlagichlar bloki
6. Dvigatelni sovitish suyuqligi baki
7. Motor moyining sathini tekshirish uchun moy o'lchov tayoqchasi
8. Old oyna yuvish moslamasining suyuqligi uchun bak

**Motor moyini to'g'ri tanlash**

To'g'ri dvigatel moyini tanlash moyning kerakli spetsifikatsiyasi va yopishqoqligi bilan belgilanadi.

**Texnik xususiyatlari**

Dexos1 spetsifikatsiyasi talablariga javob beradigan to'liq sintetik motor moyidan foydalaning. GM dexos1™ spetsifikatsiyasiga javob beradigan dvigatel moyi idishida dexos1 logotipi bo'lishi kerak. [www.gmdexos.com](http://www.gmdexos.com) ga qarang.

**dexos™ 1**  
GM APPROVED-GEN 3

**⚠ DIQQAT!**

Ushbu ko'rsatmalarga rioya qilmaslik dvigatelning shikastlanishiga olib kelishi va kafolatni bekor qilishi mumkin.


**⚠️ DIQQAT!**

Harakatlanish vaqtida kalitni chiqarib olish yoki o't oldirish qulfinda kalitni burash taqiqlanadi. Aks holda, haydovchi avtomobil boshqaruvinini yo'qotadi, tormoz kuchaytirgichi esa tegishli tarzda ishlashdan to'xtaydi, bu avtomobilning shikastlanishiga va jarohatlarga va o'limga olib kelishi mumkin.

**Motor moyi**

Dvigatelni tegishli tarzda moylash uchun motor moyining to'g'ri sathini qo'llab turing.

Motor moyining sathini muntazam tekshiring, masalan, har bir quyishda.

Agar uskunalar panelida motor moyi sathi signalizatori  yonayotgan bo'lsa, motor moyining sathini zudlik bilan tekshiring.

**Motor moyi sathini tekshirish**


1. Avtomobilni tekis maydonga joylashtiring.

2. Dvigatelni o'chirgandan keyin moy may tagligiga sizib tushishi uchun bir necha minut kuting.

Agar dvigatel sovuq bo'lsa, bunga ko'p vaqt talab etiladi.

3. Moyni o'lchash shchupini chiqarib oling va uni arting.

4. Moy o'lchash shchupini to'liq o'rnatning.
5. Moy o'lchash shchupini qayta chiqarib oling.
6. Shchupdagi motor moyini ifloslanishlar mavjud emasligiga tekshiring.



7. Moyning sathini moy o'lchash shchupida tekshiring. U pastki va tepa belgilar orasida joylashgan bo'lishi kerak.

8. Agar moy sathi pastki belgidan pastda joylashgan bo'lsa, xuddi shunday markadagi motor moyini tepa chegaraga yaqinroq, ammo undan oshmagan bo'lishi kerak. Dvigatelning moy quyish qopqog'i silindrlar boshchasi qopqog'ida joylashgan. Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi ⇨ 9-3 ni ko'ring.

**⚠️ OGOHLANTIRISH!**

Motor moyi qo'zg'atuvchi hisoblanadi va uni yutib yuborishda zaharlanishni yoki o'limni chaqirishi mumkin.

- Sovituvchi suyuqlikni bolalar ololmaydigan joyda saqlang.
- Motor moyining ter bilan muntazam yoki uzoq aloqasidan saqlanang.
- Motor moyi bilan ishlagandan keyin terini ochiq maydonlarini sovun yoki maxsus tozalagich bilan yuvib oling.

Motor moyini ortiqcha quymang. Uning sathi moy o'lchash shchupidagi pastki va tepa belgilanishlar orasida joylashgan bo'lishi kerak. Ortiqcha motor moyi dvigatelga salbiy ta'sir qilishi mumkin, jumladan:

- motor moyining yuqori sarflanishi
- motor moyining o't oldirish svechalariga tushib qolishi
- dvigatelda qurumning ahamiyatli qatlamlari

**Motor moyini va moy filtrini almashtirish**

Ifloslangan motor moyi moylash qobiliyatini yo'qotadi. Motor moyini profilaktika xizmat ko'rsatishi tartib-tamoyiliga muvofiq almashtirish shart. Moy filtri motor moyini har bir almashtirilishda almashtirilishi kerak. Og'ir sharoitlarda ekspluatatsiya qilinishida, profilaktik xizmat ko'rsatishning standart tartib-

tamoyillarida ko'rsatilganga qaraganda motor moyi va moy filtrini almashtirishning ancha qisqa intervali talab etilishi mumkin.

#### **OGOHLANTIRISH!**

Moyni almashtirish uchun professional bilim, instrumentlar va asbob-uskunalar talab etiladi; ushbu tartib-tamyoilni bajarish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Aks holda o'zingizga va avtomobilga zarar yetkazishingiz mumkin.

#### **Ekspluatatsiyaning og'ir sharoitlari ostida, jumladan, quyidagilar tushuniladi:**

- Haddan tashqari qizib ketgan dvigatelda harakatlanishni tez-tez boshlash
- Tirbandliklarda dvigatelni tez-tez ishga tushirish va to'xtatish
- Tez-tez qisqa masofalarga qatnash
- Atrof-muhit harorati 0 °C dan past bo'lganida tez-tez safar qilishlar
- Bo'sh aylanishlarda uzoq vaqt ishlash
- Kichik tezlikda tez-tez harakatlanish
- Kuchli changlanganlikda tez-tez safar qilish

#### **DIQQAT!**

Motor moyi va motor moyi bachogi salomatlik uchun zararli moddalarni saqlaydi.

- Motor moyi bilan muntazam yoki uzoq vaqt aloqada bo'lishdan saqlanang.
- U bilan ishlagandan keyin terini sovun bilan suvda yoki qo'llar uchun maxsus yuvish vositasi bilan yuvib oling. Ushbu va boshqa toksik materiallarni bolalar ololmaydigan joyda saqlang.

Motor moyi qo'zg'atuvchi xususiyatlarga ega; ichga tushib qolishida u zaharlanishni yoki o'limni chaqirishi mumkin.

Ishlangan motor moyi va filtrni maishiy chiqindilar bilan birgalikda utilitatsiya qilish taqiqlanadi.

Utilitatsiya uchun chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha mahalliy korxonaga murojaat qiling. Eski motor moyi va filtr odam va atrof-muhit uchun zararli moddalarni saqlaydi.

Mos kelmaydigan yoki past sifatli motor moyini yoki qo'shimchalarni qo'llash dvigatelning shikastlanishiga olib keladi. Qo'shimchalarni qo'llashga urinishdan avval, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

#### **Mexanik uzatmalar qutisi uchun suyuqlik**

##### **Transmission moyning sizib chiqishiga tekshirish**

Ushbu ish professional bilim va asbob-uskunalar talab qiladi. Salomatlik uchun zarar yetkazilishidan va avtomobilning shikastlanishidan saqlanish maqsadida texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

##### **Dvigatelning havo filtri**

Ushbu qo'llanmada keltirilgan profilaktik xizmat ko'rsatish bo'yicha yo'riqnomalarga muvofiq havo filtrini muntazam tekshiring va uni almashtiring.

##### **Havo filtrini tozalash**

Agar filtrlovchi element ifloslangan bo'lsa, uni tozalab oling.

1. Tashqi changni olib tashlash uchun havo filtri elementini silkiting.
  2. Havo filtrini ichidan tozalab oling.
  3. Havo filtrining filtrlovchi elementini tozalashda filtr korpusini nam mato bilan yoping.
  4. Filtr elementini havoni to'plashga qarama-qarshi tomondan siqilgan havo bilan puflab tozalab oling.
- Dvigatelning me'yordagi ishlashi uchun havo toza bo'lishi kerak.

Havo filtri o'rnatilmagan avtomobilni ekspluatatsiya qilmang. Aks holda dvigatelga shikastlanish yetkazilish ehtimoli bor.

### Dvigatelning sovutuvchi suyuqligi

Avtomobilning sovutish tizimi etilenglikol asosidagi sovutuvchi suyuqlik bilan to'ldirilgan. Bunday sovutuvchi suyuqlik to'g'ri konsentratsiyaga ega bo'lganida sovutish va isitish tizimlarida korroziya va muzlab qolishdan a'lo darajadagi himoyani ta'minlaydi.

Sovuq dvigatelda sovutuvchi suyuqlikning sathi sovutuvchi suyuqlik bachogidagi MIN (minimum) va MAX (maksimum) belgilari orasida joylashgan bo'lishi kerak. Sovutuvchi suyuqlikning sathi dvigatel harorati ko'tarilishida ortadi va uning sovushida pasayadi.

Agar sovutuvchi suyuqlikning sathi MIN (minimum) belgisidan pastroq bo'lsa, sovutuvchi suyuqlikni almashtirish yoki uni qo'shib quyish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Oddiy suv yoki noto'g'ri konsentratsiyadagi sovutuvchi suyuqlikning qo'llanilishi sovutish tizimini shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Muzlatishning oldini olish uchun mashinani oddiy suv, spirtli ichimliklar va metanol bilan to'ldirmang. 50/50 miqdorida toza ichimlik suvi va DEX-COOL sovutish suvi aralashmasidan foydalaning.

#### ⚠ OGOHLANTIRISH!


Issiq sovutuvchi suyuqlik va bug' sovutish tizimida katta bosim ostida bo'ladi. Sovutuvchi suyuqlikning yoki bug'ning o'tib chiqarilishi jiddiy jarohatlar olinishiga olib kelishi mumkin. Issiq dvigatelda va radiatorda sovutuvchi suyuqlik uchun bachok qopqog'ini yechmang.

#### ⚠ OGOHLANTIRISH!

Dvigatelni sovutuvchi suyuqligi - xavfli modda

- U bilan ko'p martalik va uzoq muddatlik aloqadan saqlanang.
- Sovutuvchi suyuqlik bilan aloqa qilish holatida terini va tirnoqlarni sovun bilan suvda yuvib oling.
- Sovutuvchi suyuqlikni bolalar ololmaydigan joyda saqlang.
- Sovutuvchi suyuqlik teriga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin, ichga tushib qolish holatida zaharlanishni yoki o'limni chaqirishi mumkin.

### Yuvgich suyuqligi




Harakatlanishni boshlashdan avval yuvgich bachogida yuvuvchi modda yetarlicha ekanligiga ishonch hosil qiling. Sovuq ob-havoda yuvgichning yuvuvchi suyuqlik solingan idishiga juda ko'p suyuqlik quyish mumkin emas. Muzlab qolishda yuvuvchi suyuqlik kengayadi. To'la idishda kengayish uchun joy yo'q bo'lganligi sababli, u shikastlanadi. Idishga qancha yuvuvchi vosita quyish kerakligini servis-markazidan bilib oling.

**⚠️ DIQQAT!**

- Suv yuqmaydigan qo'shimcha qo'shilgan yuvgich suyuqligini qo'llash taqiqlanadi. Bu cho'tkalarining titrashiga yoki oynaning notekis tozalanishiga olib kelishi mumkin.
- Old oyna yuvgichida dvigatelning sovituvchi suyuqligini (antifrizni) qo'llash taqiqlanadi. Ushbu suyuqlik old oyna yuvgichi tizimini va avtomobilning lak-bo'yoq qoplamasini shikastlashi mumkin.
- Yuvgich uchun qo'llash uchun tayyor suyuqlikga suv qo'shish yaramaydi. Suv eritmaning muzlab qolishiga va yuvgich suyuqligi uchun bachokning va yuvgich tizimining boshqa detallarini ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.
- Yuvgich uchun konsentratsiyalangan suyuqlikni qo'llashda suyuqlikni eritish uchun suvning miqdorini ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasida ko'ring.
- Kuchli sovuq ob-havoda yuvgich suyuqligi uchun bachokni faqat to'rtidan uch qismigacha to'ldiring. Bu muzlab qolishda suyuqlikka kengayish imkonini beradi, aks holda chetigacha to'ldirilgan bachokka muzlab qolgan suyuqlik tomonidan shikast yetkazilishi mumkin.

Yuvgich bachogiga tayyor yuvuvchi suyuqlikni qo'shib quyish tavsiya etiladi. Agar konsentrat qo'llanilayotgan bo'lsa, uni ishlab chiqaruvchini ko'rsatmalariga muvofiq aralastiring. Ichimlik suvining qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ichimlik suvida saqlanuvchi mineral tuzlar va ifloslanishlar old oyna yuvgichini quvurchasini tiqiltirib qo'yishi mumkin. Agar haroratning noldan pastga tushib ketish ehtimoli bor bo'lsa, muzlab qolishdan yaxshi himoyalangan yuvuvchi suyuqlikni qo'llang.

**Tormoz tizimi****Tormoz tepkisini yurishini tekshirish**

Tormoz tepkisining yurishi:

Tepkning harakatlanishiga xalal bermaslik uchun, tormoz tepkisi yoniga qalin gilamcha to'shamang. Agar siz avtomobilga pol usti gilamchalarini to'shayotgan bo'lsangiz, ular tepki bosilishiga xalal bermayotganligini kuzating.

Tormoz tepkisining erkin yurishi 0-30 mm.ni tashkil qilishi kerak.

Agar tormoz tepkisi dastlabki holatga qaytmayotgan yoki tepkning yurishi kattalashgan bo'lsa, tekshirish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Bu tormoz tizimida nosozlikka ko'rsatishi mumkin.


**Tormoz suyuqligi**

Avtomobilida tormoz tizimi va ssepleniya suyuqligi uchun bachok mavjuddir. Tormoz tizimi va ssepleniya suyuqligi suvni singdirishga moyildir, ortiqcha suvning saqlanishi esa tormoz tizimi/ssepleniyaning gidravlikasini samaradorligini pasayishiga olib keladi. Gidravlik tizimning korroziyasidan saqlanish maqsadida suyuqlikni avtomobil egasi uchun Qo'llanmadagi yo'riqnomaga binoan almashtiring.

General Motors tomonidan tavsiya etilgan tormoz/ssepleniya uchun suyuqlikni qo'llang. Suyuqlikni bachokka kerakli sathgacha qo'shib quyung. Suyuqlik sathi MIN (minimum) belgisidan pastroqda yoki MAX (maksimum) belgisidan teparoqda bo'lishi kerak. Tormoz

suyuqligining sathini kuchli pasayib ketishining sababi bo'lib tormoz tizimidan sizib chiqish q a n d a y b o ' l s a , t o r m o z kolodkalari/nakladkalarining me'yordagi yedirilishi ham xuddi shunday bo'lishi mumkin. Tizimga ta'mirlash talab etilishini tekshirish uchun, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Agar ta'mirlash talab etilayotgan bo'lsa, gidravlik tormoz tizimi ta'mirlangandan keyin suyuqlikni qo'shimcha quyung. Agar tormoz suyuqligining sathi pastki chegara belgisidan pastroqqa tushsa, tormoz suyuqligining sathi signalizatori (I) yonadi. Tormoz tizimining nazorat lampasi ↪ 4-14 ni ko'ring.

#### Tormoz tizimi/ssepleniya suyuqligini qo'shimcha quyish



Tormoz tizimi/ssepleniya suyuqligi bachogini quyish qopqog'ini ochishdan avval, qopqog' atrofidagi sohani tozalab oling. Tormoz suyuqligining va ssepleniya

gidroyuritmasining ishchi suyuqligini ifloslanishi tizimning ishini buzishi mumkin, bu qimmatbaho ta'mirlashga olib keladi.

1. Bachokning quyish qopqog'i atrofidagi hamma ifloslarni yaxshilab artib yuboring.

2. Qopqoqni oching.

3. General Motors tomonidan tavsiya etilgan tormoz tizimi/ssepleniya suyuqligini MAX (maksimum) belgisigacha qo'shimcha quyung. Suyuqlikni lak-bo'yoq qoplamasi ustiga to'kib yuborishdan ehtiyot bo'ling.

Lak-bo'yoq qoplamasiga suyuqlikning tushib qolishida yuzani sovuq suvda darhol yuvib oling.

4. Bachokning quyish qopqog'ini joyiga o'rnatang.

#### ⚠ DIQQAT!

Tormoz tizimi/ssepleniya suyuqligi teriga va ko'zlarga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi.

- Tormoz tizimi/ssepleniya suyuqligining teriga va ko'zlarga tushishiga yo'l qo'ymang. Tushib qolish holatida shikastlangan sohani sovun bilan suvda yoki qo'llar uchun yuvuvchi vosita bilan yuvib oling.

#### ⚠ DIQQAT!

- Tormoz tizimi/ssepleniyaning ishlatilgan suyuqligini maishiy chiqindi sifatida utilizatsiya qilmang.
- Chiqindilarni utilizatsiyasi bo'yicha mahalliy vakolatlangan tashkilotga murojaat qiling. Ishlangan tormoz tizimi/ssepleniya gidroyuritmasining ishchi suyuqligi va ularning taralari xavfli hisoblanadi. Suyuqlik salomatlik uchun va atrof-muhit uchun xavflidir.

#### ⚠ DIQQAT!

Ortiqcha tormoz tizimi/ssepleniya gidroyuritmasining ishchi suyuqligi yong'inga olib kelishi mumkin. Rezervuarni ortiqcha to'ldirib yubormang. Dvigatelning alanganishi jaroahat yetkazish, avtomobilni va boshqa mulkni shikastlanishi chaqirishi mumkin.

### Oyna tozalagich cho'tkalarini almashtirish

Old oynadagi va cho'tkaldagi begona zarralar oyna tozalagichning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Agar cho'tka tegishli tarzda ishlamayotgan bo'lsa, maxsus yoki neytral yuvuvchi vosita eritmasi bilan old oynani va cho'tkani artib oling. Suv bilan yaxshilab yuvib oling. Agar zarur bo'lsa, tartib-tamoyilni takrorlang. Oynadan olib tashlash imkoni bo'lmagan o'yuvchi moddalar va materiallar (masalan, silikon) bilan old oynani artmang. Cho'tkalar yuzasi moylash va himoyalash uchun grafit qatlamga ega. Ularni haddan tashqari artish va zarurat bo'lmasa jilolash yaramaydi.

Oyna tozalagichni quruq oyna bo'ylab ishga tushirmang. Cho'tkalar eskirishi va deformatsiyasini tezlashtiruvchi yuqori haroratlarga avtomobilni qizib ketishini istisno qilish uchun, uni salqin joyga to'xtab turishga joylashtiring.

Oyna tozalagichlarni ishga tushirishdan avval, old oynadan begona materiallarni - qushlarning tezagini, changlarni, barglarni va hokazolarni olib tashlang; aks holda cho'tkalarining xizmat ko'rsatish muddati pasayadi.


### Oldingi oyna tozalagichlarning cho'tkalarini almashtirish

Oldingi oyna tozalagichlarning cho'tkalari yarim yashiringan konstruksiyaga ega. Cho'tkani almashtirishdan avval, oyna tozalagichni xizmat ko'rsatish holatiga o'rnatish va oyna tozalagich pishangisini taxlang.

Aks holda oyna tozalagichning o'ng pishangisi kapotga teginib turadi va taxlashda lak-bo'yoq qoplamasiga shikast yetkazishi mumkin. Harakatlar tartibi: O't oldirishni ON holatga va so'ngra LOCK holatga o'rnatish. Oyna tozalagichning pishangisini rul chamberagiga ko'taring va kamida 30 sekundda qo'yib yuboring. Oyna tozalagichning pishangisi xizmat ko'rsatish holatiga o'rnatiladi. Cho'tka almashtirilgandan keyin oyna tozalagichning pishangisini qo'yib yuboring va o't oldirishni ON holatga o'rnatish. Oyna tozalagich dastlabki holatga qaytadi.

### Oyna tozalagich cho'tkalarini yechib olish va o'rnatish

Oyna tozalagichning pishangisini ishchi holatda old oynaga o'rnatish.



Dastlab oynatozalagich cho'tkasini qaydlagichini strelka 1 yo'nalishida bosish.

Boshqa qo'l bilan oynatozalagichning dastagi va cho'tka ulanishi joyini ushlab turing.

Dastakdan oynatozalagich cho'tkasini yechib olish uchun uni strelka 2 yo'nalishida pastga o'zgina torting. Dastakdagi P-simon ulagichda oynatozalagichning yangi cho'tkasini o'rnatish va mahkamlab qo'ying.

Orqa oynatozalagich cho'tkasini dastakda o'rnatilish joyidan sug'urib olish kerak.

Cho'tkani o'rnatish uchun, uni o'rnatish nuqtasi bilan moslashtiring va bosish.

## CHO'G'LANMA LAMPALARNI ALMASHTIRISH

### Cho'g'lanma lampani almashtirish

#### **DIQQAT!**

Cho'g'lanma galogen lampalar bosim ostidagi gazni saqlaydi. Ular bilan ehtiyotkorlikda muloqot bo'ling va ularni to'g'ri utilizatsiya qiling.

- Lampalar bilan ko'zlarni himoyalash vositalari yordamida ishleng.
- Lampalarni ishqalanish va tiralishdan asrang.
- Lampa yonib turgan va germetik yopilmaganda, uning ustiga suyuqliklarning tushishiga yo'l qo'ymang.
- Lampani faqat u ushlabturgichga o'rnatilganidan keyingina yoqing.
- Faralarni darz ketish yoki shikastlanish holatida almashtiring.
- Yangi lampani qo'lqopsiz barmoqlar bilan ushlamang.
- Lampalarni bolalar ololmaydigan joyda saqlang.
- Ishlatilgan lampalarni ehtiyotkorlik bilan utilizatsiya qiling. Aks holda ular portlab ketishi mumkin.

#### **DIQQAT!**

- Galogen lampalarni spirt yoki benzin bilan namlangan to'qilmagan sochiq bilan tozalang. Yangi lampani qo'lqopsiz qo'llar bilan ushlamang.

Galogen lampadagi barmoq izlari uning xizmat ko'rsatish muddatini ahamiyatli qisqartirishi mumkin.

#### **DIQQAT!**


Lampani almashtirish uchun professional bilimlar va maxsus asbob-uskunalar talab etilishi mumkin. Almashtirish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish tavsiya etiladi. Noto'g'ri o'rnatish jarohatlarga yoki avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

#### **Faralarning xiralashishi**

Past haroratda yoki faralar ichida yuqori namlikda namlik tushishi mumkin. Faralarni yoqing, va namlik bir oz vaqt o'tgandan keyin parlanib ketadi. Agar bu holat ob-havo bilan ifodalangan bo'lsa, ta'mirlash talab etilmaydi. Agar namlik faralar yoqilganidan keyin parlanmayotgan yoki namlik juda ko'p bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.



## Lampalarning texnik ma'lumotlari




Pozitsiya si	Lampa	Quvvati x soni	Izoh
1	Burilishning oldingi ko'rsatkichi/ oldingi gabarit chiroq/ kunduzgi yurish chirog'i	Nur diodli	
2	Yaqinni yoritish farasi/uzoqni yoritish farasi	2 x 60 Vt (LV1/2) Nur diodli (LV3)	Hb3 (LV1/2)-(LV3)
3	Oldingi tumanga qarshi chiroq 55 Vt Ch2 H7	2 x 55 Vt	H7
4	Burilish ko'rsatkichini yon tomon takrorlagichi	Nur diodli	
5	Individual yoritishning oldingi qorachirog'i	Galogenli/ nurdiodli	
6	Individual yoritishning orqa qorachiroqlari	Galogenli/ nurdiodli	

Pozitsiya si	Lampa	Quvvati x soni	Izoh
7	Tepa stop-signal	Nur diodli	
8	Orqa stop-signal/gabarit chiroq	Nur diodli	
9	Burilishning orqa ko'rsatkichi	Nur diodli	
10	Orqa raqam belgisini yoritish chirog'i	Nur diodli	
11	Orqa gabarit chiroqlar	2 x 5 Vt	W5W
12	Orqa tumanga qarshi chiroq (chap)	21W	P21W
13	Burilishning orqa ko'rsatkichi	Nur diodli	
14	Orqaga yurish chirog'i (o'ng)	16W	W16W
15	Yuk bo'linmasini yoritilganligi	Nur diodli	


## ELEKTR TIZIMI

## Saqlagichlar



## Saqlagichlarni almashtirish

1. Saqlagichlar blokini qopqog'ini oching.
2. Kuygan saqlagichlarni toping.
3. Ularni maxsus yechgich bilan chiqarib oling. Saqlagich yechgichi motor bo'linmasidagi saqlagichlar blokida joylashgan.
4. Kuyish sababini aniqlang va nosozlikni bartaraf qiling.
5. Talablarga muvofiq keluvchi nominal tokka ega bo'lgan yangi saqlagichlarni o'rning. Saqlagichlarning ichki bloki uskunalar panelining chap pastki burchagida joylashgan. Uni saqlash uchun qutini chiqarib olib, ko'rish mumkin.

**Motor bo'linmasidagi saqlagichlar bloki**

Motor bo'linmasidagi saqlagichlar bloki akkumulator batareyasi yonida joylashgan.

**⚠️ DIQQAT!**

Eruvchan saqlagichlarni elektr o'tkazuvchan instrumentlar bilan chiqarib olish taqiqlanadi. Maxsus yechgichdan foydalaning. Metall va boshqa elektr o'tkazuvchi instrumentlarning qo'llanilishi qisqa tutashuvga, elektr asbob-uskunalarning shikastlanishiga va alanganishga olib kelishi mumkin. Bu, shuningdek, jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin.

**⚠️ DIQQAT!**

Yasama saqlagichlarni yoki noto'g'ri turdagi va nominaldagi saqlagichlarni qo'llanilishi avtomobilning elektr asbob-uskunalarning shikastlanishiga va hattoki yong'in sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Faqat ushbu qo'llamada ko'rsatilgan turdagi va nominaldagi saqlagichlardan foydalaning. Ushbu talabga rioya etmaslik jarohatlarga va avtomobilning va boshqa mulkning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Saqlagichlar blokini ichki komponentlarining joylashishi turlicha modellar va konfiguratsiyaga ega bo'lgan avtomobillarda har xil bo'lishi mumkin. Muayyan avtomobil uchun ma'lumotlarga amal qiling.

**AVTOMOBIL INSTRUMENTLARI****Instrument**

1. Domkrat
2. Domkrat dastasi
3. Ballon kaliti
4. Shataklash ilgagi

Faqat domkrat bilan tutib turilgan avtomobil ostida bo'lish taqiqlanadi.

Avtomobil ostida ishlarni bajarish uchun maxsus ko'targichni qo'llash zarur.

Maksimal og'irlik: 1000 kg

Ishchi balandlik: 180-395 mm

## G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR

Asl shinalarning qo'llanilishi maqbul mos keluvchanlikni, harakatlanishda shinamlikni, protektorning xizmat qilishining uzoq muddatini va yaxshi ekspluatatsiya xarakteristikalarini kafolatlaydi.

### **DIQQAT!**

G'ildiraklarni va shinalarni almashtirishda to'g'ri xarakteristikalariga ega bo'lgan yangi g'ildiraklarga va/yoki shinalarga almashtiring. Boshqa texnik xarakteristikalariga ega bo'lgan g'ildiraklarni va/yoki shinalarni qo'llanilishi ABS va boshqa bog'liq tizimlarning buzilishini va hattoki avariya olib kelishi mumkin.

Asl shinalarni yoki g'ildiraklarni almashtirishdan avval texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Aks holda odamlarga jarohat yetkazilishi va avtomobilning va boshqa mol-mulkning shikastlanish ehtimoli bor.

### **Shinalarga va g'ildiraklarga texnik xizmat ko'rsatish**

O'tkir buyumlarni bosishda shinalarni va g'ildiraklarni shikastlanish ehtimoli bor.

Agar bunday bosishdan saqlanish mumkin bo'lmagan bo'lsa, tezlikni pasaytiring.

To'xtab turishga joylashtirishda bordyurga teginmang.

### **Shinalarni muntazam tekshirish**

- Ko'rinuvchan shikastlanishlar
- Begona materiallar
- Teshilishlar
- Kesilishlar
- Yoriqlar
- Yon tomon devorining churrasi

Shuningdek, g'ildirak diskini shikastlanish predmetiga ko'rikdan o'tkazing.

Shinalarning nuqsoni, jumladan, yuqorida sanab o'tilganlar, avtomobilni boshqaruvining yo'qotilishiga va odamlarga jarohat yetkazilishiga olib kelishi mumkin.

Shinalarning yoki g'ildiraklarning shikastlanishi yoki g'ayritabiiy yedirilishi holatida texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Avtomobil radial shinalar bilan butlangan. General Motors almashtirishga xuddi shunday o'lchamdagi, naqshli, protektorning yedirilishiga bardoshligi, harorat va tezlik nominallariga ega bo'lgan radial shinalarni o'rnatishni tavsiya qiladi. Asl shinalardan o'lchami bo'yicha farqlanuvchi shinalar avtomobilning boshqa qismlariga teginishi mumkin, bu shinalarning va avtomobilning shikastlanishiga olib keladi.

Agar avtomobil shinalarda bosimni nazorat qilish tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, teshilishlarni ta'mirlash uchun suyuqlikning qo'llanilishi shinalarda bosimni nazorat qilish tizimi datchiklarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

O'z dileringizga murojaat qiling.


### **Qishki shinalar**

Qishki shinalar muzlagan va qor bilan qoplangan yo'llar bo'ylab harakatlanishda yuqori xavfsizlikni ta'minlashi mumkin. Qishki shinalarni 7°Cdan past haroratda o'rnatish tavsiya etiladi.

Kordning radial joylashishiga ega bo'lgan qishki shinalarni tanlang va barcha to'rtala g'ildiraklarda qishki shinalarga almashtiring. Shinalarni ko'rsatilgan bosimgacha shishiring. Harakatlanish vaqtida shinalar ishlab chiqaruvchisi ko'rsatgan maksimal tezlikdan oshirmang. Qishki shinalar o'rniga barcha mavsumiy shinalarni qo'llash mumkin.

### **Shinalarda havo bosimi 152 bo'limda ko'ring.**

Qulaylik, xavfsizlik va boshqaruvchanlikning maqbul uyg'unlashishi uchun shinalardagi bosim qo'llanmada ko'rsatilganga muvofiq kelishi kerak.



1. Past bosim
2. Qulay bosim
3. Ortiqcha bosim

Shinalardagi bosim haqidagi ma'lumotlarni shinalarning yuklamalari haqidagi ma'lumotli jadvalchada ko'ring. Jadvalcha haydovchining eshigi ostida ostona plastinasida joylashgan.

Shinalarda bosimni sovuq shinalarda aniq o'lchov uskunasi bilan o'lchang. Shinada bosimni tekshirishdan keyin klapan qopqog'ini qotirib qo'ying.

Shinalardagi bosimni sovuq shinalarda har doim tekshiring. Shinalar qizigandan keyin olingan o'lchov natijalar qo'llanilmaydi. Shinalar 1,6 km masofa haydab o'tilganidan keyin qiziydi va ularning to'liq sovishi uchun to'xtagandan keyin uch soatdan ortiq vaqt talab etiladi.

Shinalardagi bosimni yonilg'ini har quyishda va kamida har oy tekshiring. Shinalardagi noto'g'ri bosim:


- Shinalarning yuqori yedirilishi.
- Avtomobilning manevrligini va xavfsizligini yomonlashtiradi.
- Harakatlanishda qulaylikni yomonlashtiradi.
- Yonilg'i sarfining ortishi.
- Hech qanday holatda avtomobilni ortiqcha yuklamang.
- Shinalarni shishirishning to'g'ri bosimini qo'llab turing.
- Sovuq shinalarda shishirilish bosimini (atrof-muhit haroratida) tekshiring.

Shinalarda haddan tashqari past bosim ularning ortiqcha qizishiga va oqibatda ichki shikastlanishlarga, protektor qatlamining ko'chishi va hattoki katta tezlikda harakatlanishda shinalarning yirilishiga olib keladi.

Bosimi yetarli bo'lmagan shinada harakatlanish, hattoki, agar keyinchalik bosim tiklangan bo'lishiga qaramasdan, shikastlanishlarga olib kelishi mumkin.

### Eski shinalarni yangi shinalarga qachon almashtirish kerak

Har doim protektor chuqurligini yedirilish indikatorini bo'yicha muntazam tekshiring. Yedirilish indikatorining holati shina biqinida belgi bilan ko'rsatiladi.




Yedirilish indikatorini (1) ko'rinishdan bo'lib qolgan vaqtda, shinani almashtirish zarur bo'ladi. Yedirilish indikatorini, protektorning qoldiq chuqurligi 1,6 mm.ga teng yoki undan kam bo'lib qolganida, protektor chuqurligida ko'rinishdan bo'lib qoladi.

### ⚠️ DIQQAT!

Shinalari yedirilgan yoki shikastlangan avtomobilni ekspluatatsiya qilmang. Yedirilgan yoki shikastlangan shinalar boshqaruvchanlikning yo'qotilishi va odamlarning jarohatlanishi va avtomobilning va boshqa mol-mulkning shikastlanishi bilan kuzatib boriladigan avariyaning sababi bo'lib qolishi mumkin.

### Shinalarning o'rnini almashtirish



Oldingi va orqa shinalar turli funksiyalarni bajaradi va shuning uchun har xil yediriladi. Oldingi g'ildiraklardagi shinalar orqa shinalarga qaraganda tezroq yediriladi. Shinalarning xizmat muddatini uzaytirish va protektorning notekis yedirilishidan saqlanish uchun:

1. Qo'llanmada ko'rsatilgan bilan muvofiqlikda shinalar rotatsiyasini bajarang.
2. Shinalarda to'g'ri bosimni qo'llab turing.
3. Gaykalarining/boltlarning qotirilganligini tekshiring.

**⚠️ DIQQAT!**

Almashtirish uchun mos kelmaydigan g'ildirak diskalarini va g'ildirak boltlarining qo'llanilishi xavfli bo'lishi mumkin. Bu avtomobilning tormozlanishiga va boshqaruvchanligiga salbiy ta'sir qilishi, shinalardagi bosimning sizib ketishi va avtomobil boshqaruvchanligining yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Bu avariya olib kelishi mumkin, uning oqibatida haydovchi va boshqa odamlar jarohat olishlari mumkin. Har doim mos keluvchi almashtiruvchi g'ildirak diskalarini va g'ildirak boltlarini qo'llang.

Agar avtomobil shinalarda bosimni nazorat qilish tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, shinalar rotatsiyasi yoki ularning almashtirilishidan keyin tizimni qayta initsializatsiya qilish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

**Sirpanishga qarshi zanjirlar**

Sirpanishga qarshi zanjirlarni faqat favqulodda holatlarda yoki qonunchilik bilan o'rnatilgan joylarda qo'llashga ruxsat etiladi. Zanjirlar yetakchi g'ildiraklarga o'rnatiladi.

Sirpanishga qarshi zanjirlar o'rnatilishi bilan harakatlanishda o'ta ehtiyotkor bo'ling. Sirpanishga qarshi zanjirlar o'rnatilganida avtomobilning manevrligi yomonlashadi, zanjirlarning o'zlari esa avtomobil shinalarini, osmalarini va kuzovini shikastlashi mumkin.

Shuning uchun, iloji boricha shina va avtomobilning qolgan qismlari orasida g'ildirak shinasida yetarlicha tirqish qolishi uchun sirpanishga qarshi tross qurilmasidan foydalaning. Sirpanishga qarshi zanjirlar qo'llanilishida o'rnatish bo'yicha yo'riqnomalarni va zanjir ishlab chiqaruvchisining boshqa ko'rsatmalarini diqqat bilan o'rganib chiqing.


Sirpanishga qarshi zanjirlarning o'rnatilishidan keyin soatiga 30 km.dan ortiq bo'lmagan tezlikda yoki zanjirlar ishlab chiqaruvchisi tomonidan tavsiya etgan tezlik limitida harakatlanish tavsiya etiladi (ikki kattaliklardan kichigida).

**G'ildirakni almashtirish****Instrumentlar to'plami****5-o'rinli model uchun instrumentlar to'plami**

Ehtiyot g'ildirak, domkrat va instrumentlar yuk bo'linmasining poli ostida joylashgan; ularga yetib borish uchun, yuk bo'linmasini polini ko'tarish zarur.

Instrumentlarning avtomobil jamlanmasi o'z ichiga domkrat tutqichi, toresli kalitlar, shatakash ilgagi va buragichni kiritadi.

### 7-o'rinli model uchun instrumentlar to'plami



7-o'rinli modelning ehtiyot g'ildiragi avtomobilning orqa qismidagi pol ostida joylashgan.

Domkrat va instrumentlar yuk bo'linmasida joylashgan.

#### Ehtiyot g'ildirak

Garchi ehtiyot g'ildirak shishirilgan bo'lsada, vaqt o'tishi bilan undagi bosim pasayadi. Ehtiyot g'ildiragidagi bosimni muntazam tekshirib turing. Shinalardagi bosim haqidagi ma'lumotlarni shinalar haqidagi ma'lumotli jadvalchada ko'ring. Ixcham ehtiyot g'ildirakni boshqa avtomobillarda qo'llamang. Ehtiyot shinalarni va g'ildiraklarni boshqa

avtomobillarning g'ildiraklari va shinalari bilan qo'llamang, chunki ular o'zaro kelishilmagan. Ehtiyot shinasini uning g'ildirak diskli bilan qo'llash zarur.

Shinalarni almashtirishda ehtiyotkorlik choralari:

1. Avariya chiroqlarini yoqing.
2. Transport harakatisiz xavfsiz joyda qatnov qismidan tashqarida to'xtang.
3. Avtomobil sirpanib ketishi mumkin bo'lmagan yassi qattiq yuzaga avtomobilni to'xtab turishga joylashtiring.

Avariya to'xtashi belgisini oling va uni yo'l harakati qoidalari bilan muvofiqlikda avtomobil orqasida to'g'ri masofaga o'rnatting.

4. Dvigatelni o'chiring va o't oldirish kalitini sug'urib oling.


5. Uzatmalarni o'zgartirish pishangisini 1 (birinchi uzatma) yoki R (orqaga yurish) uzatmaga o'rnatting. To'xtab turish tormozini tortib qo'ying.

6. Avtomobildan barcha yo'lovchilarni tushiring va ularni xavfsiz joyga joylashtiring.

7. Almashtiriluvchi g'ildirakdan diagonal bo'yicha joylashgan g'ildirakni boshmoqlar, kolodkalar yoki toshlar bilan qayd qilib qo'ying.

Ushbu ehtiyotkorlik choralariga amal qilmaslikda sizning avtomobil domkratdan tushib ketishi va jiddiy jarohatlar yetkazishi mumkin.

### Ehtiyot g'ildirakni chiqarib olish - 5-o'rinli model



1 - bo'shashtirilsin, 2 - qotirilsin


1. Instrumentlar tutqichini ehtiyot g'ildirakdan yechib oling.

2. Instrumentlar tutqichini ehtiyot g'ildirakdan yechib oling. Agar avtomobil audiotizim bilan jihozlangan bo'lsa, uning kabelini uzib qo'ying.


3. Ehtiyot g'ildirakning markazidagi quloqli gaykani soat strelkasiga qarama-qarshi tomonga burang va uni yechib oling.

4. Ehtiyot g'ildirakni sug'urib oling.

### Ehtiyot g'ildirakni chiqarib olish - 7-o'rinni model



1. Yuk bo'linmasi eshigini oching va poldan gilamchani oling. Saqlash uchun qutining tubida bolt mavjud, u ehtiyot g'ildirakni ko'tarish uchun xizmat qiladi.
2. Uni ballon kaliti bilan soat strelkasiga qarama-qarshi tomonga, toki ehtiyot g'ildirak yerga tushmagunicha aylantiring.




3. Tros uchidagi mahkamlash plastinasini engashtiring va uni g'ildirakning markaziy tirqishidan chiqarib oling.

### Ehtiyot g'ildirakni saqlash joyiga qaytarish

1. Ehtiyot g'ildirakni zolotnik bilan tepaga qarab qo'ying va tros uchidagi mahkamlash plastinasini g'ildirakning markaziy tirqishiga egilgan holatda o'rnatib.
2. Ballon kaliti bilan soat strelkasi bo'yab valni aylantiring, toki ehtiyot g'ildirak yerdan ko'tarilguniga qadar.
3. Mahkamlash plastina g'ildirakda ishonchli ushlanib turilganini tekshiring.
4. Ehtiyot g'ildiragini ko'tarishda davom eting, toki u avtomobil tubiga zich tiralmagunicha. Ehtiyot g'ildirak zich ushlab turilishi uchun tros o'rtacha kuchlanish bilan taranglashtirilgan bo'lishi kerak.


5. Ehtiyot g'ildirak ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish uchun, uni aylantirishga urinib ko'ring. Agar g'ildirakni siljitish mumkin bo'lsa, ko'targich valini yana burash kerak.
6. Instrumentlarni va domkartni qaytarib ushlagichga yig'ishtirib qo'ying.

### Qo'shimcha domkratlash nuqtalari




Qo'shimcha domkratlash nuqtalari kuzovning yubkasida yon tomonlarda joylashgan va muvofiq detallarda uchburchak belgilar bilan qayd etilgan. Ushbu ko'tarish nuqtalari domkrat bilan ko'tarish uchun mo'ljallangan, bunda domkrat tayanchi uchburchak belgi bo'yicha o'rnatilgan bo'lishi kerak. Ko'tarish nuqtalari maxsus kuchaytirishga ega. Domkratni ular ostiga o'rnatib.




**G'ildirakni almashtirish**


1. Instrumentlarni, domkratni va ehtiyot g'ildirakni chiqarib oling. Diagonal bo'yicha joylashgan g'ildirak ponalar, kolodkalar yoki toshlar bilan qayd etilganligini kuzating.
2. Ensiz kalit (1) bilan g'ildirak gaykasini bir aylanmaga bo'shating.



3. Gaykalarni to'liq bo'shatmang, toki g'ildiraklar yerdan ko'tarilmagunicha. Domkratni to'g'ri holatga o'rnatmasdan avtomobilni ko'tarishga urinmang. Domkrat avtomobil va yer orqasiga ishonchli qotirilgan bo'lishi kerak. Domkratni almashtirilishi kerak bo'lgan g'ildirakka yaqin joylashgan ko'tarish nuqtasi ostidagi nuqtaga joylashtiring. Domkrat boshchasidagi o'yiqli kuzov cheti bukigi bilan birlashtiring.



4. Dastani (B) domkratga ulang.
5. Domkratni asta-sekin ko'tarib va domkrat boshchasi ko'tarish nuqtasiga zich tiralib turganligini kuzatib, dastani soat strelkasi bo'ylab burang.
6. Domkrat to'g'ri holatda joylashganligiga ishonch hosil qilib, toki g'ildirak yerdan taxminan 3 sm.ga uzilmagunicha, dastani aylantirishda davom eting.
7. Avtomobil tayanchdan bexosdan tushib ketmasligi uchun avtomobil tubi ostiga almashtiriluvchi g'ildirak bilan yonma-yon ehtiyot g'ildirakni qo'ying.
8. G'ildirakni qotirish gaykalarini to'liq bo'shating.
9. Almashtiriluvchi g'ildirakni yechib oling.
10. Ehtiyot g'ildirakni gupchakka o'rnatang.



11. Hamma g'ildirak gaykalarini o'rnatish va ularni qo'lda qotiring.
12. Domkrat dastasini soat strelkasiga qarama-qarshi aylantirib, avtomobilni shunday tushirinki, u yerga ishonchli tiralib tursin.
13. G'ildirak gaykalarini ilustratsiyada ko'rsatilgani kabi 1-4-2-5-3 ketma-ketlikda 100–130 N\*m moment bilan qotiring.
14. Nosoz g'ildirakni ehtiyot g'ildirak o'rniga joylashtirish va ishonchli qotiring. Instrumentlarni ushlagichga soling va ularni qotirib qo'ying.

### ⚠️ **DIQQAT!**

Mos kelmaydigan g'ildirak gaykalarini qo'llash yoki ularning yetarli bo'lmagan qotirilishi bo'shab ketishga yoki hattoki harakatlanishda g'ildirakning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Bu avariya olib kelishi mumkin. Mos keluvchi g'ildirak gaykalarini qo'llang. Agar ularni almashtirish kerak bo'lsa, yangi asl g'ildirak gaykalarini xarid qiling. Birinchi imkoniyat paydo bo'lishi bilanoq, sizning avtomobilingizni g'ildiraklari gaykalarini to'g'ri momentgacha dinamometrik kalit bilan qotirib beradigan joyda to'xtang.

G'ildirak gaykalarini 100–130 N\*m moment bilan tortib qotiring.

Avtomobil domkratga ko'tarilgan butun vaqt davomida, domkrat vertikal holatda turishini va sirpanib ketmasligini kuzatib boring.

Avtomobilni g'ildirak almashtirilishi uchun kerakli balandlikka qaraganda yuqoriroqqa ko'tarmang.

Ehtiyot g'ildirakni zarurat tug'ilgan holatda xavfsiz qo'llash mumkin bo'lishi uchun, uni muntazam tekshirib turing. Avtomobildan yechib olingan nosoz g'ildirakni iloji boricha tezroq ta'mirlating.

### ⚠️ **DIQQAT!**

Domkrat bilan ko'tarilgan avtomobil ostiga kirish xavfli. Agar avtomobil domkratdan sirpanib ketsa, siz jiddiy jarohatlar olishingiz yoki hatto halok bo'lishingiz mumkin. Domkrat bilan ko'tarilgan va faqat domkratga tiralib turgan avtomobil ostiga kirish taqiqlanadi.

Agar avtomobilni domkrat bilan ko'tarish uchun sharoitlari yo'q bo'lsa, yoki siz ushbu ishni xavfsiz bajarishingizga ishonchingiz komil bo'lmasa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

### ⚠️ **DIQQAT!**

G'ildirak gaykalarini moy yoki moylama bilan hech qachon moylamang.

Har doim shtatdagi g'ildirak gaykalaridan foydalaning.

Birinchi imkoniyat tug'ilganida, spetsifikatsiyalar bilan muvofiqlikda gaykalarni qotirish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Agar gaykalar noto'g'ri tortib qotirilgan bo'lsa, ular vaqt o'tishi bilan bo'shab qolishi mumkin.

**⚠️ DIQQAT!**

Domkratga ko'tarilgan avtomobil turg'unlikni yo'qotadi, bu avtomobilga zarar yetkazishi va tanaga jarohatlar yetkazish sababi bo'lib qolishi mumkin.

- Faqat ilova qilinuvchi domkratdan foydalaning va uni to'g'ri o'rnatib.
- Domkrat yerga perpendikulyar o'rnatilgan bo'lishi kerak.
- Domkratga o'rnatilgan avtomobil ostida bo'lish mumkin emas.
- Avtomobil domkratga ko'tarilgan vaqtda, uning dvigatelini ishga tushirmang.
- Avtomobilni domkratga o'rnatishdan avval avtomobildan hamma yo'lovchilarni tushiring va ularni avtomobildan va boshqa transportdan xavfsiz masofaga joylashtiring.
- Domkratdan faqat g'ildiraklarni almashtirish uchun foydalanish mumkin.
- Avtomobilni domkrat bilan nishabliklarda yoki sirpanchiq yuzalarda ko'tarmang.
- Domkrat almashtirilishi zarur bo'lgan g'ildirakka yaqindagi ko'tarish nuqtasi ostiga o'rnatiladi.
- Almashtiriluvchi g'ildirakka nisbatan diagonal bo'yicha joylashgan g'ildirakni qayd qiling.

**⚠️ DIQQAT!**

- Avtomobilni domkrat bilan ko'tarishdan avval, to'xtab turish tormozi tortilganligiga va uzatmalarni o'zgartirish pishangisi 1 (birinchi uzatma) yoki R (orqaga yurish) holatiga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.
- G'ildirak almashtirilishini harakatlanuvchi transport yaqinida amalga oshirmang.

Domkratdan foydalanishni boshlashdan avval, to'xtab turish tormozi tortilganligiga va uzatmalarni o'zgartirgichi 1 (birinchi uzatma) yoki R (orqaga yurish) holatiga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. G'ildirakni transportlar oqimida almashtirishga urinmang.

**QO'SHIMCHA AKBDAN ISHGA TUSHIRISH**

Akkumulatori quvvatsizlashgan avtomobilni boshqa mashinaning akkumulatoridan ishga tushirish mumkin.

Agar akkumulator batareyasi quvvatsizlangan bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga, agar siz ushbu ishni mustaqil bajarish uchun yetarlicha elektr texnik malakaga ega bo'lmasangiz, murojaat qiling.

**⚠️ DIQQAT!**

Avtomobil dvigatelini itarib yoki shataklab ishga tushirishga urinmang. Bunday urinishlar katalitik neytralizatorning va uzatmalar qutisini shikastlanishiga va odamlar jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

**Tashqi manbadan ishga tushirishga tayyorgarlik**

1. To'xtab turish tormozini tortib qo'ying.
2. Uzatmalarni o'zgartirish pishangisi N (neytral) holatga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.
3. Barcha elektr uskunalarni o'chirib qo'ying. Avtomobilni tashqi manbadan ishga tushirishdan avval, audiotizimni o'chirib qo'ying. Aks holda audiotizimning shikastlanish ehtimoli bor. Avtomobil uzoq vaqt mobaynida kichik tezlikda harakatlanayotgan vaqtda, kerak bo'lmagan elektr asbob-uskunalarni o'chirib qo'ying.

### Ulovchi simlarni ulash

Avtomobilni tashqi manbadan ishga tushirishda ulovchi simlarni quyidagi tartibda ulang:

1. Birinchi ulovchi simning bir uchini ishlab turgan akkumulator batareyasining musbat klemmasiga ulang. Klemma akkumulator batareyasi korpusi yoki klemmaning o'zida "+" belgisi bilan belgilangan.

2. Ulovchi simning boshqa uchini quvvatsizlangan akkumulator batareyasining musbat klemmasiga ulang. Klemmada "+" belgisi mavjud.

1. Ikkinchi ulovchi simning bir uchini ishlab turgan akkumulator batareyasining manfiy klemmasiga ulang. Klemma akkumulator batareyasi korpusi yoki klemmaning o'zida "-" belgisi bilan belgilangan.

4. Xuddi o'sha simning ikkinchi uchini tokdan mahrum etilgan avtomobilning kuzovi yeriga ulang.

5. Tashqi manbadan ishga tushirishda ishga tushirish amalga oshirilayotgan avtomobil dvigatelini yoqing. Tokdan mahrum etilgan avtomobilning dvigatelini, har bir siklda besh martadan ko'p bo'lmagan o't oldirishni yoqib, bir minutdan ko'p bo'lmagan vaqtga ishga tushirishga urining. Ishga tushirishdan keyin bir necha minutlar davomida 2000 ay/min darajasida dvigatel aylanishini qo'llab turing.

6. Bundan so'ng teskari tartibda avval manfiy, so'ngra musbat ulovchi simlarni ehtiyotkorlik bilan o'chiring.

### ⚠️ DIQQAT!

Akkumulator batareyalari portlashi mumkin. Bunda kislotali elektrolitdan kuyish ehtimoli bor, qisqa tutashuv esa jarohatlarga va sizning avtomobilingizni shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

- Akkumulator batareyalarini ochiq alanga va uchqunlardan uzoqroqda saqlang.
- Dvigatelning boshqa avtomobilning akkumulator batareyasidan ishga tushirishda akkumulator batareyasi ustiga engashmang.
- Simlarning klemmalarini bir-biri bilan teginishiga yo'l qo'ymang.
- Akkumulator batareyalari bilan ko'zlarni himoyalash vositalarida ishlang.
- Elektrolitning ko'zlarga va teriga, matolarga va bo'yalgan yuzalarga tushib qolishiga yo'l qo'ymang.
- Ishga tushirish amalga oshirilayotgan tashqi akkumulator batareyasi quvvatsizlashgan akkumulator batareyasidek xuddi shunday nominal kuchlanishga ega ekanligiga ishonch hosil qiling.
- Quvvatsizlashgan batareyani avtomobilning bort tarmog'idan o'chirib qo'ymang.

### ⚠️ DIQQAT!

Yuqorida keltirilgan ehtiyotkorlik choralariga va ko'rsatmalariga rioya etmaslik holatida akkumulator batareyasining portlashi, kislotali elektrolitdan kuyish va qisqa tutashuvlar ehtimoli bor. Bu ikkala avtomobilning elektr asbob-uskunalarini shikastlanishiga va jiddiy jarohatlar olishga olib kelishi mumkin.

### ⚠️ OGOHLANTIRISH!

Uzaytiruvchi simlar motor bo'linmasidagi aylanuvchi detallarga teginib turmasligi ustidan kuzatib turing. Aks holda avtomobilning jiddiy shikastlanishi va odamlar jarohatlanishi ehtimoli bor.

## AVTOMOBILNI SHATAKKA OLISH

### ⚠ OGOHLANTIRISH!

Quvvatsizlangan batareyaning manfiy (-) uchini ketma-ketlik bo'yicha oxirgi bo'lib ulamang.


Ushbu qisqichni dvigatelning har qanday metall kronshteyniga mahkamlash kerak.

Ushbu kronshteyn akkumulator batareyasidan iloji boricha uzoqroqda joylashishi kerak.

Quvvatsizlangan akkumulator batareyasining manfiy uchiga oxirgi qisqichning ulanishi elektr yoyning yuzaga kelishiga yoki akkumulator batareyasining portlashiga olib kelishi mumkin.

Bu odamlarning jarohat olishiga va avtomobilning detallarini shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Quvvatsizlangan akkumulator batareyali avtomobil dvigatelini taxminan bir minut interval bilan ishga tushiring; ishga tushirishning har bir urinishini davomiyligi 15 sekunddan oshmasligi kerak.




Agar avtomobilni shataklash zarur bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga yoki avtomobil evakuatsiyasi bo'yicha professional kompaniyaga murojaat qiling. Avtomobilni ko'tarma zanjirlarda shataklashga yo'l qo'yilmaydi. Plastinalar ko'rinishidagi tayanchlarni yoki g'ildiraklardan ko'tarishni qo'llash zarur.

### ⚠ DIQQAT!


- Shataklanuvchi avtomobilda yo'lovchilarning bo'lishi taqiqlanadi.
- Shataklashda xavfsiz tezlikni va o'rnatilgan tezlik cheklovlarini oshirish taqiqlanadi.
- Avtomobilning qisman yoki yomon qotirilgan qismlaridan shataklashni bajarish taqiqlanadi. Ushbu ko'rsatmalarga rioya etmaslik odamlarga jarohat yetkazish sababi bo'lib qolishi mumkin.

### G'ildiraklardan ko'tarish bilan avtomobilni shataklash



1. Avariya chiroqlarini yoqing.
2. O't oldirishni ACC holatga o'rnatilgan.
3. Uzatmalar qutisi neytralga o'rnatilgan bo'lishi kerak.
4. To'xtab turish tormozini o'chiring.
5. Shataklashda oldingi g'ildiraklar yerdan ko'tarilgan bo'lishi kerak.

### Avtomobilni platformada evakuatsiyasi



Avtomobilni platformada evakuatsiya qilishda o't oldirishni o'chirilgan holatga o'rnatg va avtomobil evakuatorida yaxshi mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling. Agar avtomobilni orqa g'ildiraklardan transportirovka qilish zarur bo'lsa, oldingi g'ildiraklar yerdan ko'tarilgan bo'lishi kerak. Oldingi g'ildiraklarni yerga tiralish bilan orqa g'ildiraklardan shataklashga yo'l qo'yilmaydi. Aks holda avtomobilning uzatmalar qutisining jiddiy shikastlanish ehtimoli bor.

### Favqulodda holatlarda shataklash


Favqulodda holatlarda evakuator erishimli bo'lmaganida avtomobilni tubdagi oldingi shataklash ilgagiga ulab, uni tros bilan shataklash mumkin. Oldingi shataklash ilgagidan shataklashda faqat shataklash trosini qo'llash mumkin.

Qattiq shataklash balkasidan shataklashga yo'l qo'yilmaydi.

Shataklashda neytralga o'ting va qo'l tormozini tushiring.

Variatorli avtomobillar uchun tros bilan shataklashga yo'l qo'yilmaydi. Faqat platformali evakuatorni qo'llashga ruxsat etiladi. Tros bilan botib qolgan yoki chuqurga tushib ketgan avtomobilni chiqarib olish mumkin, ammo katta masofalarga tros bilan shataklashga ruxsat etilmaydi.

### Oldingi shataklash ilgagi



Avtomobilning old bamperi o'ng tomonida qopqoq bilan yopilgan tirqish mavjud. Qopqoq ostida shataklash ilgagini o'rnatish uchun tirqish joylashgan.

Shataklash ilgagi yuk bo'linmasi poli ostida instrumentlar ushlagichiga joylashtirilgan. Shataklash ilgagini chiqarib oling va uni mahkamlash tirqishiga o'rnatg. Shataklash ilgagini tiralgunicha soat strelkasi bo'ylab burab qotiring. Qotirish qulayligi uchun ensiz kalitni ilgak tirqishiga o'rnatg. Shataklashni boshlashdan avval, shataklash ilgagi ishonchli o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Shataklash jarayonida haydovchi avtomobilda o'tirishi va rul boshqaruvi va tormozlashni boshqarishi kerak. Shataklash yakunlanganidan keyin shataklash ilgagini yechib oling va tirqishni yopib qo'ying, bundan so'ng shataklash ilgagini instrumentlar to'plamiga qaytarib qo'ying.

### Orqa shataklash ilgagi



Avtomobilning orqa bampnerining chap tomonida qopqoq bilan yopilgan tirqish mavjud. Qopqoq ostida shataklash ilgagini o'rnatish uchun tirqish joylashgan. Shataklash ilgagini chiqarib oling va uni mahkamlash tirqishiga o'rmatig. Shataklash ilgagini tiralgunicha soat strekasi bo'ylab burab qotiring. Qotirish qulayligi uchun ensiz kalitni ilgak tirqishiga o'rmatig. Shataklashni boshlashdan avval, shataklash ilgagi ishonchli o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.

Sizning avtomobilingizni og'irligidan yuqori bo'lgan avtomobillarni shataklamang; aks holda avtomobil shikastlanishi yoki avariya ehtimoli bor.

Trosdan avtomobilni shataklash uning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Buzilishlardan saqlanish maqsadida:

- Shataklash ilgagini, agar boshqa shataklash qurilmalari erishimli bo'lmasa, qo'llash kerak.
- Shataklanuvchi avtomobil oldinga burilgan bo'lishi kerak.
- Shataklash trosining va bampnering teginib turilishiga yo'l qo'yilmaydi.
- Shataklash trosining ikkala uchi shataklash ilgagiga mahkam ulanganligini kuzating. Tekshirish uchun shataklash trosidan torting.
- Kichik tezlikda harakatlaning va qiya burilishlardan saqlaning.

Trosdan avtomobilni shataklash boshqaruv yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Buzilishlardan saqlanish maqsadida:

- Shataklash masofasi juda katta bo'lmasligi, va shataklashni kichik tezlikda bajarish kerak bo'ladi.
- G'ildiraklari, uzatmalar qutisi, ko'priklari, rul boshqaruvi yoki tormozlari shikastlangan avtomobilni shataklamang.
- O't oldirish qulfidan kalitni chiqarib olmang; aks holda shataklanuvchi avtomobilning rul boshqaruvi bloklanib qoladi, va u burilishlarni bajarish imkoniga ega bo'lmaydi.

Shataklash tezligi soatiga 30 km.dan, shataklash masofasi esa 40 km.dan oshmasligi kerak.

Agar katta masofalarga evakuatsiya qilish talab etilsa, texnik xizmat ko'sratish stansiyasiga yoki avtomobillar evakuatsiyasi bo'yicha professional kompaniyaga murojaat qiling.

## AVTOMOBILNING TASHQI KO'RINISHINI PARVARISHLASH

### Tozalovchi vositalar

Avtomobilning tashqarisiga tozalovchi vositalarni va kimyoviy moddalarni qo'llashda ishlab chiqaruvchining tavsiyalariga rioya qiling.

Avtomobilni tashqarisini tozalash uchun tajovuzkor tozalovchi vositalarni qo'llamang. Masalan:

- Aseton
  - Lak-bo'yoq materiallari uchun suyuq tashqirgichlar
  - Fayanslarni tozalash uchun vositalar
  - Tirnoqlar uchun lakni yuvgichlar
- Avtomobilni tashqarisidan tozalashda quyidagi tozalovchi vositalarni qo'llash taqiqlanadi, ularning qo'llanilishi matolarni tozalash bo'yicha yo'riqnomalarda maxsus ruxsat berilgan holatlar bundan mustasno:
- Xo'jalik sovuni
  - Oqartirgich
  - Fayanslarni tozalash uchun vositalar

### **DIQQAT!**

Ko'pchilik tozalovchi vositalar xavfli yoki yengil alanganuvchi bo'lishi, yoki odamga yoki avtomobilga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun salon dekorini tozalash uchun aseton kabi suyuq tashqirgichlarni yoki bo'yoqlar uchun suyuq tashqirgichlarni, oqartirgichlarni va tiklagichlarni qo'llamang. Tozalash uchun benzinni qo'llash taqiqlanadi.

Tozalash uchun quyidagi materiallarni qo'llamang:

- Tetraxlormetan
- Benzinli dvigatel
- Benzol
- Kerosin

### **DIQQAT!**

Tozalovchi vositalarning va boshqa kimyoviy moddalarning bug'larini davomli ta'siridan saqlaning. Bunday bug'lar, ayniqsa yopiq yomon ventilyatsiya qilinuvchi xonalarda bo'lishda, xavfli va salomatlik uchun zararlidir.

### Avtomobilni yuvish

Sizning avtomobilingizni lak-bo'yoq qoplamasini sifatini saqlab qolishning eng yaxshi usuli - uni toza holatda saqlash va muntazam yuvib turishdir.

- Avtomobilni to'xtab turishga shunday joylashtiringki, bunda unga to'g'ri quyosh yorug'ligi tushmasin.
- Avtomobilni yo'riqnomada ko'rsatilgan neytral suyuq yuvuvchi vositalar bilan sovuq yoki iliq suvda yuving.
- Yuvuvchi vositalarning qoldiqlarini suv oqimi ostida yaxshilab yuvib yuboring.

General Motors avtomobillari atrof-muhitning odatiy sharoitlarida va oddiy tabiiy omillar ta'sirida ekspluatatsiya qilishga mo'ljallangan.

Avtomobilni yuvish uchun idish-tovoqlarni yuvish mashinalari uchun vositalarni qo'llamang.

Bunday vositalar lak-bo'yoq va mum qoplamasini yuvib yuborishi mumkin.

Yuvishda juda yuqori bosimdagi suvni qo'llamang. Suv ichkariga tushib qolishi va salonn shikstlashi mumkin.

### Sayqallash va mum bilan qoplash

Muntazam sayqallash kuzovning yuzasidan chang qatlamini olib tashlashga imkon beradi. Sayqallashdan keyin himoyani yaxshilash uchun yuzaga yuqori sifatli mum bilan ishlov bering.

Alyumin dekorni yuvish va sayqallash uchun lak-bo'yoq qoplamalari va xrom uchun sayqallovchi vositalarni, bug'ni va ishqorli yuvuvchi vositalarni qo'llamang. Ushbu materiallar abraziv ta'sirga ega va dekorga va g'ildirak disklariga shikast yetkazishi mumkin.

### Yaltiroq tashqi metall detallarni himoyalash

Yaltiroq metall dekorni muntazam tozalab turing. Odatda suv bilan yuvish yetarlicha bo'ladi. Avtomobilga mum bilan ishlov berishda, mumni, shuningdek, yaltiroq metall dekorga ham surting.



### **Alyumin g'ildirak disklerini va g'ildiraklarning dekorativ qalpoqlarini tozalash**

G'ildirak diskleri va g'ildirak qalpoqlari (agar mavjud bo'lsa) o'zlarining dastlabki ko'rinishini saqlab qolishi uchun, ularning ustida ko'cha changining va tormozlardan changning to'planib qolishiga yo'l qo'ymang.

G'ildirak disklerini va qalpoqlarni muntazam tozalab turing. Lak-bo'yoq qoplamasiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan abraziv tozalash vositalarini va cho'tkalarni qo'llamang.

Alyumin g'ildirak disklerini va qalpoqlarni tozalash uchun abraziv tozalash vositalari va cho'tkalarni qo'llamang.

### **Old oynani tashqaridan tozalash**

Old oynaga mum va boshqa materiallarning tushib qolishida oyna tozalagichlar siltanib harakat qilishni boshlashi mumkin.

Bundan tashqari, bunday begona materiallar oynaning ifloslanishiga zamin yaratishi mumkin. Old oynaning tashqi yuzasini noabraziv tozalovchi vositalar bilan muntazam tozalab turing.

Toza old oynada suv tomchilarda yig'ilmaydi.

### **Korroziyadan himoyalash**

General Motors avtomobillari antikorroziya himoyasiga ega. Avtomobilning ko'pchilik detallarida maxsus materiallarning va

himoyalovchi lak-bo'yoq qoplamalarining qo'llanishi tashqi ko'rinishni, mustahkamlikni va ishonchlikni yaxshi saqlanishiga imkon beradi. Garchi motor bo'linmasi ichidagi yoki avtomobil tubidagi ba'zi detallarning yuzasi zang bilan qoplanishi mumkin bo'lsa, ushbu detallarning ishonchligi va layoqatligi bundan a'ziyat chekmaydi.

### **Tunuka ishlari**

Agar kuzovning detallarini ta'mirlash yoki almashtirish zarurati yuzaga kelayotgan bo'lsa, ta'mirlash ustaxonasi antikorroziya himoyasini tiklash uchun tegishli tarzdagi korroziyaga qarshi materiallarni qo'llashi ustidan kuzatib turing.

### **Begona materiallar to'planishi**

Quyidagi moddalar lak-bo'yoq qoplamasining shikastlanishini chaqirishi mumkin:

- Kalsiy xloridi va boshqa tuzlar
- Yaxvonlikka qarshi vositalar
- Gudron va asfalt
- O'simliklarning sharbatlari
- Qushlarning tezagi
- Sanoat ishlab chiqarishidan chang

Avtomobil kuzovidan zararli moddalarni o'z vaqtida olib tashlang. Agar moddani sovuqli eritma bilan olib tashlash imkoni bo'lmayotgan bo'lsa, maxsus tozalovchi vositalarni qo'llash mumkin.

### **Yakuniy qoplamaning shikastlanishi**

Lak-bo'yoq qoplamasidagi toshlardan qirilishlarni, darzlarni va chuqur shikastlanishlarni iloji boricha tezroq ta'mirlang. Himoyalangan metall korroziyaga moyildir. Mayda darzlar va qirilishlarni tez quruvchi vositalar bilan ta'mirlash mumkin. Yirik shikastlanishlarni texnik xizmat ko'rsatish stansiyasida yoki lak-bo'yoq qoplamalarini ta'mirlash bo'yicha ixtisoslashgan ustaxonalarda bartaraf qilish tavsiya etiladi. Faqat lak-bo'yoq qoplamasi yuzasini shikastlamaydigan xavfsiz tozalovchi vositalarni qo'llang.

Boshqa tozalovchi vositalar lak-bo'yoq qoplamasiga tiklab bo'lmaydigan zarar yetkazishi mumkin.

### **Kuzov tubiga texnik xizmat ko'rsatish**

Avtomobil tubida qor, muz va chang bilan kurashish uchun qo'llaniluvchi korroziy-faol moddalar to'planishi mumkin.

Ularning o'z vaqtida olib tashlanmasligi tezlashtirilgan korroziyaga va zangning hosil bo'lishiga olib keladi.

Avtomobil tubini toza suvda muntazam yuvib turing. Iflosliklar to'planishga moyil bo'lgan joylarni sinchkovlik bilan yuving. Suv bilan ifloslarni yuvib yuborishdan avval, chuqurliklarda to'planib qolgan iflosliklarni tozalab oling.

Zarurat tug'ilganida texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga yordam uchun murojaat qiling.

### Avtomobil salonini parvarishlash

Salonni tozalash uchun tegishli tarzda tozalash uslublarini va materiallarni qo'llang. Changyutgich yoki yumshoq cho'tka yordamida mato qoplamasida to'planib qolgan changni tez-tez tozalab tashlang.

Vinil, plastik va teri qismlarni toza nam matoda tozalab artib oling. Dekorativ elementlardagi changni, tomchilarni va dog'larni mos keluvchi tozalovchi vositalar bilan olib tashlang.

Salon qoplamasini tozalash uchun tegishli tarzda tozalash uslublarini va materiallarini qo'llang. Aks holda suvdan izlarning, yirik naqshlarning va olib tashlanmaydigan dog'larning, ayniqsa birinchi yuvishda, hosil bo'lish ehtimoli bor. Ushbu moddalar avtomobilni tiklab bo'lmaydigan shikastlashi mumkin.

### Tozalovchi vositalar

Avtomobilning ichkarisiga tozalovchi vositalarni va kimyoviy moddalarni qo'llashda ishlab chiqaruvchining tavsiyalariga rioya qiling.

Avtomobil salonini tozalash uchun tajovuzkor tozalovchi vositalarni qo'llamang. Masalan:

- Aseton
- Lak-bo'yoq materiallari uchun suyultirgichlar
- Fayanslarni tozalash uchun vositalar
- Tirnoqlar uchun lakni yuvgichlar

Avtomobil salonini tozalashda quyidagi tozalovchi vositalarni qo'llash taqiqlanadi, ularning qo'llanilishi matolarni tozalash bo'yicha yo'riqnomalarda maxsus ruxsat berilgan holatlar bundan mustasno:

- Xo'jalik sovuni
- Oqartirgich
- Fayanslarni tozalash uchun vositalar

#### **DIQQAT!**

Ko'pchilik tozalovchi vositalar xavfli yoki yengil alanganuvchi bo'lishi, yoki odamga yoki avtomobilga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun salon dekorini tozalash uchun aseton kabi suyultirgichlarni yoki bo'yoqlar uchun suyultirgichlarni, oqartirgichlarni va tiklagichlarni qo'llamang. Tozalash uchun benzinni qo'llash taqiqlanadi.

Tozalash uchun quyidagi materiallarni qo'llamang:

- Tetraxlormetan
- Benzinli dvigatel
- Benzol

Salonda tozalovchi moddalarni va boshqa kimyoviy moddalarni qo'llayotganda, tegishli tarzda ventilyatsiya uchun eshiklarni ochib qo'ying.

Salonning och detallarini rangini tiklab bo'lmas o'zgartirilishidan saqlanish maqsadida o'rindiqlar qoplamasi bilan oson bo'ylovchi

matolarning aloqa qilishiga yo'l qo'ymang, ikkala materiallar mutlaqo quruq hisoblanuvchi holatlar bundan mustasno.

Oson bo'ylovchi materiallarning misollari:

- Erkin stildagi kiyim-kechaklar
- Djinsi matolar
- Teri
- Zamsh
- Gazetalar va dekorativ qog'oz

#### **DIQQAT!**

Tozalovchi vositalarning va boshqa kimyoviy moddalarning bug'larini davomli ta'siridan saqlaning. Bunday bug'lar, ayniqsa yopiq yomon ventilyatsiya qilinuvchi xonalarda bo'lishda, xavfli va salomatlik uchun zararlidir.

### Xavfsizlik kamarlariga xizmat ko'rsatish

Xavfsizlik kamarlarini toza va quruq holatda saqlang. Kamarlarning sayqallovchi vositalar, moylar va kimyoviy moddalar, ayniqsa akkumulator batareyasining elektroliti, oqartiruvchilar va bo'yovchilar bilan ifloslanishiga yo'l qo'yilmaydi. Bunday ifloslanishlar xavfsizlik kamarining materiali mustahkamligini pasaytiradi. Xavfsizlik kamarlarining barcha qismlarini muntazam tekshirib turing. Shikastlangan detallarni va xavfsizlik kamarlarini zudlik bilan almashtiring.

Xavfsizlik kamarlari va avariya yuklamaga uchragan bog'liq detallarini, hattoki agar shikastlanishlar sezilarli bo'lmasa yoki ko'rinmas bo'lsa ham almashtirish zarur. Almashtirishga o'rnatiluvchi xavfsizlik kamari yangi bo'lishi kerak.

General Motors avariya dan keyin xavfsizlik kamari tizimini to'liq almashtirishni tavsiya qiladi. Agar xavfsizlik kamari texnik xizmat ko'rsatish stansiyasida tekshirilgan va shikastlanmagan deb tan olingan bo'lsa, almashtirish talab etilmaydi.

Xavfsizlik kamari o'z funksiyalarini bajarishi uchun, uni yaxshi holatda saqlash zarur.

### **Oynalarning yuzasi**

Oynalarning yuzasi toza bo'lishi uchun kuzatib boring, bu yorug'lik shu'lalarini pasaytirishga va ko'rish maydonini oshirishga yordam beradi.

Abraziv tozalovchi vositalarni qo'llanilishi oynada tiralishlarning hosil bo'lishiga va orqa oynani isitish o'tkazgichlarining shikastlanishiga olib keladi.

Avtomobilning oynalarini tozalash uchun abraziv tozalash vositalarini qo'llamang. Aks holda haydovchi uchun ko'rish maydonining yomonlashishi ehtimoli bor.

Yopishtirma yorliqlar orqa oyna isitgichini ishini buzadi.

Yopishtirma yorliqlarni orqa oynaning ichki tomoniga yopishtirmang. Aks holda haydovchi uchun ko'rish maydonining yomonlashishi ehtimoli bor.



# 10

## SERVIS VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

---

- UMUMIY MA'LUMOTLAR .....10-2
- TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH JADVALI .....10-2

- TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH  
REGLAMENTI ..... 10-3

### UMUMIY MA'LUMOTLAR

1. Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha biz dilerga murojaat qilishni tavsiya qilamiz, chunki diler hammadan ko'ra sizning avtomobilingizni yaxshiroq biladi. Siz firma jihozlari va malakali texnik xizmat ko'rsatish bilan ta'minlangan bo'lasiz. Sifatni faqat diler kafolatlashi mumkin.
2. GM nofirma detallarini va komponentlarini qo'llash (jumladan, bundan tashqari, nofirma detallarni va komponentlarni qo'llash yoki qonun va me'yoriy hujjatlarni boshqa buzilishlari oqibatida chiqindi gazlarni chiqarish normativlariga rioya etmaslik) bilan chaqirilgan biron bir muammol uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
3. Kafolat davrida diler tomonidan muntazam texnik xizmat ko'rsatilishi bajarilmaydigan avtomobillar texnik xizmat ko'rsatish va uning oqibatida yuzaga kelgan nosozliklar bilan bog'liq hajmda kafolatli xizmat ko'rsatishdan mahrum qilinadi.
4. Ushbu qo'llanmani texnik xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlash vaqtida dilerga taqdim etish kerak. Ushbu qo'llanmani va unda texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan ma'lumotlarni albatta saqlab qo'ying. Ushbu ma'lumotlar kafolatli xizmat ko'rsatish imtiyozlaridan foydalanish uchun sizga va nosozlik sababini tahlil qilish uchun dilerga muhimdir. Diler "Texnik xizmat ko'rsatishni ro'yxatga olish blankasi"da muhr

### TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH JADVALI

#### Texnik xizmat ko'rsatish jadvali

##### Izoh

Texnik xizmat ko'rsatish rejasi faqat ma'lumot uchun keltirilgan va mamlakatga bog'liq holda farq qilishi mumkin.

- qo'yishi kerak. Diler ushbu qo'llanmani olib qo'yish va o'zida saqlash huquqiga ega emas. Kafolatli xizmat ko'rsatish shartlariga rioya etayotgan avtomobil uchun, diler kafolatli xizmat ko'rsatishni taqdim etishda biron bir sababsiz rad etishi mumkin emas.
5. Avtomobilda qimmatbaho buyumlarni qoldirmang. GM kompaniyasi ular uchun o'ziga javobgarlikni olmaydi.
6. Agar sizga yordam talab etilayotgan bo'lsa, yaqindagi Chevrolet diloriga murojaat qiling.
7. Xizmat ko'rsatishda qo'llanmada ko'rsatilgan vaqt va bosib o'tilgan masofani, qaysi biri avval boshlanishiga bog'liq holda, nazarda tutish kerak.
8. Ushbu qo'llanma bilan qamrab olinmagan yoki amaldagi davlat qonunlari va me'yoriy hujjatlariga muvofiq kelmaydigan har qanday savollar, qo'llaniluvchi davlat qonunlari va me'yoriy hujjatlari ta'siri ostida bo'ladi.

### TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjatlarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'li, km (x 1000)	1	7	13	19	25	31	37	43	49	55	61	67	73	79
	Xizmat qilish muddati, oylar	3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81
Tasma tarangligi va shkivning natyajiteli		<b>57 000 km da almashtiring</b>													
Yordamchi agregatlar yuritma tasmasi	(2)	<b>100 000 km da almashtiring</b>													
Motor moyi va moy filtri	(1) (2) (12)	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R
Benzinga yuvish vositalarini qo'shing		<b>Har 5000 km da qo'shing.</b>													
Sovutish tizimining naylari va chiqish naylari, va ularning ulanishlari		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Yonilg'i filtri	(1) (2)		I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I
Dvigatelnin sovutuvchi suyuqligi	(2) (3)	<b>20 000 km yoki 2 yil dan keyin almashtirish</b>													
Yonilg'i nayi va uning ulanishlari		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Havo tozalagichning filtruvchi elementi (IYD havo filtri)	(5)	I	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I
O't oldirish svechalari	(4)		I	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R
EVAP baki (yonilg'i bug'lanishini tutib qolish tizimi) va bug' naylari			I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Konditsioner tizimining ishlashini tekshirish.	(*)	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I

#### Belgilanishlar:

**I** - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

**R** - almashtirish;

**(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi 14-betidagi yoki Foydalanish qo'llanmasida Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limiga qarang;**

**(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;**

**(4) Tavsiya etilmagan sifatga mos kelmaydigan yonilg'idan foydalanganda, har bir texnik xizmat ko'rsatishda tekshirish, va odatdagi TXK ga nisbatan ikki baravar tezroq almashtirish talab etilishi mumkin. Ushbu ishlar TXK o'tkazilganda qo'shimcha ish deb hisoblanadi. Yonilg'iga qo'yiladigan talablar Foydalanish Qo'llanmasida bayon etilgan;**

**(5) Agar avtomobil tuproq yo'llarida foydalanilsa, uni har bir 6 000 km yoki 3 oy foydalanishdan keyin tekshirish kerak. Zarur bo'lganda ta'mirlash, tozalash yoki almashtirishni o'tkazing.**

**(12) Agar dvigatel moyining qoldiq umrining ko'rsatkichi mavjud bo'lsa, uning haqiqiy ko'rsatkichlarga foydalanish sharoitlariga qarab rioya qilish kerak. Dvigatel moyini o'zgartirish intervallari qisqartirilishi mumkin;**

**(\*) Qabul qilgich-quritgich har besh yilda almashtiriladi.**

### TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI (davomi)

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjatlarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'l, km (x 1000)	1	7	13	19	25	31	37	43	49	55	61	67	73	79
	Xizmat qilish muddati, oylar	3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81
Gaz taqsimlash mexanizmining yuritma zanjiri, remen va natyajitel (6)							I						I		
Salonning havo filtri (havo konditsioneri) (7)			I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I
PCV tizimi (karterni shamollatishni boshqarish tizimi)			I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Ishlangan gazlarni chiqarish tizimi va uni mahkamlash		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Tormoz suyuqligi (ilashish muftasi va tormoz tizimi) (2) (8)			I	I	R	I	I	R	I	I	R	I	I	R	I
Oldingi tormoz kolodkalari va diskleri (9)			I	I	I	I	R	I	I	I	I	R	I	I	I
Orqa tormoz kolodkalari va diskleri, yoki barabanlari va ustki qoplamlari (9)			I	I	I	I	I	I	I	I	I	R	I	I	I
To'xtab turish tormozi			I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Tormoz tizimi va uning ulanishlari (shu jumladan kuchaytirgich)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Shassi, yurish qismi, dvigatelning ulamalari va kuzov asosining boltlari va gaykalarini shikaslanmaganligini tekshirish va mahkamlash		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I

#### Belgilanishlar:

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tartib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;

(6) Almashtirish:

-Remen har bir 120 000 km dan keyin ;

(7) Tuproq yo'llarida foydalaniladigan avtomobillar uchun tez-tez texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi;

(8) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa, har bir 15 000 km dan keyin yoki bir yildan so'ng foydalanish materiallarini almashtirish kerak bo'ladi:

- tepalikli yoki tog'li joylarda yurish yoki

- tirkama bilan tez-tez yurish;

(9) Og'ir sharoitlarda foydalanilganda, tez-tez texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi: qisqa masofalarga yurish, uzoq vaqt davomida dvigatelni salt ishlash rejimida yurgizish, tez-tez yo'lda tirbandlikda tiqilib qolish sharoitida past tezlikda yurish, tuproqli yo'llarda yurish.



**TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI (davomi)**

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjatlarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'l, km (x 1000)	1	7	13	19	25	31	37	43	49	55	61	67	73	79	
	Xizmat qilish muddati, oylar	3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81	
Mexanik uzatmalar qutisining transmissiya moyi	(2)	I	I	I	R	I	I	R	I	I	R	I	I	R	I	
Avtomatik uzatmalar qutisining transmissiya moyi	(2)	<b>60 000 km da almashtiring</b>														
Shinalar: havo bosimi, eskirish va zararni tekshirish, zarurat tug'ilganda o'rinlarini almashtirish. G'ildirak boltining mahkamlash momentini tekshirish. Agar me'yordan chetlashish kuzatilsa, g'ildirakning o'rnatma burchagini tekshiring.	(11)	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
G'ildiraklarni o'rnatish burchaklari		<b>Tekshirish, normadan chetlanishlar mavjud bo'lsa</b>														
Rul g'ildiragi va rul mexanizmi		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
Xavfsizlik tasmalari, ularni kuzovga mahkamlash to'qalari va tugunlari		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
Qulflar, oshiq-moshiqlar, kapot qulfini moylash, kuzovni tekshirish		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
Avtomobilning diagnostikasi, ko'rsatkichlarini sozlash			I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
Elektr jihozlar, faralar, tozalagichlar, yuvish moslamalari, AKBni tekshirish		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
Ilashish muftasi va tormoz pedallarining erkin yurishi		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
Yonilg'i bakini tekshirish va tozalash			I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
Gazli tayanchlarning eskirishlarini, yerilishlarini va boshqa shikastlanishlarini tekshirish		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	

**Belgilanishlar:**

**I** - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

**R** - almashtirish;

(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;

(11) Shinalarning holatini dvigatelni ishga tushirishdan avval, shinalardagi havo bosimini esa - yonilg'i bakiga har bir yonilg'i quyishda yoki, hech bo'lmasa, oyda bir marta (manometrdan foydalanib) tekshirish kerak. Shinalar har 10 000 km da almashtiriladi.

### **Rejadan tashqari texnik xizmat ko'rsatish**

Agar avtomobil quyida ko'rsatilgan og'ir sharoitlarda ekspluatatsiya qilinayotgan bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatishni Rejadan tashqari texnik xizmat ko'rsatish jadvaliga muvofiq yoki, zarurat tug'ilgan bo'lsa, muddatidan ilgari bajarish kerak bo'ladi.

- Ko'pchilik safarlar kamida 10 km uzoqlikka amalga oshiriladi. Avtomobil har doim 0°C dan past yoki 35°C dan yuqori havo haroratida ishlatiladi
- Tirbandlikda harakatlanish (avtomobil tez-tez o'chiriladi va o't oldiriladi, kichik tezlikda harakatlanadi yoki uzoq vaqt yuklamasiz yurishda ishlaydi)
- Keskin tezlashish va sekinlashish bilan yuqori tezliklarda tez-tez harakatlanish. Chang yo'llar yoki tepalik yoki tog'li joylardan tez-tez harakatlanish
- Avtomobil maxsus maqsadlarda qo'llaniladi, masalan, ijaraga berish uchun, taksi xizmatlarini taqdim etish yoki politsiya avtomobili sifatida

### **Avtomobil egasi tomonidan tekshirishlar va texnik xizmat ko'rsatish**

Salon asbob-uskunalarini, tashqi asbob-uskunalarini va motor bo'linmasini avtomobil xavfsizligini va ishlashini ishonchligini saqlab qolish uchun muntazam tekshiring.

#### **Avtomobilning tashqi asbob-uskunolari**

##### **Shina**

- Shinalarni to'g'ri shishiring. G'ildiraklar va shinalar ⇨ 9-14ni ko'ring.
- Shina biqinida va protektorida yoriqlarning mavjud emasligini tekshiring.
- Protektor naqshida begona buyumlarning mavjud emasligini tekshiring.

##### **Lampa**

- Ularga proyektor faralari, oldingi faralar, orqa chiroqlar, burilish ko'rsatkichlari, stop-signallar va tumanga qarshi faralar taalluqlidir.

##### **Moy bachogi**

- Kapot ostidagi suyuqlik solingan konteynerlarni tegishli sathini tekshiring.

##### **Old oyna oynatozalagichi**

- Oynatozalagichining pishangilarini va cho'tkalarini tekshiring.

### **Avtomobil salonining asbob-uskunolari**

#### **Rul boshqaruvi**

- Rul chamberagida lyuft (bo'sh yurish) mavjud emasligini tekshiring.

#### **To'xtab turish tormozi**

- To'xtab turish tormozining tegishli ishchi yurishini tekshiring.

#### **Uskunalar paneli**

- Barcha uskunalar, boshqaruv tugmalari va signalizatorlarning me'yorda faoliyat yuritishini tekshiring.

#### **Orqani ko'rish toshoynalari**

- Orqani ko'rish toshoynalarining akslantiruvchi yuzasi yaxshi va toza holatda ekanligini tekshiring.
- Barcha orqani ko'rish toshoynalarining holati sozlanishini tekshiring.

#### **Tutqich**

- Tormoz tepkisini va ssepleniya tepkisini tegishli ishchi yurishini tekshiring.

# 11

## TEXNIK MA'LUMOTLAR


- 
- AVTOMOBILNING IDENTIFIKATSIYA  
MA'LUMOTLARI .....11-2

- AVTOMOBIL MA'LUMOTLARI .....11-4

## AVTOMOBILNING IDENTIFIKATSIYA MA'LUMOTLARI


**Avtomobilning identifikatsiya raqami (VIN)**  
Avtomobilda odatda to'rtta VIN markirovkalari qo'llaniladi.

### VIN uskunalar panelida




Bu qonuniy o'rnatilgan avtomobilning identifikatsiya belgisidir. VIN haydovchi tomonidan uskunalar panelini old burchagida ko'rsatilgan. U oldingi old oyna orqali tashqaridan ko'rinadi.

### VIN dvigatel kapoti ostida sayqallangan shtamp



Oyna tozalagichdan pastroqda dvigatel kapoti ostida joylashgan.

### Avtomobilning identifikatsiya jadvalchasi




Ushbu qog'oz jadval old yo'lovchining eshik ramasiga joylashtirilgan.

**Orqa ko'tariluvchi eshik ostidagi VINli yopishtirma yoriq**



Orqa ko'tariluvchan eshikni oching, yopishtirma yoriq o'ng tomonda orqa ko'tariluvchi eshikning tirgovuchidan pastroqda joylashgan.

**Dvigatel belgilanishi**



Maxovik yonida dvigatelning silindrlar blokiga joylashtirilgan.

## AVTOMOBIL MA'LUMOTLARI

## Izoh

Ba'zi ta'riflar modifikatsiyalar, davlat me'yorlari, o'rnatilgan maxsus asbob-uskunalar yoki aksessuarlarning farqlanishi sababli sizning avtomobilingizga taalluqli bo'lmastigi mumkin.

## Dvigatel ishlashining asosiy parametrlari

Bo'g'im yoki agregat	O'lchov birliklari	Parametr
		Dvigatel modeli: LJ0
		Uzatmalar qutisi modeli: CTF25A, F625C5
Dvigatel turi	-	To'rt traktli, suv sovutishli, qatorli, 16-klapanli, yuqori joylashishli ikkilamchi raspredval bilan, DVCP (ikkilamchi raspredvalning gaz taqsimlash fazalarini uzluksiz sozlash) tizimli, GTM (gaz taqsimlash mexanizmi) zanjirining yuritmasi bilan, turbohavo kiritish bilan, yonilg'ini sachratish elektron boshqariluvchi tizimli, elektron boshqariluvchi o't oldirish bilan
Silindr diametri × ishchi yurish	mm × mm	73.8 × 84.8
Ishchi hajm	l	1,451
Siqilish darajasi	-	9.8:1

**Dvigatel ishlashining asosiy parametrlari (davomi)**

<b>Bo'g'im yoki agregat</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Parametr</b>
		<b>Dvigatel modeli: LJ0</b>
		<b>Uzatmalar qutisi modeli: CTF25A, F625C5</b>
Nominal quvvat / aylanish chastotasi	kVt / (ay/min)	111/5200
Maksimal foydali quvvat / aylanish chastotasi	kVt / (ay/min)	108/5200
Maksimal aylantiruvchi moment / aylanish chastotasi	Nm / (ay/min)	255 / (1600~3600)

**Dvigatel ishlashining asosiy parametrlari (davomi)**

<b>Bo'g'im yoki agregat</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Parametr</b>
		<b>Dvigatel modeli: LJ0</b>
		<b>Uzatmalar qutisi modeli: CTF25A, F625C5</b>
Bo'sh yurish aylanishlari	ay/min	750±50
Yuritma turi	-	Dvigatelning oldinda joylashishi, oldingi yuritma
Yonilg'ining turi va markasi	-	Motor benzini RON 92 va undan yuqori
Butlangan avtomobilning ekologik sinfi	-	Tier II Bin 5



**Butlangan avtomobilning sifatini asosiy parametrlari**

Bo'g'im yoki agregat	O'lchov birligi	Parametr			
		LZW6477CTVYA	LZW6477CTYA	LZW6477DWVYB	LZW6477DWYB
O'rindiqlar	Odam	5	7	5	7
Jihozlangan og'irligi	kg	1485	1540, 1580	1475,1510,1555	1550, 1580, 1615
Oldingi o'qqa yuklama bazaviy modelning shaxsiy og'irligi	kg	880	880, 895	910, 915, 925	910, 920, 930
Orqa o'qqa yuklama bazaviy modelning shaxsiy og'irligi	kg	605	660, 685	565, 595, 630	640, 660, 685
To'liq og'irligi	kg	1950	2160	1950	2160
Oldingi o'qqa yuklama	kg	1025	1050	1025	1050
Orqa o'qqa yuklama	kg	925	1110	925	1110

## Ishchi suyuqliklarning asosiy parametrlari

Nomlanishi	Savdo belgisi	Hajmi, l
		LZW6477CTVYA/LZW6477CTYA/LZW6477DWVYB/LZW6477DWYB
Avtomobil benzini	Motor benzini RON 95 va undan yuqori	52
Dvigatelning moylash moyi <sup>1</sup>	Dexos 1 Gen 3, 5W-30	4,0
Avtomatik pog'onasiz uzatmalar qutisi uchun moy <sup>1</sup>	SGMW CVT (Shell SI2100) moyi	Umumiy hajmi: 7,5±0,3
Mexanik uzatmalar o'tqazish qutisining moyi	SAE 75W-80	2,0±0,15
Suvituvchi suyuqlik	Sovutgich DEX-COOL 50/50 aralashmasida	6,5–7,5
Tormoz suyuqligi (jumladan, gidravlik ilakishish uchun suyuqlik)	DOT4	0,7±0,05
Konditsioner xladagenti	HFC-134a	700±20 g

<sup>1</sup>To'ldirish hajmlarining taxminiy ma'lumotlari keltirilgan. Qo'shish paytida ushbu qo'llanmaga muvofiq darajaga rioya qilish kerak. To'ldirgandan so'ng, darajani tekshiring.

**Butlangan avtomobilning asosiy texnik parametrlari**

Bo'g'im yoki agregat	O'lchov birligi	Parametr			
		LZW6477CTVYA	LZW6477CTYA	LZW6477DWVYB	LZW6477DWYB
Gabarit uzunligi	mm	4670			
Gabarit kengligi	mm	1835			
Gabarit balandlik (yuklamasiz)	mm	1760			
G'ildirak bazasi	mm	2750			
Oldingi osma	mm	950			
Orqa osma	mm	970			
Oldingi iz	mm	1554			
Orqa iz	mm	1549			
Old osilma burchagi (yuklamasiz/ to'liq yuklama bilan)	-	20/19			
Orqa osilma burchagi (yuklamasiz/ to'liq yuklama bilan)	-	23/20	23/18	23/20	23/18
Minimal yo'oralig'i (to'liq yuklama bilan)	mm	180			
Burilishning minimal diametri	m	11,9			

**Shinalarni shishirish bosimi (sovuq holatda)**

Shinalar modeli	Bo'g'im yoki agregat	Shinalarni shishirish bosimi (o'lchov birligi: kPa)	
		Yuklamasiz	To'liq yuklama bilan
215/55R18	Oldingi shinalar	230±10	230±10
	Orqa shinalar	230±10	230±10
215/60R17	Zaxira shina (to'liq o'lchamli emas)	230±10	230±10

**G'ildiraklarni o'rnatish burchagini sozlash parametrlari (yuklamasiz)**


Bo'g'im yoki agregat		Diapazon (o'lchov birligi: gradus)
Oldingi g'ildiraklar	Razval	-0°26'±45'
	Shkvornyaning bo'ylama enkayish burchagi	4°17'±45'
	Yaqinlashish	0°±5'
	Shkvornyaning ko'ndalang enkayish burchagi	12°29'±1°
Orqa g'ildiraklar	Razval	-1°±45'
	Yaqinlashish	11'±20'

**Boshqa parametrlar**

<b>Bo'g'im yoki agregat</b>	<b>Parametr</b>
G'ildiraklarning dinamik balansirovkasiga nisbatan talablar	Dinamik disbalans qiymati <15 g
Tormoz tepkisinin erkin yurishini me'yordagi diapazoni	<30 mm
Utilizatsiya uchun oldingi tormoz diskining minimal qalinligi	24 mm
Utilizatsiya uchun oldingi tormoz kolodkasining friksion to'shamaning minimal qalinligi	2 mm
Utilizatsiya uchun orqa tormoz diskining minimal qalinligi	8,75 mm
G'ildiraklarning dinamik balansirovkasiga nisbatan talablar	2 mm

**Dvigatelning yuritma kamarini joylashishi**

Dvigatelning va havo kompressorining me'yorda faoliyat yuritishi uchun yuritma kamari soz ishchi holatga ega bo'lishi kerak. Shikastlanish, yirtilish yoki yedirilish holatida yuritma kamarini almashtiring.

 **DIQQAT!**

Yuritma kamarlarini tekshirishda kalitni o't oldirish qulfida qoldirish taqiqlanadi. Dvigatel to'satdan ishga tushirib yuborilishi mumkin. Dvigatelning harakatlanuvchi detallari jiddiy jarohatlar yetkazishi mumkin.